

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

SAYYORA TO‘YCHIYEVA

BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARI

o‘quv qo‘llanma

Bilim sohasi : 600 000 - Xizmatlar

Ta’lim sohasi: 610 000 - Xizmat ko‘rsatish sohasi

Ta’lim yo‘nalishi : 5151700 – Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish

Toshkent - 2019

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti «Madaniyat va san'at muassasalarini boshqarish va tashkil qilish» kafedrasida ko'rib chiqilib, o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: A.Umarov - professor
B.Qurbonov - professor

ANNOTATSIYA

“Boshqaruv texnologiyalari” fani – talabalarga boshqaruv mohiyati, maqsad, vazifalari, jarayonlari, funksiyalari, yo‘nalishlari, uslublari, boshqaruvning nazariy asoslari, xorijiy modellari, ilmiy muassasalari, boshqaruv faoliyatining jahon tajribalari, tizimdagi samaradorlik, O‘zbekistonda menejment, soha taraqqiyoti yo‘lidagi zamonaviy islohotlar haqida tushuncha beradi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonning davlat siyosati ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanmish oliy ta’lim tizimidagi yangiliklar, xorij tajribalari asosida ta’limni tashkil etish, bu borada birinchi navbatda o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish yozilgan o‘quv qo‘llanmaning asosini tashkil etadi.

Mazkur fan talabalarga boshqaruv texnologiyalarining ajralmas qismi hisoblanmish rejalashtirish, tashkillashtirish, motivatsiya, nazorat, to‘g‘ri va aniq qarorlar qabul qilish, boshqaruvning yangi, kreativ jihatlarini egallash borasida tushuncha beradi.

“Boshqaruv texnologiyalari” mavzuidagi o‘quv qo‘llanma boshqaruv faoliyatini mavzular ketma-ketligi, uzviyligi asosida hayotiy misollar, aniq va ishonarli dalillar yordamida yoritib beradiki, san’at va madaniyatning bo‘lajak rahbarlari hisoblanmish talabalar kasbiy bilim, tushuncha va ko‘nikmalarini shakllantirishlari uchun ham qator manbalardan, axborotlardan xaardor bo‘ladilar.

“Boshqaruv texnologiyalari” o‘quv qo‘llanmasi uchun O‘zbekiston Prezidentning boshqaruvning yangi qirralari borasidagi Qarorlari, Farmonlari, Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiyasi dasturilamal sifatida xizmat qilgan.

BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARI

Kirish.

I BOB. HAKIKATLAR STRATEGIYASI–BOSHQARUV FAOLIYATINING ASOSIY MEZONI SIFATIDA

- 1.1.Harakatlar strategiyasi va boshqaruv.....8 bet
1.2.Boshqaruv texnologiyalari: tushunchasi, maqsadi va vazifalari..25 bet
1.3.Boshqaruv jarayonlari.....32 bet

2 BOB.BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARINING ASOSIY JIHATLARI

- 2.1.Boshqaruv funksiyalari.....44 bet
2.2.Boshqaruvda rejalashtirish.....49bet
2.3.Boshqaruvda motivatsiya.....55 bet
2.4.Boshqaruvda nazorat.....61 bet
2.5.Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.....78 bet
2.6. Boshqaruvda "Jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyasi.....84 bet
2.7.Zamonaviy rahbar shaxsi.....93 bet

3 BOB.O‘ZBEKISTONDA BOSHQARUV FAOLIYATINING YANGI QIRRALARI

- 3.1. Madaniyat va san’at sohasidagi ma’rifiy islohotlar.....109bet
3.2.O‘zbekistonda madaniy muassasalarning tashkiliy-huquqiy tuzilmalari.....119 bet
3.3.Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish boshqaruv faoliyatining mohiyati sifatida.....127 bet
Xulosa.....141 bet
Glossariy.....144 bet
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....148 bet

Jami 304 soat. Ma'ruza 52. Seminar 52. Mustaqil ish 100.

Kirish.

1-2-MAVZU.Harakatlar strategiyasi va boshqaruv.

3-4-MAVZU.Boshqaruv texnologiyalari: tushunchasi, maqsadi va vazifalari.

5-MAVZU.Boshqaruv funksiyalari.

6-MAVZU.Boshqaruv jarayonlari.Boshqaruv tamoyillari.

7-MAVZU.Boshqaruvda rejalashtirish.

8-MAVZU.Boshqaruvda motivatsiya.

9-10-MAVZU.Boshqaruvda nazorat.Nazorat tizimida aloqa.

11-MAVZU.Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

12-MAVZU.Boshqaruvda "Jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyasi.

13-14-15-MAVZU.Madaniyat va san'at sohasidagi islohotlar.

16-17-MAVZU. O'zbekistonda madaniy muassasalarning tashkiliy-huquqiy tuzilmalari.

18-19-20-MAVZU.Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish boshqaruv faoliyatining mohiyati sifatida.

21-MAVZU. Bir madaniyat markazi misolida "Boshqaruv texnologiyalari"ni tadbiq etilishi jarayonini o'rganish.

Xulosa.

Glossariy.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

«Boshqaruv texnologiyalari» fanini o‘qitishdan **maqsad** talabalarni boshqaruv faoliyati, mohiyati, maqsad va vazifalari, jarayonlari, funksiyalari, muammolari bilan tanishtirishdir. Tezkor zamonda- axborot zamonida har bir zamonaviy rahbarning faoliyati doirasida boshqaruv tamoyillarini bilishi, xorijiy hamkorlar bilan faoliyat olib bora olishi, innovatsion g‘oyalar, amaliy taklif va xulosalar bera olishi, soha taraqqiyoti yo‘lida yuksak bilimli va madaniyatli bo‘lishi zamon talabidir.

Bu borada mazkur qo‘llanmada yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida boshqaruv faoliyatining yangi qirralari, shiddatli islohotlar olib borilayotgani, oliy ta’lim tizimida yangi avlod adabiyotlarini yaratish masalalari ham kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalar ekani alohida qayd etilgan.

Vazifa esa mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarini to‘liq egallaydigan, bir nechta xorij tillarida bimalol muloqot qila oladigan mutaxassislarni tarbiyalashdir. Bu borada nihoyatda tizimli ma’ruzalar, seminar va amaliy mashg‘ulotlar olib borish kerakki, toki bilim va intellekt egalari-barkamol yoshlarning boshqaruvning har qanday muammolarini yecha oladigan salohiyatlari va zakovatlari bo‘lsin.

“Boshqaruv texnologiyalari” o‘quv qo‘llanmasini yozish jarayonida boshqaruv haqida ma’lumot, yetakchi qarorlari, boshqaruv faoliyatining asosiy vositalari haqida axborot berishga alohida e’tibor qaratildi.

Boshqaruv nazariyasi namoyandalari - fransuz olimi Anri Fayol, amerikalik muhandis-tadqiqotchi Frederik Teylor, nemis sotsiologi Maks Veber tamoyillari, boshqaruv mehnatining asosi hisoblanmish axborot-kommunikatsiyalar, qarorlar qabul qilish asoslari, zamonaviy menejer sifatlari, zamonaviy rahbar xodimlar maqsad va vazifalari, alohida iqtidor talab qiladigan ijodiy oliygohlarda ijodiy imtihonlarning joriy etilishi haqidagi mavzularga alohida o‘rin berildi.

“Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Va men ishonamanki, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi.-deb aytganlarida Muhtaram Yurtboshimiz madaniyat va san’atning o‘rni va kelajagi haqida bashorat qilgan edilar.

Shuningdek, har bir mavzuni o‘rganish jarayonida seminar va amaliy mashg‘ulotlar uchun ishlanmalar, topshiriqlar, fikr-mulohazaga undaydigan tavsiyalar ham o‘quv qo‘llanmaning tayanch vazifalari sifatida e’tiborga olindi.

**Har qanday davlat siyosatining asosini
vatanparvarlik tarbiyasi tashkil etadi
SH.MIRZIYOYEV
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**1 BOB. HARAKATLAR STRATEGIYASI - BOSHQARUV
FAOLIYATINING ASOSIY MEZONI SIFATIDA**

1.1.HARAKATLAR STRATEGIYASI VA BOSHQARUV

R E J A :

1. Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyati.
2. Harakatlar strategiyasi va boshqaruv faoliyati.
3. Prezident ilgari surgan beshta tashabbus yo‘nalishlari.

Bugun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida kechayotgan o‘zgarish va yangilanishlar, xususan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishga asoslangan Harakatlar strategiyasi turli sohalardagi mavjud kamchilik va muammolarning oqilona yechimini topib, insonparvarlik, adolat tamoyillari ustuvorligini ta‘minlash, erkin fuqarolik jamiyatini ravnaq toptirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan adolatli, oqilona ichki va tashqi siyosat nafaqat yurtdoshlarimizga munosib, farovon turmush tarzini yaratish, balki yangicha yondashuvlar asosida har bir sohani yuksaltirish, jahon standartlari darajasiga olib chiqishga qaratilgan. Shu bilan birga, xalqimizning boy madaniy merosini tiklash, milliy madaniyatimizning funksional va tashkiliy jarayonlarini asl mazmun-mohiyati bilan saqlash, barkamol avlod tarbiyasida madaniyat va san‘atning rolini oshirish

masalalari ham davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani nihoyatda muhimdir. Zotan, respublikada madaniyat va san‘at muassasalarining barcha tarmoqlarida transformatsion jarayonlar va innovatsion g‘oyalarning huquqiy, tashkiliy asoslarini ishlab chiqish ham bugunning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifasidir.

Prezidentning har bir yig‘ilishi, xalq bilan uchrashuvlari adabiyot, san‘at, ma‘naviyat va ma‘rifat masalalariga alohida e‘tibor qaratish, yosh avlodning madaniy saviyasini yuksaltirish, badiiy didini shakllantirish borasidagi topshiriqlar, vazifalar va tavsiyalar berish kabi sohaga oid yangi yo‘nalishlarni o‘zida mujassam etmoqda. Davlatimiz rahbari O‘zbekistonning bir necha yillik rivojlanish bosqichlarini oldindan rejalashtirib, taraqqiyotning jahon andozalari hisobga olingan, strategik asosga ega muhim hujjat loyihasini muhokamaga qo‘ydi. Shuning natijasida 2017 yilning 7 fevral kuni O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi” haqidagi Farmon tasdiqlandi¹. Mazkur hujjat mamlakatimiz hayotida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, unda davlat va jamiyat rivojlanishining muhim tamoyillari o‘z aksini topdi. Harakatlar strategiyasining IV yo‘nalishi – Ijtimoiy sohalarga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning to‘rtinchi bandida ta‘lim va fan sohasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Ushbu bandeda ayni sohada qilinishi lozim bo‘lgan barcha zarur chora-tadbirlar belgilandi. YA‘ni, uzluksiz ta‘lim tizimini takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, madaniyat va san‘at muassasalari qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash, maktabgacha madaniyat va san‘at muassasalari faoliyatini rivojlantirish, umumiy o‘rta ta‘lim sifatini yaxshilash, o‘quvchilarning chet tillari va talab yuqori bo‘lgan boshqa fanlarni chuqur o‘zlashtirishlari, kasb-hunar kolleji o‘quvchilarining bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib mutaxassisliklar bo‘yicha ishga joylashishlari uchun imkon yaratish kabi dolzarb masalalar ko‘zda tutilgan².

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

²Haydarov A. Harakatlar strategiyasi va ma‘naviy yuksalish. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2018. – B. 8.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi bilan 2017 yil 14 fevralda mamlakatimizda keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasi samaradorligini ta‘minlash maqsadida “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tashkil etildi. Ushbu markaz nohukumat va notijorat tashkilot bo‘lib, uning faoliyat doirasiga quyidagi yo‘nalish va vazifalar kiradi:

-Harakatlar strategiyasida belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilish jarayonlarini ularning bajarilishi bo‘yicha mas’ul komissiya bilan hamkorlikda qo‘llab-quvvatlash;

- Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha xalqaro tashkilot va ekspertlar fikrlarini baholash, shuningdek, xalqaro tajribalar, jahon standartlarini o‘rganib borish;
- amalga oshirilayotgan tadbirlarning keng jamoatchilik va ekspertlar ishtirokidagi muhokamasini tashkil etish;
- Harakatlar strategiyasida belgilangan tadbirlarni samarali amalga oshirish bo‘yicha asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazining eng muhim vazifalaridan biri Harakatlar strategiyasida belgilangan eng muhim chora-tadbirlarning bajarilishini tizimli monitoring qilib borish hamda har bir yo‘nalish bo‘yicha guruhlarga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Markaz 2017 yil 23 fevral kuni Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tdi va uning taqdimot marosimi 2017 yil 1 mart kuni “Zarafshon” konsert zali negizida tashkil etilgan yangi media maydonida bo‘lib o‘tdi.

Harakatlar strategiyasi va “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalarning bajarilishini keng yoritish va tadbirlar bo‘yicha muntazam ravishda jamoatchilik muhokamasini o‘tkazish maqsadida markaz tomonidan O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi va boshqa yetakchi OAV hamda Xalqaro press-klub bilan o‘zaro hamkorlik bitimlari imzolandi.

Mana ikki yildirki ushbu strategiyaning har bir bandi borasidagi olib borilgan

g'oyat katta ishlarning natijasi o'laroq "Obod mahalla", "Obod qishloq" dasturlarining amalga oshirilishi, qator madaniyat va san'at maskanlarining ishga tushirilishi, ta'mirlanishi va xalq xizmatiga topshirilishi xalqning e'tiroflariga sazovor bo'lmoqda.

Shuningdek, 2019 yilning 19 mart kuni mamlakat rahbari tomonidan yoshlar ta'lim-tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarimiz onggiga axborot-texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, mutolaa va kitob o'qish madaniyatini targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan **beshta tashabbus**ning ilgari surilishi yurtimizda tarixiy islohotlar kechayotgan bir davrda inson omiliga, uning qiziqishlari va hayot tarzining yanada sarmazmun bo'lishiga davlat rahbariyati tomonidan yana bir e'tibor sanaladi.

Alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yangi tizim asosida tashabbus bo'lib, mamlakatda boshqaruv faoliyatining yangicha ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishi yoshlarning mustaqil fikrga ega bo'lishlari, madaniyat va san'a sohasiga yanada yaqinlashishlari uchun o'zgacha imkoniyat hisoblanadi.

Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga qaratilgan birinchi tashabbus;

Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ikkinchi tashabbus;

Aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishga qaratilgan uchinchi tashabbus;

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan to'rtinchi tashabbus;

Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ular bandligiga alohida e'tibor qaratish masalalariga qaratilgan beshinchi tashabbus yoshlar tomonidan juda katta qiziqish bilan kutib olindi.

O'zbekistondagi 800 dan ortiq madaniyat markazlaridagi yangicha ish faoliyati, 312 nafar musiqa va san'at maktablarida qamrab olingan 130 mingdan ortiq yoshlarning yangi o'quv qo'llanmalari, notalar to'plamlari, musiqa asboblari bilan jihozlangan mutlaqo yangi ko'rinishdagi san'at dargohlarida ta'lim-tarbiya olayotgani va ular orasidan respublika va xorijda o'tkazilayotgan konkurslar g'oliblari yetishib chiqayotgani Harakatlar strategiyasi asosida madaniyat va san'at yo'nalishiga berilayotgan e'tiborning o'ziga xos yutuqlaridir.

Shu bilan birga 2018 yilning iyulidan boshlab Toshkent shahridagi 30 ta, viloyatlardagi 12ta qator bolalar musiqa va san'at maktablariga taniqli san'at ustalari rahbar etib tayinlandilar. Ular safida O'zbekiston xalq artistlari - Zamira Suyunova, Xayrulla Lutfullayev, G'ulomjon Yoqubov, Zulayho Boyxonova, Nasiba Abdullayeva, O'zbekiston xalq hofizlari Soyibjon Niyozov, Abdunabi Ibragimov, O'ktam Ahmedov, Erkin Ro'zmatov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Azim Mullaxonov, Ravshan Komilov, G'iyos Boytoyev, Ilhom Farmonov, Toir Qo'ziyev, Dilfuza Rahimova, Abdulla Shomag'rupovlar bor. Ushbu musiqa va san'at maktablarida madaniyat va san'at sohasida olib borilayotgan ibratli ishlar, jahon, mumtoz va milliy, zamonaviy musiqa san'atiga bo'layotgan bolalarning qiziqishlari, yangi ijod namunalarini yaratish, ushbu ijod namunalarini jahon sahnalarida ijro etilishiga zamin tayyorlash ustoz san'atkorlarning tajribalari va bilimlari naqadar rang-barang va boy ekanidan darak bermoqda.

Iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda madaniyat markazlarida badiiy havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari, "Yoshlar klublari"ning tashkil qilinishi, atoqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlarga madaniy ishlarga ko'makchi sifatida ijodiy maslahatchilar sifatida

biriktirilishi, necha ming yillik madaniyatimiz va ma'rifatimizni chuqur o'rganish borasida darslarni muzeylar va tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o'tkazilishini ta'minlash madaniyat va san'at sohasiga o'zgacha ruh bag'ishlasa, mamlakatdagi 12 mingdan ziyod sport inshootlariga yoshlarni ommaviy qamrab olish, joylardagi sport maktablariga xalqaro sport musobaqalarida g'olib bo'lgan taniqli sportchilarni rahbar etib tayinlash, sportchilarni oliy o'quv yurtlarining maxsus sirtqi bo'limlarida maqsadli o'qitish, bolalar, o'smirlar sport maktablari sonini ko'paytirish yoshlarni internetdagi har xil xurujlardan himoya qilish, "ommaviy madaniyat"ga nisbatan mustahkam immunitet hosil qilishlariga ko'mak beradi.

Bugun tashqi "ommaviy madaniyat" bilan birga ichki "ommaviy madaniyat" tomonidan kuchayib borayotgan tahdidlarga ham ko'proq e'tibor berib, yoshlarimizni uning salbiy ta'siridan ogoh etish yo'lini izlash bugunning talabi hisoblanadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Yoshlarimizni g'arazli kuchlar tuzog'idan saqlash, tinchlik, osoyishtalikni ta'minlash, odamlar o'rtasida mehr-oqibat muhitini kuchaytirish uchun, mamlakatimizda keng ko'lamda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini yanada takomillashtirish, ularning izchilligi va samarasini oshirish, yangi bosqichga ko'tarishimiz lozimdir. Masalan, ayrim hollardda ma'naviy targ'ibot ishlarimiz faqat barchaga ma'lum siyqa uslub va usullar bilan olib borilayotgani ham sir emas. Targ'ibotchining salohiyati, zamonning ruhi, uning yurtimizda olib borilayotgan yangi jamiyatning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishi, odamlarning qalbiga kirib borishi, bildirilayotgan fikrlarning qay darajada ta'sirchanligi bilan uzviy bog'liqligini esdan chiqarmasligimiz lozim.³

Shuningdek, yoshlar uchun ilg'or xorijiy tajribalar asosida shahar va tumanlar

³ "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish-davr talabi."//O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2016y. 12 avgust, №33 (4380).

markazlarida Raqamli texnologiyalar o'quv markazlarini tashkil etish, ushbu markazlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o'rgatilishi, axborot texnologiyalar bilan shug'ullanish bo'yicha innovatsion ko'nikmalar berilishi, zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlanish darajasini oshirish, kompyuter o'yinlari markazlarini tashkil etish masalalari ham ushbu tashabbuslarning amalga oshirilishi borasida ustuvor yo'nalishlar sirasiga siradi.

Har bir bolaning bolaligidan kitobga mehrini uyg'otish, mutolaaga o'rgatish borasidagi tashabbus esa o'z o'rnida Qoraqalpog'iston Respublikasi va har bir viloyatga bir million nusxadan kam bo'lmagan kitob ortilgan "Kitob karvoni"ni yetkazib berish, respublikadagi har bir rahbarning o'zi o'qigan maktabiga kitob taqdim etishi, olis qishloq va ovullar aholisiga kitob yetkazib beradigan "Bibliobus" avtobuslar qatnovini yo'lga qo'yish borasidagi kitobga mehr qo'yish borasidagi tashabbus tarixiy, klassik, mumtoz, zamonaviy va xorijiy adabiyotni o'rganish borasida mamlakat tarixida amalga oshirilmagan katta loyiha sifatida keng quloch yoymoqda.

2017 yilning 12 yanvarida esa Prezidentimizning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" farmoyishi e'lon qilindi. Unda aholi orasida kitobxonlik madaniyatini o'stirish, xalqimizning badiiy-intellektual salohiyatini kitob orqali rivojlantirish bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlar belgilab berildi.

Harakatlar strategiyasi nafaqat iqtisodiy jabhalarni tizimli tartibga tushirish, yangilash va rivojlantirish, balki turli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillar ta'sirida jiddiy ziyon ko'rgan ma'naviy dunyomizni ham tubdan yangilash va yuksaltirishni nazarda tutadi.

Harakatlar strategiyasi davlat va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan vatanparvarlik omiliga mustahkam tayangan holda ish olib borishga

da'vat etadi. Vatanni sevish – o'z oilasi, kasbi, hududi va O'zbekistonni qadrlashda namoyon bo'lishga alohida e'tibor qaratadi.⁴

Prezident ilgari surgan tashabbuslarning yana biri xotin-qizlar bandligini ta'minlash borasida 2019-2020 yillarda 24 mingdan ortiq doimiy ish joyi yaratish ko'zda tutilgani, tashkilotlarda ishni ikki smenada tashkil etish, xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish borasidagi yirik loyihalarni amalga oshirish uchun zarur ekanligi ta'kidlanadi.

Ko'rinib turibdiki, boshqaruv faoliyatining har bir yangi qirrasini yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarish, pirovardida madaniyat va san'at sohasidagi yangi ijod namunalaridan xalqimizni bahramand qilishdir.

Ko'rinadiki boshqaruv faoliyatida xususan uzluksiz ta'lim tizimida barkamol avlodni tarbiyalash borasida, ilm-fan texnika taraqqiyotini rivojlantirish borasidagi islohotlarning o'ziga xos tizimli dasturi hisoblanmish Muhtaram Yurtboshimiz rahbarligidagi islohotlar madaniyat va san'at boshqaruvi borasida ham dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Tashkilot oldiga qo'yilgan mo'ayyan vazifa, maqsadga yetish yo'lida inson intellektini ro'yobga chiqarish jarayoniva bu jarayonni amalga oshirish borasida rejalar, qarorlar, dasturlarni o'z ichiga oladigan faoliyat- **boshqaruv**dir. Bu jarayonni har bir tashkilot yoki guruhni boshqarishda kuzatish mumkin. Tashkilotning amaliy ishlarida ishtirok etuvchi, muvofiqlashtiruvchi boshqarmalar, bo'limlar, mutaxassislarning birgalikdagi harakati boshqaruvning amaldagi ijrosini tashkil etadi. Boshqaruv aqliy mehnatga asoslanadi, boshqaruv inson intellektini ijodiy fikrlashga, yangi ijodiy namunalar yaratishga undovchi tizimli faoliyatdir, g'oyalar, mulohazalar, tavsiyalar, ko'rsatmalar, qonuniy hujjatlar ushbu faoliyatni harakatlantirib turadi.

⁴ Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. M.Bekmurodov, Q.Quronboyev, L.Tangriyev. Toshkent, G'.G'ulom, 2016 .

Boshqaruv **maqsadi** esa ana shu jarayonda mutaxassis xodimlar faoliyati, ularning mutanosib ish yuritish, sohaga oid yangiliklarni joriy eta olish, xorijiy hamkorlik asosida xorij tajribasini amaliyotda qo'llay bilish, bu borada yangi innovatsion g'oyalarni izchil amaliyotga kirisha olish, milliy va jahon tajribalarini o'rganish, zamonaviy axborot-texnologiyalaridan samarali foydalanishdan iborat. Tashkilotdagi barcha resurslardan oqilona foydalanish, rejalashtirish, tashkillashtirish mehnat samaradorligini oshirishning muhim mezonini bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, har bir tashkilot madaniyati, mutaxassislar va xodimlar orasidagi sog'lom muhit, ularning xulq-meyorlari, mehnatga bo'lgan ijodiy va qizg'in munosabatlari, turdosh tashkilotlarning muvaffaqiyati yoki inqirozidan to'g'ri xulosa chiqara olishlari ham boshqaruv faoliyatining asoslaridandir.

Rahbariyat va xodimlar munosabatlari quyidagilarda yaqqol ko'zga tashlanadi:

-boshqaruv faoliyatining asosiy ish yurituvchilari – mazkur tashkilotning o'z ishini puxta biladigan xodimlari;

-boshqaruv faoliyatiga oid, faqat mazkur tashkilot faoliyatiga oid sohaning o'ziga xos texnologiyalari, ish tutumlari;

-mazkur tashkilotning sohaga oid har bir amaliy tadbiriga sarflanayotgan vaqt miqdori;

-o'ziga xos rag'bat yoki ushbu tashkilotning yuqori pog'onasidan quyi pog'onasigacha xizmat qilayotgan xodimlari mehnatini munosib taqdirlash, e'tirof etish (mukofotlash, o'rnak qilib ko'rsatish) yoki adolatli va o'z o'rnida jazo tayinlash (ogohlantirish, hayfsan berish, oylik maoshi miqdorida ushlab qolish);

-tashkilot faoliyatiga foydasi tegayotgan har bir mutaxassis xodimning layoqati, mehnat ko'nikmalarini egallaganiga qarab, xizmat pog'onasini yoki maoshi

miqdorini oshirish (boshqaruv faoliyatida munosiblarni boshqalarga namuna qilib ko'rsatish katta natija berishi ma'lum);

Har bir tashkilot faoliyatida asosiy omillar hisoblanmish milliy va ma'naviy xususiyatlar, turdosh tashkilotlar rivojlanishi monitoringidan xabardor bo'lish kelgusidagi rejalar uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Hamma vaqt va hamma sharoitda tashkilot muvaffaqiyati yoki inqiroziga avvalambor birinchi rahbarlar mas'uldirlar. Xodimlar mehnat taqsimoti, ularning kasbiy yutuqlari, mehnat sharoitlari birinchi galda rahbarning ishni qanday tashkil etganiga bog'liq. Shuning uchun ham zamonaviy boshqaruv faoliyatini mukammal biladigan, mustaqil fikrga ega zamonaviy kadrlarni tarbiyalash davlatning birinchi galdagi vazifalaridandir.

Boshqaruv jarayonining rivojlanish bosqichlari haqida gap ketganda Sohibqiron Amir Temurning davlat va harbiy ishlarni boshqarish borasidagi tashkilotchilik faoliyati haqida quyidagilarni keltirish mumkin.

Buyuk sarkarda va davlat arbobi hisoblanmish Sohibqiron Amir Temur madaniyat va san'atga, adabiyot va ma'rifatga aloqador kishilardan saltanat rivoji yo'lida foydalanmoqlik, ularning ibratli hayot va ijod yo'llarini targ'ib qilmoqlik masalasida ham dunyoga ibrat bo'larli ijobiy ishlarni qilganini tarix tasdiqlaydi. Shuning uchun ham Movoraunnahrning poytaxti Samarqand madaniyat va san'at rivojining muhtasham markaziga aylangani, undan tashqari dunyoning eng kuchli sangtaroshlari, naqqoshlari, me'morlarining mujassami ham Samarqandda qurilgan binolarda o'z aksini topgani jahongirning ijod kishilariga bo'lgan e'tiboridan darakdir. Shuning uchun ham Amir Temur: "Bir daraxtni kessam, o'rniga o'n daraxtni ektirdim", yoki "Bizning qudratimizga shubha qilganlar qurgan imoratlarimizga boqsinlar" deb aytgan bo'lsa kerak.

Tarix guvohlik beradiki, Hazrati Sohibqironning dasturilamali adolat, shijoat va bir so'zlilik bo'lgan. "Tuzuklar"ni o'qigan kishi albatta buyuk hukmdorning 12ta tuzugiga - qat'iyatiga qoyil qolmay iloji yo'q.⁵

- 1. tuzuk. Har vaqt imonga suyanish, islom dinini quvvatlash.**
- 2. –tuzuk. O'n ikki tabaqa kishilar bilan mamlakatni boshqarish. Buyruq, farmoyish, ko'rsatma shaxsan birinchi rahbarning o'zi tomonidan bo'lishligi.**
- 3. -tuzuk. Maslahat. kengash, tadbirkorlik, faollik va ehtiyotkorlik bilan ish ko'rish.**
- 4. -tuzuk. Davlat ishlarini to'ra va tuzukka asoslanib boshqarish.**
- 5. -tuzuk. Amir va askarlarni rag'batlantirib borish.**
- 6. -tuzuk. Adolat va insof tarozusini birday ushlab.**
- 7. –tuzuk. Sayidlar, ulamo, mashoyix, oqilu donolar, muhaddislar, tarixchilar – ziyolilarning hurmatini joyiga qo'yish.**
- 8. –tuzuk. Azmu jazm bilan ish tutish. (biron masalaning yarim yo'lda qolmasligi nazarda tutilmoqda).**
- 9. –tuzuk. Raiyat ahvolidan ogoh bo'lish, ulug'larni og'a, kichiklarni farzand o'rnida ko'rish.**
- 10. –tuzuk. Yaxshilarga yaxshilik, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirish.**
- 11. –tuzuk. Do'stu dushman bilan kelishib yashash.**
- 12. –tuzuk. Sipohlar-askararni ishonchini qozonish, ularni qadrlash.**

⁵ Amir Temur "Temur tuzuklari", O'zbekiston, Toshkent, 2011 y. 77- bet

Shu o‘rinda buyuk sarkardaning quyidagi so‘zlari yozganlarimizning isbotidir:

“Kimki biror sahroni obod qilsa, yoki biron koriz qursa, yo biror bog‘ ko‘kartirsa, yoki biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yilda undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘sinlar”, yoki “Kasbu hunar va ma‘rifat ahllariga saltanat korxonalaridan yumush berilsin”, yoki “Adl tarozusini qo‘limga oldim, ne kam qildim va ne ziyod, hammani o‘lchovda barobar tutdim”.

Tuzuklarda “Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur.⁶ degani hikmatida fikru mulohazalariga tayangan insonlarining maslahatlariga amal qilgani va faqat adolat tamoyillariga asoslanib davlatni boshqargani mufassal yoritilgan. Shuningdek:

“Saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilgin, ya’ni

- 1) .(O‘zing bilan) kengash;
- 2) .(Boshqalar bilan) maslahat-u mashvarat ayla;
- 3) .Hushyorlik-u mulohazakorlik bilan qat’iy qaror chiqar;
- 4) .Ehtiyotkorlik qil.

Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari xato bo‘lgan johil odamga qiyoslash mumkin: uning so‘zlari va qilmishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay. Shunday ekan saltanat boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbir bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo‘lmagaysan.⁷Barcha hukmdorlar singari Sohibqiron ham yurt ishiga fidoyi, o‘z so‘zida sobit turadigan, kerak vaqtida berilgan topshiriqni jon-jahdi bilan bitkaza oladigan, bilimdon va mehnatsevar kishilarning mehnatini va sadoqatini qattiq hurmat qilgan. “Tajribamda ko‘rilgankim, azmi

⁶ Temur tuzuklari. Toshkent. O‘zbekiston. 2011, 14b.

⁷ Temur tuzuklari. Toshkent. O‘zbekiston. 2011, 14b.

qat'iy, tadbirkor, shijoatli bir kishi, mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab kishiga ish buyuradi".⁸

Amir Temurning madaniyat, ilmu fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa, adabiyot rivojiga qo'shgan hissasi, Fransiya, Ispaniya, Genuya, Angliya, Xitoy bilan diplomatik aloqalarni olib borgani, Bibixonim jome masjidi, Go'ri Amir va Ahmad Yassaviy, Zangiota maqbaralari, Oqsaroy va Shohizindadagi me'moriy mo'jizalar, Bog'i Chinor, Bog'i Dilkusho, Bog'i Behisht, Bog'i Baland singari o'nlab go'zal saroy-bog'lar.

yaratgani, Quryoni karimni yod bilgani, bugun dunyoning 50dan ortiq mamlakatida temurshunos olimlar faoliyat ko'rsatayotgani, o'tgan salkam yetti yuz yil mobaynida Amir Temurga bag'ishlab yaratilgan asarlar soni Yevropa tillarida 500dan ziyod, Sharq tillarida 900 dan ziyod ekani Yevroosiyaning 27 ta davlatini mohirona boshqargani va boshqaruv faoliyatida buyuk davlat arbobining qat'iy intizom va adl adolat tamoyillariga asoslanib, qudratli saltanatni boshqargani boshqaruv faoliyatining tarixiy, ilmiy maktabiga aylangani rost.

Boshqaruv jarayonlari har bir mamlakatda va har bir xalq hayotida o'ziga xos, milliy-ma'naviy qadriyatlarga, mansub xalqning ijtimoiy qarashlariga asosan tashkil etilgan, masalan aniq hisob-kitob, tejamkorlik, mas'uliyat va har bir ishni o'z vaqtida va o'z meyorida bajarilishini ta'minlash boshqaruvning **nemis modeli** asosini tashkil etsa, davlatning kelib chiqishi, milliy va mental omillarning boshqaruv faoliyatiga ta'siri, boshqa davlatchilik jarayonlaridan tubdan farq qiladigan model esa **xitoy modelining** o'ziga xosligini bildiradi, tadbirkorlik, ratsionalizm, inqilobiy sakrashlarsiz, tinch yo'l bilan masalaga yondashish tamoyillarini ilgari surgan, xalqning turmush darajasiga keskin ta'sir qiladigan soliqlar tizimini isloh qilish, ishchilar malakasini oshirib kasbning boshqa yo'nalishlariga yo'naltirish, faqat kuchli ijtimoiy siyosatga ega bo'lgan davlatchilik sistemasini shakllantirish boshqaruvning **shved** modeliga zamin yaratdi.

⁸ Temur tuzuklari."Sharq.Toshkent, 2005, 13-bet.

Boshqaruv modellarining rivojlanishi va taraqqiy topishi XX asrdan boshlanganini quyidagi asoslarda ko‘rish mumkin.

Oddiy ishchilikdan boshqaruvchilik lavozimigacha bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarning barcha bosqichlarini o‘z hayoti davomida boshidan o‘tkazgan, bo‘ysunuvchi xodimlarning malakasini yuksaltirish, qisqa o‘quv jarayonlariga ko‘ra bir yo‘la turli kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish borasidagi amerikalik muhandis Frederik Teylorning “teylorizm” ta‘limoti 1885-1920 yillarda **mehnatni ilmiy tashkil etish yoki ilmiy boshqaruv maktabi** sifatida nom qozondi.

Mehnat samaradorligini oshirish boshqaruv tizimining birinchi va asosiy maqsadi ekanini amalda isbot qilgan fransuz olimi Anri Fayolning 1920-1950 yillardagi ta‘limoti **ma‘muriy boshqaruv maktabi** sifatida tan olindi. Fransuz olimining boshqaruv faoliyatiga doir qarashlari taniqli o‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida ham alohida e‘tirof etilgan

Anri Fayol boshqaruv asoslari tamoyillari bilan bir qatorda, funksiyali boshqaruv (“boshqaruv elementlari”) asoslarini ham ishlab chiqdi. Uning boshqaruv funksiyalarining o‘zaro bog‘liqligi. Xususan boshqaruvni tashkil etish (“odamlarni boshqarish san‘ati”), muvofiqlashtirish (“xarajatlarni muvofiqlashtirish, kuch-g‘ayratlarni birlashtirish”), nazorat (“dasturlarni amalga oshirish, farmoyishlar ijrosini tekshirish”) va boshqa g‘oyalari vaqt sinovidan o‘tdi.⁹

Alohida ta‘kidlash lozimki, madaniyat va san‘at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish tizimining ilmiy nazariy asoslarini tahlil qilgan ko‘plab olimlarning tadqiqotlarini o‘rganish hamma vaqt fanning asosiy masalalaridan hisoblangan. Boshqaruv nazariyasi asoschilarining faoliyatlari bunga misol bo‘la

⁹ Q.Abdurahmonov, SH.Xolmo‘minov, N.Zokirova. Personalni boshqarish. Toshkent. 2008. O‘qituvchi, 29 b.

oladi. Masalan Frederik Teylor boshqaruv nazariyasi bilimdonlari Ford, Gilbert, Emmersonlar qatorida boshqaruv nazariyasining tarixan dastlabki yoʻnalishi “klassik” (anʻanaviy) maktabini yaratganlardan biridir. Teylor xizmat pogʻonalarning barcha darajalarini AQSH dagi Bestlegem yirik metallurgiya korxonasi kichik xizmatchisidan boshqaruvchisigacha boʻlgan faoliyati misolida “Korxonani ilmiy boshqarish asoslari”, “Boshqarishni ilmiy tashkil etishni tamoyil va usullari” kabi qator asarlarining dunyoning qator tillariga tarjima qilinishi orqali, maqsad, barcha shart va usullarga ogʻishmay amal qilinishi- yarim muvaffaqiyat ekanini isbotlab berdi. Teylor taʼlimotining afzal tomonlari shundaki, u eng kichik xodimgacha aql-zakovat, maʼlumot, ish tajribasi, axloq-odob, kengfikrlilik, gʻayrat, shijoat, ziyraklik, halollik, toʻgʻri fikr egasi boʻlishi kerak, eng muhimi ishchi xodimning salomatligi ishning yutugʻiga asos boʻladi, degan fikrni ilgari surdi. Mana shu sifatlarning qanchasiga ishchi xodim toʻla javob taʼminlash mumkinligini isbotlab berdi. Shuning uchun ham dunyoda “teylorizm” taʼlimotiga tayanib ish koʻrgan ishbilarmonlar Frederik Teylorni “Ishning koʻzini biladigan Teylor” deb ataganlar.

Yana bir boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri **Anri Fayol** boshqaruv boʻyicha 14 tamoyilni ilgari suradi. Fransuz olimi mehnat taqsimotini ishni koʻp hajmda, sifatli bajarish, vakolat va javobgarlikka katta ahamiyat berish, vakolatning javobgarlik tendensiyasiga mos tushishi, har qanday sharoitda qatʼiy intizom muvaffaqiyat garovi ekanligi, buyruqlar va qarorlar yakkaboshchilik asosida – faqat boshliqning vakolatiga munosib ekanligi, bir rahbar va yagona reja asosida qilingan ish yoʻnalishning bitta ekanligidan darak berishi, hammavaqt shaxsiy manfaatlar umummanfaatlar asosida qoʻllanilishi, adolatli eʼtirof va mukofot ishning natijasiga katta ragʻbat berishi, markazlashtirish, skalyar zanjir metodini qoʻllash, eng pastdagi xodimdan eng yuqori lavozim egasigacha) tashkilotning har bir aʼzosi tashkilot gʻalabasi yoki magʻlubiyatiga birdek javobgarligini oshirish, hamma narsa va hamma uchun bir xil sharoit yaratish, haqqoniyat va adolatning shaffofligini taʼminlash, ish oʻrnining barqarorligi ishchi

uchun nechogʻlik ahamiyatga egaligini taʼminlash, tashabbus yangi natijalarning kaliti ekanini anglash, birgalashib, ittifoq boʻlib, yagona kuchga aylanmoq – bu katta natija, yuqori samara ekanini tushunish, anglash, his etish kabi tamoyillar – boshqaruvning eng samarali tamoyillari ekanligini isbot qildi.

A.Fayol boshqaruv tizimiga oid beshta universal elementlarni asoslab bergan:

- 1.Rejalashtirish.
- 2.Tashkillashtirish.
- 3.Rahbariyat.
- 4.KoordinatsiY.
- 5.Nazorat

Boshqacharoq taʼrif beriladigan boʻlsa, boshqaruv – bu muayyan tashkilot maqsadi yoʻlida rejalashtirish, tashkillashtirish, ruhlantirish va nazorat qilishdir. Boshqarma esa faoliyatning asosiy turi boʻlib, iqtisodiy – ijtimoiy oʻzgarishlarga asoslanib ish koʻradigan tashkilotdir. Mavjud imkoniyatlarni, inson intellekti va mehnat resurslarining toʻlaqonli imkoniyatlarini jamoaning maʼlum maqsadi sari yoʻnaltirish boshqaruv ekanini anglash qiyin emas. Boshqaruvning tamoyili yoki nazariyasi esa – harakat uchun umumiy tavsiyalar va qabul qilishda aniq maqsadga tomon dadil qadamlardan iborat boʻladi. Bu borada ilmiy maktab yaratgan olimlarning tamoyillarini koʻrib chiqamiz:

Boshqaruvning ilmiy kategoriyalarini boshqaruvning ilmiy maktabi asoschilaridan biri – Garrington Emerson “**Unumdorlikning oʻn ikki tamoyili**” (1912) kitobida yozadi : aniq va puxta maqsadni belgilash, sogʻlom fikrlash, mutaxassis va tajribali kishilar maslahati, hammaga birdek tartib-intizom, xodimlarga adolatli munosabat, maʼlum meyorlash va ish tartibi, sharoitning qulayligi, puxta yoʻriqnomalar, samarali ragʻbatlantirish boshqaruv faoliyatiga juda katta ragʻbat beradi, bu oʻz navbatida tashkilot muvaffaqiyatlariga asos boʻladi.

Boshqaruv maktablarining yana bir namoyandasi, nemis sotsiologi M.Veber esa mehnat va rag'batni to'g'ri tashkil qilinishi, jazo mexanizmlarining o'z o'rnida va adolatli ishlatilishi, o'z ishining ustasi bo'lgan tajribali va yuqori malakali mutaxassislarning qadrlanishini ta'minlash, yuqoridan quyi pog'onaga qadar nazoratning aniq va puxta tizimini yaratish boshqaruv faoliyatining negizlaridan biri deb e'tirof etadi.

Faoliyatni to'g'ri tashkil etish, xodimlarni halol va samarali mehnatga da'vat etish, mehnatlarini nazorat qilish, boshqaruv jarayonini to'g'ri tashkil etish, maqbul qarorlar qabul qilish boshqarishning mazmun- mohiyatini belgilab beradi.

Ma'lum bilim, ko'nikma, malaka, mahorat, ma'rifat, mahorat, farosat, madaniyat kasbiy nazokat, tajriba, qobiliyat va o'zigaxos tajribaga asoslanib tashkilotni boshqarish rahbarlik deb ataladi.

Fransuz olimi Anri Fayol: **Boshqarish - kelajakni ko'ruvchi, faoliyatni tashkillashtiruvchi, tashkilotni idora qiluvchi, faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi, qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli quroldir** – deb o'z asarlarida bekorga yozmagan .

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, har qanday boshqaruvni zamon talabi asosida yanada yuksaltirish dolzarb masala bo'lib, albatta amalga oshiruvchilar rahbarlardir.

Nazorat uchun savollar

1.Harakatlar strategiyasining mazmun- mohiyati nimalardan iborat va Prezident ilgari surgan beshta tashabbusni bilasizmi?

2.Strategiyaning 4-yo'nalishi borasida fikrlaringiz qanday?

3."Temur tuzuklari" da Amir Temur boshqaruvga qanday yondashgan?

4.Boshqaruvning ilmiy maktablarini bilasizmi?

5.Rahbarlarning boshqaruvdagi o'rnini haqida nimalarni bilasiz?

6.Boshqaruv faoliyati nima?

7.Madaniyat va san'at sohasida boshqaruvni qanday tushunasiz?

8. Bolalar va o‘smirlar maktabining faoliyati nimani anglatadi?

1.2. BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARI: TUSHUNCHASI, MAQSADI VA VAZIFALARI

REJA:

1. Boshqaruv texnologiyalari fanining ahamiyati.
2. Boshqaruv texnologiyalarining tuzilmalari.
3. Boshqaruv texnologiyalarining boshqaruv faoliyatidagi yangi qirralari.

Bugungi tezkor jarayonda ya'ni axborot asrida boshqaruvni yuksaltirish eng dolzarb bo'lib turgan bir paytda, jamiyatda boshqaruv texnologiyalarisiz har qanday vazifani bajarish qiyindir. Albatta, biz bilamizki boshqaruvni uch asosiy turi mavjud: avtoritar, demokratik va liberal. O'zbekiston huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borar ekan, jamiyat boshqaruvida demokratik boshqaruv tamoyillari yetakchi o'ringa chiqmoqda. Bugungi kun talabi boshqaruv strategiyasi va amaldagi vazifalarini ham o'zgartirmoqda, yangidan yangi maqsadlar va vazifalar qo'ymoqda. Aynan boshqaruv texnologiyalari tushunchasi orqali buni ahamiyatini bilish mumkin.

Boshqaruv texnologiyalari asosan:

- boshqaruv jarayonlari va umumiy boshqaruv funksiyalari (rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, nazorat, muvofiqlashtirish);

- motivatsiyaning mazmuni va jarayon nazariyasi;

- boshqarish, aloqa tarmoqlari, og'zaki bo'lmagan ma'lumotlar haqida axborot va kommunikatsiyalar;

- boshqaruv qarorlari: qabul qilish va ijrosini ta'minlash, ijroni nazorat va monitoring qilish borasidagi amaliy harakatlarni o'z ichiga oladi. O'z o'rnida har

qanday tashkilotning nizomi va tashkiliy-meyoriy faoliyatida boshqaruv texnologiyalari muhim o‘rinni egallaydi.

Ma’lumki, boshqaruv jarayonida rahbariyat va xodimlar o‘rtasidagi munosabat, boshqaruv qarorlarini o‘z o‘rnida va asosli qabul qilish, muntazam va sifatli ijro, ijroning vaqt va aniqlik mutanosibligidagi doimiy nazorati jarayonning asosini, negizini bildiradi. Boshqaruv jarayonlarining uzviy va samarali kechishi inson kapitali, mehnat turi, mehnat predmeti va ishning ko‘lamiga bevosita bog‘liq. Amalda boshqaruv jarayoni ishlab chiqarish tarzidagi qator uzluksiz, tizimli jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichlar tashkiliy tayyorgarlik, qaror qabul qilish, qaror ijrosini ta’minlash va nazorat shakllari asosiga quriladi.

Ma’lumki, tahliliy axborot boshqaruv subyekti uchun faqat mehnat predmeti emas, balki bir vaqtning o‘zida bilim va tajribani, mehnat mahsulotini amalga oshirish vositasi hamdir.

Axborot boshqaruv faoliyatida eng zarur tushuncha bo‘lib, boshqaruv jarayonining o‘zagi, sifat va samaradorlikning ko‘lami qabul qilingan axborotning aniq va ishonchli, samarali ekaniga bog‘liq.

Ishlab chiqarish uzluksizligini amalga oshirish boshqaruv texnologiyalarini tizimli tashkil etishda ko‘proq ko‘rinadi. Har qanday tashkilot kelajak strategik dasturini aniqlashi va bu strategiyani amalga oshirish uchun butun jamoaning mas’uliyati va javobgarligini ta’minlashi zarur. Strategik boshqaruvning funksiyasi tezkor boshqaruvning funksiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak. Shu bilan bir qatorda va tashkilot rivojlanishining asosiy shartidir.

Bu borada taniqli olimlar L.V.Peregudov, M.X.Saidovlar boshqaruv strategiyasini beshta bir-biriga bog‘liq masala bilan hal etishga asoslanishi haqida asosli fikr aytadilar.¹⁰

¹⁰ L.V.Peregudov, M.X.Saidov. Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti. T. “Moliya”, 2002, 11b.

1.Tashkilot bajarilishi lozim bo'lgan strategik ko'ra bilishni, harakat uzoq muddatli yo'nalishini va aniq vazifani shakllantirish.

2.Strategik ko'ra bilish va zimmadagi vazifani aniq maqsad va topshiriqqa aylantirish

3.Maqsadlar va vazifalarga erishish strategiyasini ishlab chiqish.

4.Qabul qilingan strategiyani malakali hamda samarali tadbiq etish va amalga oshirish.

Ish natijalarini baholash, yangi yo'nalishlarni o'rganish va rivojlanishning uzoq muddatli yo'nalishi, strategiya maqsadlari yoki amaldagi tajribaga asosan uni amalga oshirish usullari, o'zgaruvchan sharoitlar, yangi g'oyalar va imkoniyatlarga nisbatan to'g'rilovchi hatti-harakatlarni amalga oshirish, yaxshi o'ylangan strategik mo'ljal tashkilotni istiqbolga tayyorlaydi, rivojlanishning uzoq muddatli yo'nalishini belgilashga yordam beradi, qachonki boshqaruv jarayonining vazifalari, uslublari, tartibi, ketma-ketligi, bajarilishi va reglamentini o'z ichiga oladigan faoliyat- **texnologiyadir**. Mehnat predmetini mehnat mahsulotiga aylantirishga texnologik jarayon o'z vazifasini oqlaydi, chunki birinchi qadamdan so'ngi pirovard natijagacha yo'naltirilgan faoliyat boshqaruvda - **boshqaruv texnologiyalari** deyiladi. Tabiiyki, har qanday boshlang'ich qadam boshlang'ich axborotning qabul qilinishidan boshlanadi va boshqaruv texnologiyasi axborot orqali maqsadga – qaror qabul qilish, uni amalga oshirish, amalga oshirishning turli-tuman mexanizmlarini ishlab chiqish, amalga oshirish jarayonini maqsadga muvofiq, to'g'ri tashkil etish, nazorat va monitoring tizimlarini amalga oshirishga o'tiladi.

Boshqaruv texnologiyalari boshqaruvning asosiy mazmuni sifatida axborotning harakatga kelishiga - mazkur jarayon axborotning obyektiga aylanishiga xizmat qiladi.

Boshqaruv texnologiyalarining amaldagi vazifasi rahbarlar, mutaxassislar, texnik xodimlarning shaxsiy va mehnat resurslari yordamida bajariladigan ishlarida ko‘rinadi.

Boshqaruv texnologiyalarining **maqsadi** - boshqaruv jarayonining uzluksizligini ta‘minlash, barcha imkoniyatlardan ratsional foydalanish, natijaning ta‘minlanganini oldindan ko‘ra bilish (prognozashtirish) aniq hisob – kitob qilish masalalarida aniq ravshan ko‘rinadi.

Boshqaruv texnologiyalarining asosiy **vazifasi** – boshqaruvda ilmiy asoslangan, tajribada kuzatilgan, yuqori samara beradigan uslublardan foydalanishdir. Buning uchun zamonaviy fikrlaydigan rahbarlar, menejerlar, intuitiv va innovatsion qarashlarga ega mutaxassislar kerak.

Boshqaruv texnologiyalarining uchta **asosiy mezonlari** quyidagilardan iborat:

1. Axborotlashtirish jarayoni : axborotni izlash, axborotni yig‘ish, axborotni saralash, axborotni turkumlash, axborotni qayta ishlash, axborotni saqlash hisoblanadi. Bunda albatta mustaqil fikrlaydigan, ijodiy mushohada qila oladigan mutaxassislarga ehtiyoj seziladi.

2. Izlanuvchanlik jarayoni : ilmiy izlanuvchanlik, aniq hisob-kitob, prognozashtirish, bexato qaror qabul qilish. Bu holatda faqat birinchi rahbarlar va ilmiy mutaxassislar faoliyatlari ko‘proq seziladi.

3. Tashkiliy jarayonlar: tashkillashtirishni boshqarish obyektiga yo‘naltirish yoki boshqaruv qarorlarini amalga oshirish, kadrlarni mehnat va ijodiy layoqatlariga asosan tanlash va joy-joyiga qo‘yish, topshiriqlarni o‘z ijrochilariga yetkazishni to‘laqonli amalga oshirish, tezkor rejalashtirish va mehnatni tashkil etish , ijrosini nazorat qilish dastlabki o‘ringa chiqadi.

Boshqaruv texnologiyalari tuzilmalari bir necha qarashlarga asos bo‘ladi. Zero boshqaruv texnologiyalari boshqaruv faoliyatining asosi sanalar ekan, har bir

tashkilotning boshqaruv apparati (hay'ati, prezidiumi, rayosati) tashkilot missiyasi va faoliyat turiga qarab harakatlanadi.

Masalan:

-Badiiy Akademiya tasviriy, amaliy, hunarmandchilik bilan;

-Bastakorlar uyushmasi kompozitorlar, bastakorlar, ijodkorlar bilan;

-Yozuvchilar Uyushmasi shoirlar, yozuvchilar, tarjimonlar, dramaturglar, noshirlar bilan;

-Teatr arboblari, kino arboblari uyushmalari ssenaristlar, aktyorlar, kinorejissyorlar bilan. Boshqaruv texnologiyalarini jamiyatni boshqarishda ham, tashkilot va muassasalarni boshqarishda ham kuzatishimiz mumkin. Oqilona tarzda tashkil etilgan boshqarish texnologiyalarini tashkilotdagi mavjud inson resurslarini jadallashtirish va shu orqali mehnat samaradorligini yanada oshirish imkoniyatini yaratadi. Shuning bilan birga, boshqaruv madaniyatida boshqaruv texnologiyalari qisqa muddatlarda kam xarajatli va salmoqli natijalarni qo'lga kiritish imkonini beradi.

Zamonaviy fan sifatida boshqaruv texnologiyalari tuzilmalarga ega:

-boshqaruv faoliyatida birinchi navbatda mavjud muammoni kun tartibiga qo'yilishi va muammoning yechimiga doir maqbul yo'llarni izlash;

- har bir muammoning yechimini topish uchun qator ziddiyatlarni aniqlanishi va o'ziga xos uslub, yo'nalishlarda yechim yo'llarini topish.

Maqsad aniq bo'lsa, qaror qabul qilishning ham, yechimini topishning ham tajribada sinalgan variantlari asosan ish beradi. Bu borada rahbar va tegishli mutaxassislarining oldindan ko'ra bilishlari o'ta muhim sanaladi.

Boshqaruv texnologiyalarining samaradorligi hozirgi globallashtirish va tezkor zamonda innovatsion g'oyalarni izlash, tashkilotning mehnat va inson resurslariga

mutanosib ishlashiga aks sadosini beradi. Avvalo, masalaning oddiy tomonidan murakkab tomonigacha hisob-kitob tarzida aniqlanishi, yechimini topishga boʻlgan yuksak ishonch, natijalarni amaliyot bilan bogʻlab olib borish, tejamkorlik va aniqlik samaradorlikning asosiy mezonini belgilaydi.

Insonning tafakkuri, yuksak aqliy salohiyati boshqaruvning eng qiyin muammolarini hal qila oladi, lekin barcha hisob-kitoblarni yashin tezligida amalga oshira oladigan kompyuterlarning boshqaruv faoliyatidagi xizmati behisob.

Koʻrinadiki, boshqaruv texnologiyalarining samaradorligi tashkilot turi, mutaxassislar salohiyati, axborot texnik vositalarning sifati, axborotlarni qabul qilish, oʻz vaqtida ijrosini taʼminlash, vaqt va nazorat masalalarining mushtarak chambarchasligida yuzaga chiqadi.

Mehnat kishisini ragʻbatlantirish, mehnatning unumdorligi va natijasiga, olinadigan daromad miqdoriga qiziqtirish ham texnologiyalarning qiziqarli va eʼtiborli tomonidir. Shuning uchun ham boshqaruv faoliyatida personalni chin dildan xizmat qilishga ragʻbatlantiradigan quyidagi fikrlar oʻrinlidir ¹¹:

“Agar siz odamlarni yaxshi ishlashga qiziqtirmoqchi boʻlsangiz. Unda ularga yaxshi ish bering”.Fredrik Gersberg. Ushbu hikmat har bir rahbarning asosiy maqsadlariga kuch berishi aniq.

Boshqaruv faoliyatida har bir tashkilotning bir necha turdan iborat, masalan, Oʻzbekiston kompozitorlar uyushmasini olaylik. “Sharq taronalari” xalqaro anjumani uchun tayyorlanayotgan yangi musiqiy asarlar rejaga koʻra tantanavor, jahonga taniqli kompozitorlar ijodiga xos ulugʻvorlik ruhida, hammaning diqqatini birinchi notalardan oʻziga torta oladigan, jahon va milliy musiqiy hamohanglikni chambarchas bogʻlangan holatda yaratiladi va bu asar innovatsiya shaklida, yangilik tarzida qabul qilinadi. Bu yerda texnologiyaning oʻrni shundaki, mualliflar

¹¹ L.V.Peregudov, M.X.Saidov. Oliy taʼlim menejmenti va iqtisodiyoti. Toshkent. “Moliya”, 2007.67 b.

qadimiy va o'zbek milliy musiqasini dunyoning ellikdan ortiq mamlakatidan kelgan mehmonlar uchun ham, kechagina musiqa olamiga kirib kelgan musiqachi uchun ham, jahon va zamonaviy musiqa ilmini yaxshi bilgan va o'zlashtirgan hakamlar hay'ati uchun ham maqbul tarzda tayyorlash lozim. Xuddi shunday madaniyat va san'at sohasida turdosh tashkilotlarning hammasida texnologiyalarni ishlatish turlicha bo'lishi mumkin.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir tashkilotda ham boshqaruv uslublari deyarli bir xil, samarali boshqaruv har tomondan qaralganda ham kadrlar salohiyatiga bog'liq. Zotan, to'g'ri rejalashtirish, tashkil qilish, malaka oshirish uchun imkoniyat, me'nat unumdorligini nazorat qilishning hamma-hammasi innovatsion fikrlaydigan mutaxassislariga bog'liq. Faoliyatning tezkor, operativ, qisqa muddatli yoki ma'lum muddatga asoslangan davomiyligi ham o'z ishini puxta biladigan xodimlar mehnatining natijasidir.

Har bir muammoning yechilishi yakka rahbar boshchiligida, prezidium, rayosat, hay'at kengashi bilan amalga oshiriladi.

Boshqaruv tuzilmasining navbatdagisi – tashkil qilish. Tashkilotni amal qilishi uchun muayyan sharoitni yaratishdan iborat.

Bo'lim yuzasidan xulosa qilib aytish mumkinki, boshqaruv faoliyati ahamiyatni rejalashtirishdan va ularni bajarish uchun shart-sharoit yaratishdan boshlanadi. Shu ma'noda boshqaruvni takomillashtirish orqali muayyan korxonalar a'zolarining ichki imkoniyatlari-bilimi, tajribasi, ijodiy salohiyati, xodimlarning o'zini namoyon etishga intilish kabi omillar e'tiborga olinishi muhimdir.

Nazorat uchun savollar

1. Boshqaruv texnologiyalari tushunchasini izohlab bering.
- 2 “Texnologiya” termini nimani anglatadi?
3. Boshqaruv texnologiyasining vazifasi qanday?

4. Boshqaruv texnologiyalarining maqsadi va vazifasini izohlab bering.
5. Boshqaruv texnologiyasining uchta asosiy mezoni nimalardan iborat?
6. Boshqaruv texnologiyalarining tuzilmasi nimaga asoslanadi?
7. Boshqaruv texnologiyalarining samaradorligini tushuntirib bering.
8. Qarorlar bajarilishida yakkaboshchilik, kollegiallik nima?

1.3. BOSHQARUV JARAYONLARI

R E J A :

1. Boshqaruv jarayonlarining mazmun-mohiyati.
2. Boshqaruv tamoyillari.
3. Boshqaruv tamoyillarining amalda qo'llanishi.

Boshqaruv jarayoni faoliyatning to'la qamrab olinishi, ya'ni mehnat jarayonining barcha xususiyatlarini o'z ichiga olishi bilan xarakterlanadi. Boshqaruv jarayoni boshqaruv texnologiyalarini – faoliyatning amalga oshirish mexanizmini, faoliyatni tashkil etish – ijrochilar va ijro tartibini belgilaydi. Shunga ko'ra boshqaruv jarayoni boshqaruvchi bilan u boshqarayotgan tashkilot mutaxassis xodimlarining qo'yilgan maqsadlar yo'lidagi birgalikdagi harakatini muvofiqlashtirish bo'yicha tizimli faoliyatidir.

Tashkilot faoliyati esa : ko'zlangan maqsad, maqsadning aniqligi, maqsad yo'lidagi muammolarning o'rganilish darajasi, muammoning hal qilinishi borasida qaror qabul qilish, qaror ijrosini ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish, qaror ijrosini nazorat qilish amallarida ko'rinadi.

Boshqaruv jarayonidagi vaziyat har bir amalni tahlil qilish, rahbarning shaxsiy tashabbuskorligi, tashkilotning axborot bilan ta'minlanganlik darajasi, olingan axborotlarni tahlil qilish, tashkilotning o'ziga xos uslubda faoliyat yuritishida ko'rinadi.

Rahbar va tashkilot rahbariyati (hay'at, prezidium, rayosat)ning birgalikdagi harakatlari, hamkorligi va hamjihatligi natijasida boshqaruv jarayoni yuzaga keladi.

Boshqaruv jarayonining qon tomiri- axborotlarni olish va faoliyatga yo'naltirishdir. Masalan, Madaniyat vazirligi tomonidan chiqarilgan qaror quyi bo'g'in muassasalarining har biri uchun ijrosi muqarrar bajariladigan qonuniy hujjatdir. Bu axborotning birinchi elementi, viloyat madaniyat boshqarmasiga kelib tushgan buyruq o'z navbatida hudud imkoniyatlaridan kelib chiqib, shahar, tuman madaniyat bo'limlariga, undan keyin esa madaniyat markaziga yetkaziladi, shu asosda yuqoridan olingan axborot quyi tashkilotlarda ijrosini ta'minlash uchun yuboriladi, ijro esa quyidan boshlanadi, ya'ni madaniyat markazlarining yig'ma axborotlari shahar, tuman bo'limlariga, shahar, tuman madaniyat bo'limlari viloyat boshqarmalariga, viloyat boshqarmalari vazirlikka buyruq ijrosi g'aqidagi ma'lumotlarni yetkazadilar. Shu taxlit boshqaruv jarayonida tizimli faoliyat yo'lga qo'yiladi.

Boshqaruv jarayonida kadrlar salohiyati, ularning kasbiy ko'nikmalari, texnika jihozlari, moliyalashtirish manbalari ham tashkilot mehnatining samaradorligida muhimdir.

Jarayonni tashkil etishda boshqaruv usullaridan quyidagicha foydalaniladi (tashkilot, boshqarma, bo'lim), yoki sohadagi tarmoqlar (jamoat birlashmasi, kompozitorlar uyushmasi, ansambllar birlashmasi).

Boshqaruv tamoyillari

Boshqaruv tamoyillari deb – ma'lum bir tashkilotning faoliyatini tashkillashtirish, tashkilotning bosh g'oyasini amalga oshirishga aytiladi.

Odatda har bir tashkilot **Qonunlar – tamoyillar – usullar – uslublar** tizimi orqali harakatlanadi.

Boshqaruvning umumiy tamoyillari quyidagilarda bilinadi:

-siyosat va iqtisodiyotning birligi tamoyili;

- ilmiylik tamoyili;
- uzluksizlik tamoyili;
- qaror qabul qilish jarayonida ko'pfikrlilik tamoyili;
- vaqtni iqtisod qilish tamoyili;
- teskari aloqa tamoyili;
- samaradorlik tamoyili;
- motivatsiya tamoyili;
- “ijodiy nazar” tamoyili;
- hamjihatlik tamoyili.

Siyosat va iqtisodiyotning birligi tamoyili

Mamlakat rivoji iqtisodning barqarorligi asosida siyosat yuritishda ko'rinadi. Iqtisod har bir davlat va jamiyatning mustahkam poydevori va har qanday davlat o'z iqtisodiy qonunlari orqali xalq farovonligini ta'minlaydi. Davlatning taraqqiyoti va inqirozi iqtisodiyotni barqaror ushlab turilishiga bog'liq. Madaniyat va san'at faqat siyosati ustuvor, iqtisodiyoti mustahkam davlatda taraqqiy topadi. Iqtisodiyot bazisi va ustqurmasi siyosiy, ijtimoiy rivojlanish asosiga xizmat qiladi. Respublikamizda o'tayotgan xalqaro festivallar, simpozium va xorijiy davlatlar ishtirokidagi xalqaro anjumanlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Ilmiylik tamoyili

Boshqaruv faoliyatining tuzilishi, rivojlanishi, taraqqiy topishi fan-texnika yutuqlari, ilmiy izlanishlar natijalari bilan qimmatlidir.

Jamiyatdagi har bir ilmiy yangilik, hoh u iqtisodiyotda yoki boshqa sohada bo'lsin albatta mamlakat taraqqiyotiga foydasi tegadi.

Madaniyat va san'at sohasida jamoatchilik bilan aloqalar, yoshlar orasida o'tkaziladigan sotsiologik so'rovnomalar asosida ilmiy tahlil qilingan masalalar fanga yangi nomlarni, yangi g'oyalarni kiritishi mumkin.

Birgina misol. 2019 yil 10 aprel kuni Toshkentda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 683 yilligi munosabati bilan xalqaro konferensiya o'tkazildi. Dunyoning qator davlatlaridan kelgan temurshunos olimlar ishtirokidagi bu konferensiyada buyuk sarkardaning boshqaruv faoliyati haqida ham alohida ilmiy tahlillar keltirildi. Bu o'z navbatida temurshunos olimlar oldiga yanada dolzarb va ijodiy vazifalarni qo'yadi.

Uzluksizlik tamoyili

Mamlakat taraqqiyotini kuchli mutaxassis kadrlar belgilaydi deymiz. Kadrlarni uzluksiz ta'lim olishi esa "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" va "Ta'lim to'g'risidagi qonun" belgilab qo'yilgan. Ushbu qonuniy-meyoriy hujjatlarga ko'ra yurtimizda ta'lim tizimi uzluksizligi ta'minlanadi. Xuddi shuningdek, boshqaruv tizimida ham uzluksizlik ta'lim muassasalaridan boshlanadi. Masalan, maktabdagi a'lochi va jamoat ishlarida faol o'quvchi "Yoshlar ittifoqi" saflarida, keyinchalik oliy ta'lim dargohida, jamoat tashkilotlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida tahsil oladi. Boshqalarga o'rnak bo'larli darajadagi faoliyat uni boshqaruv organlarining fidoyi tashkilotchi rahbari bo'lishiga zamin yaratadi. Shu aniq misol asosida e'tirof etish mumkinki, uzluksizlik boshqaruv obyekti bilan boshqariladigan tuzilmaning chambarchas bog'liq ekanida ko'rinadi. Boshqaruv faoliyatida noto'g'ri yoki xato qaror rejani barbod qilishi muqarrar. Uzluksizlik analiz va sintezning birikuvidan hosil bo'ladi.

Ko‘pfikrlilik tamoyili

Har bir boshqaruv obyektining (bo‘lim yoki xodim) aniq vazifa doirasida harakatlanishi, muammo yoki topshiriqning ko‘p fikr-mulohazalar asosida bajarilishi faqat tashkilotga emas, balki o‘z ishini puxta bilgan mutaxassislariga ham obro‘ olib kelishi aniq. U yoki bu qarorning bajarilishi, yoki topshiriqning ijro etilishida tashkilotning ishning ko‘zini biladigan mutaxassislari ishtirokidagi maslahatlashuvlarga ehtiyoj seziladi.

Madaniyat va san‘at sohasi faoliyatida ko‘pfikrlilik tamoyiliga misol qilib, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirishga qaratilgan ezgu maqsadlarni o‘zida mujassam etgan, YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan musiqa olamining yirik forumi sifatida e‘tirof etilgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalini keltirish mumkin. Ushbu nufuzli anjuman o‘n ikkinchi marta 2019 yilning 26-30 avgust kunlari Samarqand shahrida o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. 1997 yil birinchi marta o‘tkazilgan ushbu nufuzli festivalning birinchi bosqichida dunyoning 31 davlatidan 57 nafar san‘atkor qatnashgan bo‘lsa, oradan yigirma yil o‘tib, 2017 yil avgust oyida o‘tkazilgan “Sharq taronalari” o‘n birinchi xalqaro musiqa festivalida esa 58 mamlakatdan 241 nafar mohir xonanda va sozandalar ishtirok etdilar. Xalqaro musiqa bayramining har bir tantanasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sayyohlik tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Parlamentlar assambleyasi, Islom hamkorlik tashkilotining ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tuzilmasi – AYSESKO, Islom tarixi, san‘ati va madaniyatini o‘rganish bo‘yicha xalqaro markaz – IRSIKA,

Xalqaro folklor tashkilotining Osiyo mintaqasi bo‘yicha vakilligi, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi Ijroiya qo‘mitasi va qator tashkilotlar vakillari ishtirok etishadi. Tabiiyki, festival doirasida nafaqat ishtirokchi san‘atkorlar, balki taklif qilingan xorijiy davlatlar vakillari tillarida ham qo‘shiq va kuylar yangraydi. Shuning uchun ham ijodiy jarayonlarga mas‘ul mutasaddilar maslahat, kelishuv asosida ish ko‘radilar. Har bir xalqning kuy-qo‘shiqclarini ijro etadigan

san'atkorlarning chiqishlari malakali mutaxassislar nazaridan o'tkaziladi. Ko'pfikrlilik tamoyilining sohada amal qilishi ana shu ko'rinishlarda o'z ifodasini topadi.

Vaqtning tejash tamoyili

Vaqtdan oqilona foydalanish, vaqtni to'g'ri rejalashtirish, vaqt mutanosibligida birinchi va keyingi darajali ishlarni tizimli masalalarini tartiblash bu tamoyilga nisbatan qo'llaniladi. Boshqaruv jarayonida vaqtni tejash tamoyili birinchi va asosiy o'rinda turishi kerak. Bu avvalo axborotlarni o'z vaqtida va to'liq olingani, to'g'ri va maqbul qaror qabul qilinganida ko'rinadi. Bunga tashkilot rahbariyatning kunlik, haftalik, oylik, uch oylik, olti oylik, yillik, besh yillik, o'n yillik rejalar dasturi tuzilishi va ushbu dastur asosida harakatlanishi ko'zda tutiladi. Bu borada favqulodda va ko'zga ko'rinmagan qo'shimcha tadbirlarni ham nazarga olish o'rinli. Vaqtni tejash tamoyilida natija samaradorligiga erishish uchun eng birlamchi ishlar, rayosat, hay'at yig'ilishlariga ajratiladigan vaqt, har kungi bajariladigan ishlarning aniq taqsimlanishi bajarilish uchun qo'yilgan birinchi qadamdir.

Madaniyat va san'at sohasida boshqaruvda ham hamma sohalardagi singari videoselektorlar tashkil etilishi tuman, shahar markazidan viloyatlar markazlariga yig'ilishlarga kelib-ketish vaqtini tejashga sabab bo'lgan bo'lsa, hozirgi tezlashgan zamon axborot-texnologiyalari vositalarining tashkilotlar uchun kerakli jadvallar, tarxlar, sxemalar, xullas, bor informatsiyani elektron shaklda elektron pochta orqali yetkazish masalalari, telefon, telefaks, internet orqali olinadigan yoki uzatiladigan informatsiyalar ham tashkilot rahbariyatining vaqtini tejash uchun xizmat qiladi.

Teskari aloqa tamoyili

Bu tamoyil boshqaruvda yuqoridan quyiga berilgan topshiriqni to'g'ri va aniq nazorat qilish, shuningdek quyidan yuqoriga qarab mas'uliyat va javobgarlikni kuzatib borishdan iborat.

Teskari aloqa tamoyiliga bir misol tariqasida madaniyat va san'at festivallari, ko'rik-tanlovlarni keltirish mumkin. Respublikada o'tkazilayotgan festival va ko'rik-tanlovlar "Bahor nafasi" xalqaro san'at festivali, "Yoshlik bahori" respublika yosh opera ijrochilari festivali, "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali, "Musiqaga chorlaydi yoshlar!" madaniyat haftaligi, "Onam aytgan allalar" festivali, "Sozlar navosi" xalq cholg'ular ijrochilari respublika tanlovlari avvalo Vazirlar Mahkamasi, Madaniyat vazirligining tegishli qaror, farmoyish, topshiriqlari asosida yuqoridan quyi tashkilotlarga yo'naltiriladi. O'z navbatida Madaniyat vazirligi, Bastakorlar uyushmasi, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining viloyatlardagi bo'limlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hokimliklarining say-harakatlari asosida ushbu tadbirlarning birinchi bosqichlari o'tkaziladi, viloyat va shahar, tuman madaniyat bo'limlariga esa iqtidorli qatnashchilar joylardagi madaniyat markazlari tomonidan tavsiya qilinadilar. Ko'rinadiki, eng yuqori tashkilotlarning topshiriqlari eng quyi bo'g'inda puxta bajarilsagina ishning natijasi yaxshi bo'lishiga erishiladi.

Samaradorlik tamoyili

Bu tamoyil boshqaruv faoliyatida yuqori natijadorlik va sifatni ta'minlashga xizmat qiladi. Turdosh va raqobatdosh tashkilotlarning yutuq va kamchiliklaridan boxabar bo'lish, sohaga oid xorijiy tajribalarni kuzatib borish rahbardan tortib oddiy mutaxassisgacha amal qiladigan yozilmagan haqiqatdir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat

idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g‘oya asosida faoliyat yuritish asosida fuqarolarning atigi ikki, ikki yarim yilda ikki milliondan ziyod fuqaro murojaat qilgani va qancha-qancha odamning yillar davomida hal eitlmagan muammolari ijobiy yechilgani O‘zbekistonda xalq hokimiyati nomiga emas, amalda joriy etilganini ko‘rsatibgina qolmay, boshqaruv faoliyatining samaradorlik tamoyilining qanchalik to‘g‘ri ishlanganidan darakdir.

Motivatsiya tamoyili

Faqat adolatli e‘tirof va rag‘bat boshqaruv jarayoniga katta mazmun qo‘shadi. Xodimni moddiy va ma‘naviy-psixologik qo‘llab-quvvatlash, bajargan ishini e‘tirof etish, jamoa a‘zolariga o‘rnak qilib ko‘rsatish bajarilayotgan ishning natijasiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Motivatsiya tamoyili ayniqsa madaniyat va san‘at, adabiyot sohasi xodimlariga, yaratuvchilik va ijodkorlikni umrining mazmuni deb hisoblagan iqtidorli insonlarga katta ruh bag‘ishlashi amalda ko‘p o‘z isbotini topgan. Masalan, 2017 yilning 3 avgust kuni Prezidentimiz yurtimizning ijodkor ziyolilari bilan “Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusidagi muloqotida mamlakatimizda adabiyot, teatr, kino, musiqa, tasviriy san‘at va boshqa ijod turlarini rivojlantirish bo‘yicha dolzarb fikrlar o‘rtaga tashlandi va Yurtboshimiz ma‘ruzasida ko‘rsatilgani asosida ijod ahlini qo‘llab-quvvatlash, ularga yetuk asarlar yaratishlari uchun barcha shart-sharoitlarni hozirlash, yosh ijodkorlarni kashf qilish, ustoz-shogird an‘analarini kuchaytirish uchun qator amaliy ishlar boshlab yuborildi. O‘zbekiston Xalq artistlari Farruh Zokirov rahbarligidagi estrada, Afzal Rafiqov boshchiligidagi suxandonlar, Abduhoshim Ismoilov rahbarligidagi yosh maqomchilar mahorat maktablarini tashkil etish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalar berilgani va bugungi kunda ko‘rsatmalarning amaliy natijasi qanchadan-qancha iste‘dodlar kashf etilayotganiga sabab bo‘lmoqda. Motivatsiya

tamoyilining amaldagi ifodasini yosh ijodkorlarimiz o‘z ijod namunalarida namoyon qilmoqdalar.

Yakkaboshchilik va kollegiallik tamoyili

Yakkaboshchilik tamoyili asosan tashkilotning yagona rahbar boshchiligida olib borayotgan faoliyatiga asoslanadi. Bu borada yuqori bo‘g‘in rahbarlarining quyi bo‘g‘in xodimlarigacha zanjir shaklida qaror ijrosining yetkazilishida ham ko‘rinadi. Kollegiallik yagona rahbar irodasiga so‘zsiz bo‘ysunish va ijroni yagona rahbar mas‘uliyati va javobgarligi ostida amalga oshirishdir.

Qarorlar va topshiriqlarning yakkaboshchilik asosida qabul qilinishi (mutaxassislar bilan maslahatlashuv asosida) va ijrosini faqat bir boshqaruvchiga xosligini ta‘minlash ushbu tamoyil orqali sansalorlikning, har bir bo‘g‘in mutasaddilarining o‘z ishlariga javobgarligi mas‘uliyatining oshirilishini ta‘minlashida ko‘rinadi

“Ijodiy nazar” tamoyili

Madaniyat va san‘at sohasida mazkur tamoyil asosan ssenaristlar, rejissyorlar, aktyorlar, operatorlar, kino va teatr aktyorlari, shoirlar, yozuvchilar, dramaturglar va bastakorlarning mehnatida yaqqol ko‘rinadi. Ma‘lumki, mamlakatimizda yuzdan ziyod millat vakillari istiqomat qiladilar. Birgina qozoq millatiga mansub tadbir yoki kino, spektakl tayyorlansa butun qozoq adabiyoti va dramaturgiyasi namoyandalari ijodiga murojaat qilinadi. Tabiiyki, ijod kishilari bunday tadbirlarga ijodiy ko‘z bilan qaraydilar. Ijodkorning “uchinchi ko‘zi” tomoshabinga oddiy odamlar anglab yetmagan yangiliklarni yetkazishga qodir bo‘ladi. Shuning uchun ham iste‘dodli insonlar xalq ardog‘ida bo‘ladilar.

Hamjihatlik tamoyili

Mamlakatda quloqch yoygan madaniyat va san'at, adabiyot sohasiga oid hamma tashabbuslar qator davlat, nodavlat, jamoat tashkilotlari va xalq bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Hamjihatlik tamoyilini mamlakatda kitobxonlik saviyasini oshirish, mutolaa madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotganidan bilsa bo'ladi. Yosh avlodni yuksak ma'naviyat xazinasini bo'lgan jahon va milliy adabiyot bilan oshno qilish maqsadida "Yosh kitobxon", "Eng kitobxon maktab", "Eng kitobxon mahalla", "Eng kitobxon oila" yo'nalishlarida qator tanlovlar o'tkazilgani, Prezidentning beshta tashabbuslaridan biri bo'lmish kitobxonlik e'tibor masalasida barcha bo'g'in rahbarlarning o'zlari o'qigan maktablari, oliy o'quv yurtlariga kitob sovg'a qilishlari elning ma'naviyatga, ma'rifatga bo'lgan qiziqishining oshishiga sabab bo'lmoqda. Hamjihatlik tamoyili butun O'zbekiston ziyolilarining shioriga aylanib borayotgani shular sabablidir.

Har bir tashkilotning huquqiy-meyoriy hujjatlar asosida shakllanishi, o'zidagi bor imkoniyatlar- inson intellekti va mehnat resurslari har uni o'zgarib borayotgan fan-texnika rivojiga qarab rivojlanib boradi.

Shu o'rinda boshqaruvning zamonaviy tamoyillari hisoblangan:

-iste'molchi (madaniyat va san'at sohasida ko'proq tadbir ishtirokchilari deyilishi o'rinli bo'ladi)ning fikriga tayanish (hamma vaqt, har qanday sharoitda iste'molchi haq);

- madaniyat va san'at sohasida faoliyat sohasini kengaytirish;(yangicha innovatsion g'oyalari kesimida);

-tashkilot mehnatida umum jamoa hisobida ham, mutaxassis sifatida ham mas'uliyat va javobgarlikni his qilish (bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun);

- mutaxassislar fikriga tayanib, ishning natijasini intuitiv bilish (prognozlash, his etish);

- madaniyat va san'at sohasida jahon andozalari asosida yangi asarlarni olib chiqish (bir joyda qotib qolmaslik);
- milliy pedagogikaning asosi –“ustoz-shogird” an'alariga asosan shu sohaning yetakchilari bilan muloqotni uzviy yo'lga qo'yish (liderlar, norasmiylardan foydalanish);
- o'z kasbiga sodiqlik tamoyiliga asosan xodimning qilayotgan ishiga qiziqishi va mehri;
- madaniyat va san'at sohasiga oid yangi qirralarni amaliyotga joriy etish yo'llarini izlab topish;
- sohaga turdosh tashkilotlar - “Oltin meros”, “Yoshlar ittifoqi”, Xotin-qizlar qo'mitasi singari jamoatva nodavlat tashkilotlarning hamkorligini ta'minlash;
- umumiy faoliyatda meyor nisbatlari mutanosibligiga erishish (yetti o'lchab bir kesish ma'nosida);

Har bir muayyan tashkilot, mutaxassis xodim, ishchi shaxs mehnat faoliyatida amal qiladigan ma'lum tartib-intizom tamoyillarni belgilab beradi. Bu borada obyekt va subyektning ichki va tashqi omillarga munosabati tamoyillarning ifodasidir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda yuz berayotgan islohotlar jadal olib brilayotganini jahon hamjamiyati va mamlakatimizda katta e'tiroflarga sazovor bo'lmoqda. Siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalar va aynan boshqaruv sohasidagi o'zgarishlarni alohida e'tirof etish mumkin.Boshqaruv funksiyalari esa madaniyat boshqaruv uslublarining eng muhim tarmog'i bo'lib, boshqarishni madaniyat, odob, axloq normalariga bo'ysungan holda olib borilishi zarur.

Shu o'rinda Muhtaram Yurtboshimizning O'zbekiston Milliy Universitetida oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuvida ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va ularni moddiy, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalarida, import o'rnini bosadigan va ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga qaratilgan ilmiy ishlanmalarni ko'paytirish,oliy ta'lim sohasidagi har bir tashkilot tizimida ilmiy

mahsulotlarni bozorbop qiladigan marketing tizimini tashkil qilish zarurligini ta'kidlagani, ilmiy muassasalarni kelgusida to'g'ridan-to'g'ri davlat beyudjetidan moliyalashtirishga o'tkazish taklifini bildirgani, izlanuvchan olimlarni rag'batlantirish maqsadida ilmiy ishlanma yaratgan tadqiqotchiga doktorlik va uni amaliyotga tadbiiq etgan izlanuvchiga tayanch doktorlik ilmiy darajasini beradigan (binar) ikkitalik himoya tizimini joriy etish, byudjet mablag'lari hisobidan stajyor-tadqiqotchilar institutini tashkil etish, olim va pedagoglarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor berish, iste'dodli yoshlarni izlab topish va ularni maqsadli tarbiyalash borasidagi ishlarni taraqqiy ettirish, ilmni rivojlantirish, sohalarni malakali mutaxassislar bilan mustahkamlash hozirgi davrning birinchi vazifasi ekanini aytdi¹².

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, boshqaruv faoliyatida boshqaruv texnologiyalarini amalga oshirishda davlatning katta yordami har bir sohada ijobiy natijalarga rag'bat beradi va o'z o'rnida yana ham kattaroq marralarni egallashga imkoniyat yaratadi.

Bo'lim yuzasidan xulosa qilib aytish mumkinki, boshqaruv faoliyati ahamiyatni rejalashtirishdan va ularni bajarish uchun shart-sharoit yaratishdan boshlanadi. Shu ma'noda boshqaruvni takomillashtirish orqali muayyan korxonalar a'zolarining ichki imkoniyatlari-bilimi, tajribasi, ijodiy salohiyati, xodimlarning o'zini namoyon etishga intilish kabi omillar e'tiborga olinishi muhimdir.

Nazorat uchun savollar

1. Boshqaruvning umumiy tamoyillarini sanab bering.
2. Motivatsiya tamoyilini sharhlab bering.
3. Madaniyat va san'at sohasida boshqaruv jarayonlarining ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?
4. Boshqaruvning zamonaviy tamoyillarini izohlab bering?

¹² Xalq so'zi, 2019 yil, 25 may, № 5.

- 5.Xorijdagi boshqaruv faoliyatiga dori tamoyillarni bilasizmi?
- 6.Prezidentning beshta muhim tashabbuslarini aytib bering.
- 7.Masofafiy ta'lim deganda nimalarni tushunasiz?
- 8.Ijodiy imtihonlar nimalarni o'z ichiga oladi?

2 BOB. BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARINING ASOSIY JIHATLARI

2.1. BOSHQARUV FUNKSIYALARI

REJA

- 1.Boshqaruv funksiyalari mazmun-mohiyati.
- 2.Anri Fayolning boshqaruv funksiyalari borasidagi qarashlari.
- 3.Koordinatsiya va hisob-kitob funksiyasi.

Bugungi rivojlanayotgan jamiyat insonlardan ma'naviy, axloqiylikni, bir so'z bilan aytganda intellektual tafakkurni talab etayotgan bir paytda boshqaruv qizg'in, ijodiy jarayon, madaniyat va san'at sohasida yangi innovatsiyalarni talab qilmoqda.Sohaga qiyoslab aytiladigan bo'lsa boshqaruv jarayoni– ko'zlangan maqsadlarga erishish yo'lida tashkilotning bor inson va mehnat resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha doimiy, izchil amalga oshiriladigan, bir-biriga uzviy bog'langan majmui hisoblanadi. Tashkilotning muvaffaqiyatiga qaratilgan muhim harakatlar yig'indisi **boshqaruv funksiyalari** deb ataladi. Shunday qilib, boshqaruv jarayoni barcha funksiyalarning jamlanmasidir.

Boshqaruv funksiyalari boshqaruv tizimining maqsadlarini amalga oshirish uchun obyektiv ravishda zarur bo'lgan nisbatan bir xil, birlamchi va alohida ma'muriy faoliyat turlarini o'zi ichiga oladi.Buning uchun boshqaruv funksiyasi aniq ifodalangan kontentga, uni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan mexanizm

va muayyan tuzilmaga ega bo'lishi kerak. Kontent ma'lum funksiyalar doirasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan amallarni anglatadi.

Boshqaruv jarayonida amalga oshiriladigan harakatlar va funksiyalar tarkibi muayyan tashkilotning (davlat, nodavlat, jamoat, siyosiy va hokazo) turiga, faoliyatining miqyosi va hajmi (ishlab chiqarish, savdo, madaniy xizmatlar, ma'naviy - ma'rifiy tadbirlar), tashkilotning ichki holati (ishlab chiqarish, marketing, moliya, xodimlar), boshqaruv darajasi (yuqori boshqaruv, o'rta va quyi)ga va boshqa bir qator omillarga bog'liqdir.

Bundan taxminan yuz yil oldin A. Fayol ishlab chiqarish va korxonalar boshqaruvini tashkil qilishda rahbar xodimlar bajarishi kerak bo'lgan oltita asosiy faoliyat turi yoki amaliyotini aniqladi, ular quyidagilarda ifoda topadi:

- texnik;
- savdo;
- moliyaviy;
- himoya qilish (tashkilot nufuzi nazarda tutiladi);
- buxgalteriya hisobi;
- ma'muriy.

A. Fayolga ko'ra, ma'muriy operatsiyalar soni quyidagicha:

- oldindan ko'rish (harakatlarning prognozi, intuitiv yondashuv);
- tashkilot (moddiy va ijtimoiy);
- taqsimlash (tashkilot xodimlarining faoliyat yuritishi va aniqlangan harakatlar dasturidan chetga chiqish holatlarini bartaraf etish);
- muvofiqlashtirish (yoki muvofiqlashtirish, ya'ni barcha harakatlar va harakatlarning to'g'ri harakatga muvofiqligi);
- ishlash nazorati.

Boshqaruv nazariyasi bo'yicha zamonaviy ishlarda, "ma'muriy operatsiyalar" ning eskirgan konsepsiyasi o'rniga boshqaruv funksiyalari haqida gapirish afzal ko'riladi odatda.

Hozirgi zamon olimlari rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish (yoki buyruq), motivatsiya, yetakchilik, muvofiqlashtirish, boshqarish, aloqa, tadqiqot, baholash, qaror qabul qilish, prognozlash, axborot berish, hamkorlik qilish, ta'lim berish-, javobgarlik, "jamoatchilik bilan aloqalar" ("publik rileyshnz"), vakillik, muzokaralar olib borish yoki bitimlar tuzish, boshqaruvni biroz farqli boshqaruv ro'yxatini batafsil ishlab chiqdilar. Deyarli har bir boshqaruv ishi boshqalardan farqli boshqarish funksiyalari ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Umumiy boshqaruv funksiyalarining besh turini izohlaymiz bilamiz:

-rejalashtirish (sohaga oid maqsadlar va ularni amalga oshirilishi uchun harakat rejasini ishlab chiqish);

-tashkilot (boshqarmalar, bo'limlar yoki xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlash);

-motivatsiya (rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish va ularning maqsadlariga erishish uchun ijrochilarni rag'batlantirish);

-nazorat (amaldagi yoki erishilgan natijalarning sifat monitoringi);

-muvofiqlashtirish (ratsional aloqalarni o'rnatish orqali nazorat qilish va izchillikni ta'minlash).

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida qayd etilgan umumiy boshqaruv vazifalari oddiy ishchi xodimdan nufuzli tashkilotning rahbari darajasigacha ko'tarilgan, bajariladigan ish tizimining birinchi qadamidan yuqori qadamigacha bo'lgan barcha mashaqqatni boshidan kechirgan muhandis-tadqiqotchi A. Fayolning ma'muriy ishlariga juda yaqin.

Ushbu umumiy boshqaruv funksiyalari jarayonlar tizimida aloqa va qarorlarni qabul qilish jarayonlari bilan birlashtiriladi.

Motivatsiya. Mehnat faoliyatida yuqori ko'rsatkich, samaradorlikka erishish uchun rahbariyatning mehnatni tashkil qilish borasida eng zarur va faol harakat turiga motivatsiya nomi berilgan.

Nazorat. Boshqaruv subyektining qarorlari va boshqaruv obyektining amaldagi harakatidan, holatidan xabardor bo'lishga nazorat deyiladi. Faqat nazorat

yordamidagina boshqaruv obyekti va subyektining bevosita aloqasini bilib olish mumkin.

Nazoratning :

-tahliliy;

-ma'lum vaqt oralig'idagi;

- yakuniy turlari bo'lib, boshqaruv tuzilmasining ichki va tashqi nazorat turlari tarzida qo'llanadi.

Koordinatsiya. Boshqaruvning yana bir asosiy funksiyalaridan biri bo'lib, boshqaruv subyektlari o'rtasidagi aloqalarni yaxlit va daxlsizlikka asoslangan faoliyatiga koordinatsiya deyiladi.

Hisob – kitob funksiyasi boshqaruv faoliyatining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Bu holatda bajarilgan ish ko'lami, ishlatilgan resurslar manbalari va miqdori, mehnat resurslari, natijadorlik hisobga olinishi muqarrar.

Boshqaruv funksiyasi tashkilot turiga ko'ra ishlab chiqarish, ijodiy mehnat, sifat, innovatsion texnik resurslar bilan ta'minlanish darajasi, marketing, kommunikatsiyalarning umumiy faoliyatini tashkil etadi.

Boshqaruv maktabining asoschilaridan biri Anri Fayol administrativ (tashkiliy) boshqaruvning tamoyillari, uslublari, usullari haqida "Umumiy boshqarish va sanoatda boshqaruv"(1916) kitobida boshqaruvning qator tamoyillarini belgilab berdi. ¹³

Unga ko'ra:

¹³ Abdurahmonov Q.H, Xolmo'minov Sh.R, Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. O'qituvchi, Toshkent, 2008, 27b.

- mehnatni taqsimlash (bajariladigan ishning sifati va bajarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi);
- hokimiyat (sohaga oid masala bo'yicha buyruq berish va natijaga ko'ra javobgarlik huquqiga ega bo'ladi);
- tartib-intizom (tashkilotda ish sifati uchun borasidagi mas'ullikni oshiradi);
- yakkaboshchilik (topshiriq ham ishning natijasi ham bir boshliq tomonidan beriladi, qabul qilib olinadi);
- boshqaruv faoliyati va yo'nalishning bir xilligi (bir maqsad yo'lida, bir reja bilan bir boshliq rahbarligida bajariladi);
- xodimning jamoa fikriga bo'ysunishi ("bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun" qabilida ish tutiladi);
- xodimning mehnati o'z vaqtida va haqqoniy e'tirof etilishi (beriladigan moddiy yoki ma'naviy yordamni xodimning kayfiyatiga ijobiy ta'siri nazarda tutiladi);
- skalyar zanjir (birinchi rahbardan tortib eng quyi bo'g'indagi bo'ysunuvchi xodimgacha faol harakat qiladi);
- mustahkam tartib-intizom (hamma tashkilotda o'z o'rnini bilishi nazarda tutiladi);
- adolat (xodimlarga nisbatan adolatli va ijobiy munosaba jamoaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi);
- kadrlar qo'nimsizligining oldini olish (kadrlarni bir joyda muqim ishlashini ta'minlaydi);
- tashabbus (menejerlar doimiy ravishda o'z innovatsion g'oyalari bilan bo'ysunuvchi xodimlarni ruhlantirib turishlari jamoada ishchanlik kayfiyatini oshiradi);

-jamoaviylik (jamoani jipslashtiradigan birlik va hamkorlikdagi harakatni ta'minlanishi xato qilishdan saqlaydi).

Ko'rinadiki, boshqaruvning umumiy tamoyillari va funksiyalari faqatgina **boshqaruv nazariyasi- boshqaruv qonuni - boshqaruv amaliyoti** asosida harakatlanadi.

Nazorat uchun savollar

- 1.Boshqaruv funksiyalari nima?
- 2.A.Fayol aytgan oltita asosiy faoliyat turini tushuntirib bering.
- 3.Nazoratning ichki va tashqi turlarini sanab bering.
- 4.Hisob-kitob funksiyasi nimani anglatadi?
- 5.A.Fayolning administrativ boshqarish tamoyillari deganda nimani tushunasiz?
- 6.Tartib-intizom tamoyilini sharhlab bering.
- 7.Jamoaviylik tamoyilini izohlang.
- 8.Boshqaruv nazariyasi-boshqaruv qonuni-boshqaruv amaliyoti nimani o'zida mujassam etgan?

2.2.BOSHQARUVDA REJALASHTIRISH

REJA

- 1.Boshqaruvda rejashtirishning ahamiyati.
- 2.Rejalashtirish vazifasi va faoliyati.
- 3.Boshqaruvda tashkil qilishning o'ziga xos xususiyati.

Rejalashtirish– tashkilot manfaatlariga asosan reja ishlab chiqish jarayoni, maqsad va vazifaga mutanosib ravishda nima qilish kerakligi va qanday usullar bilan vaqt va makonga qarab belgilanishi - **boshqarish jarayonining** birinchi, eng muhim vazifasidir.

Maqsadlar aniq va to‘laqonli asoslanmagan bo‘lsa, tashkilot bajarish kerak bo‘lgan vazifalarning keyingi bosqichlarida qanchalik izchil faoliyat olib bormasin natija yetarli samara bermaydi. Shu sababli, boshqaruv faoliyatidagi ishning sifati asosan to‘g‘ri shakllangan, aniq ko‘zlangan rejalarga bog‘liq ekanligi haqiqat.

Rejalashtirish -boshqaruv jarayonidagi birinchi qadam sanaladi. Vazifasi quyidagicha:

- qanday maqsad sari harakatlanish, harakat rejasini ishlab chiqish, mana shu loyiha doirasida faoliyat ko‘rsatadigan xodimlar guruhini shakllantirish, ularning mehnat va ilmiy-ijodiy salohiyatlarini hisobga olish, ishga xalaqit berayotgan omillarning o‘z vaqtida bartaraf etilishi, imkon va miqdor mutanosibligi, rejaning maqsadga muvofiqligi, moliyalashtirish manbalarining barqarorligi, eng muhimi axborot olish, uzatish, foydalanish manbalarini to‘g‘ri va puxta tashkil etish.

Misol uchun, har yilida mamlakatimizning tashkil topgan kuni-Mustaqillik bayrami keng nishonlanadi.Dunyoning o‘nlab davlatlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri uzatiladigan bu nodir bayram tantanalarini sarmazmun o‘tkazish uchunbir mutasaddi madaniyat va san’at xodimlari oylar davomida tayyorgarlik ko‘rishadi, yuqorida yozilgan rejalashtirish manbalari aniq va puxta bajarilmasa, milliy-ma’naviy qadriyatlarimizning bu bebaho anjumanini jahon ahlining havasini keltirar darajada o‘tkazish imkoni bo‘lmay qoladi.

Rejalashtirish vazifasi quyidagi savollar orqali ma’lum:

Bizning maqsadimiz qanday? Qay yo‘l bilan ilgarilash mumkin? Boshqaruvchilar tashkilotning asosiy yo‘nalishlarida (moliyaviy, ijtimoiy,

mutaxassislar, turli darajadagi xodimlar) o'zlari boshqarayotgan jamoaning kuchli va zaif tomonlarini baholashlari kerak;

Qaysi yo'l natijaning samaradorligini ta'minlaydi? Tashkilot rahbarlari tashkilot muhitida mavjud imkoniyat va tahdidlarni chamalay olishi, to'g'ri baholashi, tashkilotning maqsadlari (muammolarni yechish borasida) qanday bo'lishi kerakligini va maqsadlarga erishish uchun qanday omillar yo'l ochib berishi, yoki aksincha to'sqinlik qilishi mumkinligini aniqlab olishi kerak;

Maqsadni qanday amalga oshiramiz? Rahbarlar maqsadlarga erishish uchun o'z ishining ko'zini biladigan kuchli mutaxassis xodimlar bilan qanday qaror qabul qilish haqida kelishib olishadi.

Rejalashtirish quyidagi funksiyalar bo'yicha tasniflanishi mumkin:

Qamrov darajasi bo'yicha;

-Rejalashtirish masalalari bo'yicha (guruhlararo, jamoaviylik asosida, yakka);

-Faoliyat doirasi bo'yicha (sohaga oid);

-Shartlar bo'yicha (tashkilot nizomiga muvofiqligi nazarda tutiladi);

-Rejalashtirish mazmuni (inson kapitali va mehnat quroli mutanosibligida) va boshqalar.

Tashkilotni **rejalashtirish** faoliyatining asosiy vazifalari:

Muqobil (tashkilot nizmini hisobga olgan holda) variantlarni kiritish asosida tashkilotning maqbul strategiyasini tanlash (prognoz, intuitiv yondashish);

Tashkilot faoliyatining barqarorligini va rivojlanishini ta'minlash (ish beruvchilar va ishlovchi xodimlarning shartnomalari asosidagi);

Innovatsiyalar va investitsiyalarning optimal portfelini shakllantirish (xorijiy tajribalar asosida);

Ko'zlangan rejalarni to'liq bajarilishi kafolati (ko'zda tutilgan va favqulodda vaziyatlarni ham hisobga olish);

Tashkilot manfaatlari uchun xizmat qiladigan barcha resurslarning to‘laqonli ishlashini ta’minlash (tashkiliy, axborot-kommunikatsion, moliyaviy tomonlar hisobga olingan holda);

Tashkilot a’zolarining mehnat qobiliyati, layoqatini hisobga olgan holda ijro mukammalligi, resurslar to‘laqonligi, sifat darajasining yuqoriligi va natijaning vaqt mutanosibligiga to‘g‘ri kelishini muvofiqlashtirish;

Tashkilot oldiga qo‘ygan vazifalarni rejalashtirishda moddiy, ma’naviy, ijtimoiy-psixologik rag‘batlantirishni asosiy o‘ringa qo‘yilishi (e’tirof, rag‘bat, qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash har bir xodimning mehnatiga samara beradi).

Qo‘shimcha rejalashtirish tamoyillari quyidagilardan iborat:

- rejalashtirilgan obyekt (ya’ni madaniy tadbir, bayram konserti, xalqaro festival va b.) ahamiyatliligini aniqlash;

-aniqlik (sanasi, vaqti, qatnashuvchilar soni, joyi, darajasi va h.);

-balans rejasi (moliyaviy tomonlarini hisobga olish);

-rejaning o‘zgarishi (ob-havoning o‘zgarishi, qo‘shimcha topshiriqlar);

-uzluksizligi (avval mahalla, keyin tuman, so‘ng viloyat, oxirida respublika bosqichida);

- iqtisodiy maqsadga muvofiqligi (kerakli jihozlarning, sharoit va vaqt hisobida ishlatilishi mumkin bo‘lgan asbob-uskunalar va h.);

-jamoaviylik (bir maqsad yo‘lida bir rahbar va bir reja bilan yo‘nalishi asosida);

-ishtirok etish (ishtirokchilar, tomoshabinlar, taklif etilgan mehmonlar, ommaviy axborot vositasi xodimlari);

Yuqoridagilardan kelib chiqib rahbariyat sohada bir necha yillar faoliyat ko‘rsatgan mutaxassislar ishtirokida zarur narsalarning ro‘yxati, tartibini, resurslarini va vaqtini aniqlashi ishning natijadorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Bizningcha rejalashtirish mana shu holatda ko‘rinadi:

-Maqsad sari yo‘naltirilgan tahlillar (qiyosiy, prognoz orqali-oldindan ko‘ra bilish holati);

-Har bir xodimning o‘z o‘rnida ishga solish va nazorat qilish;

-Faqat rejani o‘z ichiga olgan maxsus dasturlar orqali;

-Har qanday holatda muqobila rejaga ega bo‘lish;

Rejalashtirishda alohida ahamiyat kasb etadigan muhim xususiyat – bu dastur yoki reja bajarilishida hammaning o‘z mas’ulligi va ishtirokini aniq belgilab olishdan iborat bo‘ladi.

Tashkilotlarda rejalashtirish vazifasi ikki bosqichga asoslanadi: strategik va tezkor.

Biz yaxshi bilamizki, strategiya – ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy va bosh yo‘nalishidir. Maqsadga erishish borasida harakatlar poydevori va davlat, jamiyat hayotidagi boshqaruv san’ati mohiyatidir. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda strategik rejalashtirish (bir oylik, bir yillik, besh yillik, o‘n, yigirma yillik bo‘lishi mumkin). Albatta har bir tashkilot faoliyatining ma’lum yo‘nalishi bo‘yicha faoliyat doirasi aniqlanadi, mehnat va inson kapitalini jalb qilish, shu orqali rejalar ishlab chiqiladi.

Ma’lumki, tashkilotda biznes-reja mana shu holatlarga asoslanib ishlab chiqiladi:

- Ma’lum tashkilotning yangi sohalarini taraqqiy ettirish borasida (madaniyat va san’at sohasida, masalan maqom san’ati, baxshichilik san’ati, milliy hunarmandchilik san’atini rivojlantirish);

-Madaniyat va san’at sohasining yangi qirralarini ochishda (masalan “Do‘stlar klubi”, “Xalq artistlari klubi”);

-Madaniyat va san’at sohasida yangi yo‘nalishlarni joriy etishda (masalan, “Notiqlik maktablari”, “Yosh baxshilar maktablari”);

Tashkil qilish – ko‘zlangan maqsadga mos ravishda tayyorgarlik ko‘rish masalasi. Vazifasi quyidagicha : har bir ijodkordan o‘z ijodiy salohiyati va imkoniyatiga qarab foydalanish, bo‘g‘indagi xodimlar mehnatini ratsional – to‘g‘ri taqsimlash va talab qilish mexanizmini yaratish, barcha topshiriq va ko‘rsatmalarning so‘zsiz va ijodiy bajarilishini ta’minlash, moliyaviy manbalar

mutanosibligini tekshirib turish, tashkilotchilar mehnatini baholab borishdan iborat bo‘ladi.

Birgina misol, har yili respublika markazidan tortib, barcha viloyat, shahar, tumanlarda ham Yilboshi – ya’ni Navro‘z tantanalari keng nishonlanadi, xalq sayillari shaklida o‘tayotgan tadbirlarda nafaqat sahnada, balki ko‘chalarda, qir-adirlar, kengliklarda ham bayram tantanalari nishonlanadi, madaniyat va san’at mutasaddilari ishtirokida kichik detal (boshlovchilar, ovoz kuchaytirgich apparatlari, bayram ssenariysi yoki dekoratsiyalarning o‘z vaqtida tayyorlanmasligi) ham tadbir saviyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun ham har bir xodimning mas’uliyati, jonkuyarligi madaniyat va san’at muassasasi boshqaruviga katta madad bo‘ladi.

Xodimlar mas’uliyatini oshirish esa majburiyatni yuklash, natijalarga erishish yo‘lida yakdillik, vakolatlar va majburiyatlar kerakli va o‘z o‘rnida ishlatilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Boshqarish-aniq maqsadga yo‘naltirilgan ish rejasi hamda uni tashkil qilishdan iborat bo‘lib, rahbarning asosiy kasbiy faoliyati-odamlar bilan ishlay olishidir. Shuningdek, rahbar vaqtni oqilona rejalashtira olish va undan foydalana bilishi samarali boshqaruvning muhim shartidir.

Nazorat uchun savollar.

1. Boshqaruv jarayonini rejalashtirish nima?
2. Rejalashtirish funksiyalari tasnifini sharhlab bering.
3. Madaniyat va san’at sohasida innovatsion g‘oyalar deganda nimani tushunasiz?
4. Strategiya nima?
5. Tezkor rejalashtirishni izohlab bering.
6. Muqobil rejalar deganda nimani tushunasiz?
7. Favqulodda holat nima?
8. Madaniyat va san’at sohasidagi yangiliklardan birini sharhlab bering.

2.3.BOSHQARUVDA MOTIVATSIYA

REJA

- 1.Boshqaruvda motivatsiya jarayonlari.
- 2.Madaniyat va san'at sohasida motivatsiya tamoyillari.
- 3.Rag'bat va e'tirofning ahamiyati.

Bilamizki, **motivatsiya** (yunoncha “motif”, lotincha, “moveo” – harakat, undash) – tashkilot maqsadlari va shaxsiy maqsadlarga erishish yo'lida tinim bilmay harakat qilmoq, undamoq ma'nolarini anglatadi.

Boshqaruv faoliyatida doim bilimli va tadbirkor boshqaruvchilar o'z xodimlarini hamisha motivatsiyalashtirishgan, bu haqda xodimlar xabardor bo'lganlar. Tarixiy manbalar qadim zamonlarda motivatsiya rolini qamchi va tahdidlar bajarganini e'tirof etadi, shundan xulosa qilish mumkinki, boshqarish faoliyatining samaradorligi motivlash darajasiga bog'liq.

Ma'lumki, bizning davrimizga qadar mehnatga yaxshi haq to'lanishi –yaxshi ishlashga asos bo'ladi deb ishonishgan. Mana shu turtki asosan xodimlarning ish faoliyatiga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazmay qolmagan. Keyinroq, faqat yaxshi mehnat evaziga yaxshi haq bilan haqli e'tirof va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ham kirgan.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, boshqaruv usullariga quyidagilarni qo'shish mumkin:

- jamoatchilik e'tirofi, minnatdorchilik, e'tiqod, o'rnak qilib ko'rsatish;
- ijtimoiy-psixologik, ya'ni o'z-o'zini qadrlash, befarqlik, kamsitish;
- eng muhim va eng asosiysi moliyaviy tomondan, ya'ni imtiyozlar, ish haqining oshirilishi,qo'shimcha mukofotlar.

Tashkilotning yoki korxonaning rag'batlantirishiga lavozimga ko'tarish,qo'shimcha vakolatlar berish kiradi ;

Yana boshqacharoq rag‘batlantirish – maqto‘v, e‘tirof, namuna qilib ko‘rsatish;

Turdosh tashkilotlarga xodimning tajribasini ommalashtirish, mehnati samarasini keng e‘tirof etilishini ta‘minlash.

Ijtimoiy -psixologik usullar – ijtimoiy faollikni oshirish, tajriba almashish, tanqid, biznes, boshqaruv va kasbiy etika va boshqalar;

Axloqiy rag‘batlantirish usullari – shaxsiy yoki jamoatchilik e‘tirofi, maqto‘v va tanqid;

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi madaniyat va san‘at sohasida ham boshqaruvning beshta asosiy vazifasi bor:

- Aniq vazifalarni rejalashtirish (tashkilot mehnat jarayoniga maqsad, vazifa, strategiya, dasturlarni tuzib olish);
- Puxta tayyorgarlik va har tomonlama mos ravishda tashkil qilish (topshiriqlar yuqoridan quyiga, to‘g‘ri va xolis taqsimlanishi);
- Motivatsiya (muayyan topshiriqlarni bajaruvchi xodimlarni ruhan qo‘llab-quvvatlash, mehnatlarini e‘tirof etish va rag‘bat);
- Maqsadga mos muvofiqlashtirish (ishning hajmi va uning bajarilishini ta‘minlash yo‘lidagi ratsional taqsimot);
- Nazorat (muayyan ish hajmini maqsadga mos natijaga ko‘ra qiyoslanishi).

Motivatsiyaga yana boshqacharoq ta‘rif beramiz.

Motivatsiya -xodimlarni ruhan qo‘llab quvvatlash, mehnati natijasiga ko‘ra rag‘batlantirish, xodimni moddiy va ma‘naviy omillar ta‘sirida mehnati natijasiga qiziqtirish omili hisoblanadi.

Aniqroq aytadigan bo‘lsak, ayrim shaxs yoki shaxslar guruhining faoliyati inobatga olinib rag‘batlantirishdir. Rag‘batlantirishni kishilarda mehnatga iqtisodiy, idroklash va axloqiy qiziqish uyg‘otishga qaratilgan bo‘lib, bu ularni moddiy ta‘minlash omili va o‘zlarini hamda o‘z munosabatlarini, ishchanlikni

ta'minlovchi, shuningdek insonni faol ishlashga rag'batlantirishning yagona vositasidir.

Motivatsiya jarayonini 2017 yil 3 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori" mavzuida ijodkor ziyolilar bilan uchrashdi. Uchrashuvda badiiy ijod sohasi vakillarini bolalar musiqa va san'at maktablariga rahbar qilib biriktirish, madaniyat va san'at muassasalariga homiylik borasida qator iqtisodiy baquvvat tashkilotlar bilan "Do'stlik klublari"ni tuzish, yosh ijodkorlar seminarini tiklash, bastakorlar va kompozitorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish, ijodkorlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash borasida davlat e'tiborini kuchaytirish masalasida gapirdi va mana shu **motivatsiya** ijodkorlarni yangi, yorqin asarlar yaratishga undadi.

Undan tashqari ijodiy tashkilotlardan hisoblanmish O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish, 80 yillik tarixga ega, mamlakatning obruli ijodiy tashkilotini qo'llab-quvvatlash borasidagi ibratli say-harakatlar, "Ijod" jamoat fondi, Adiblar xiyobonining barpo etilishi, Prezidentimizning azim poytaxt Toshkentda o'tkazilgan "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabriklari, "O'zbek adabiyotining xorijiy do'stlari" kengashini tuzish haqidagi tashabbuslar tom ma'noda madaniyat, ma'rifat, san'at ahlining ijodiga davlatning z'tirofi va e'zozidir.

Motivatsiya – deb ana shunday xayrli tashabbuslar uchun soha vakillariga yaratilgan shart-sharoitlar, ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlashlarga aytiladi.

Bu borada quyidagilarni keltirib o'tmoq lozim:

- insonning o'z "men"ini shakllantirishi va samarali faoliyatini namoyon qilishga intilishi;

- shaxsning o'zaro iliq munoabatlar jarayonida boshqalar bilan hamkorlik qilishi va hamkorlik natijasida yangi g'oyalarni amalga tadbiiq etish;

-tinimsiz kuzatish, tahlil qilish, tahlillardan olingan monitoring asosida hamkasblarning ish faoliyatini nazorat qilish, iste'dodli mutaxassislariga yondoshish.

Bilamizki, boshqaruv faoliyati amaliyotni rejalashtirishdan va ularni bajarish uchun shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Bunda motivlash bilan bog'liq rahbar tomonidan tavsiyalar ishlab chiqish ham maqsadga muvofiqdir.

Alohida iste'dodga ega bo'lgan shaxslar asosan hokmimiyatga intiladigan, buyruq berish, mas'uliyat talab qilish, o'z talantini boshqalardan ustun qo'yish harakatida bo'ladalar. Keyingi toifaga esa tashkilot muammolarini hal etish imkoniga ega bo'lgan xodimlar tashkil etadi.

Ko'p va sifatli mehnat qilayotgan xodimlarga ko'p pul beriladi, yanada ko'proq ishlayotgan xodimlarga esa yanada ko'proq to'lanadi. Sifatsiz mehnat qiluvchilar jazolanadi. Bu yondoshuv xodimlarni rag'batlantirish va jazolash orqali amalga oshiriladi.

Tashkilotda faoliyat ko'rsatayotgan xodimga qiziqarli va unga yoqadigan ish berilsa olinadigan natija ham shunchalik yuqori bo'ladi. Bu yondashuv xodimga o'zi ixlos qo'ygan mehnat turi orqali motivatsiyalash yondashuvidir.

Tashkilotda xodim topshiriqni sifatli bajarayotgan bo'lsa, unga ijobiy baho berish va xatoga yo'l qo'ygan paytda esa salbiy baho berishni muntazam shaklga keltirish. Ushbu motivatsiya strategiyasi vaziyatni doimo tahlil qilib borish hamda xodim va rahbar munosabatlarini mukammallashtirib borishni nazarda tutadi. Rahbar va xodimning aloqasini kuchaytirish yondashuvi motivatsiyasi ham boshqaruvning asosiy komponentlaridan sanaladi.

Boshqaruv amaliyotida mehnat natijalariga asosan xodim mehnat faoliyatini kuchaytirish uchun quyidagi motivatsiya uslublari qo'llaniladi:

- Moddiy yordam, dam olish, sog'lomlashtirish, sayohat;
- Ogohlantirishlar, tartibga chaqirishlar;

- Tashkilot manfaatlaridan faxrlanish hissi;
- Namuna bo‘lish orqali motivatsiyani kuchaytirish;
- Tashkilot faoliyati natijalarini tan olish;
- O‘z o‘rnida va adolatli rag‘bat;
- Hamkorlikda va hamjihatlikda yutuqlarga erisha olgani uchun;
- Tinimsiz ravishda xodimlarning bilim va ko‘nikmalari oshishiga erishish;

Boshqaruvda har bir rahbar jamoa bilan muloqotda bo‘lar ekan, xodimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi va undan boshqaruv faoliyatida unumli, samarali foydalanishi ayniqsa diqqatga sazovor masala. madaniyat va san‘at sohasi tashkilotlarining har bir boshqaruvchisi qanday jamoaga rahbarlik qilmasin, birinchi o‘rinda o‘sha tashkilotda hamjihatlik va ahillikni yuzaga keltirishi shart, ahillik va birdamlikni yaratish uchun:

- jamoada mehnatsevarlik va fidoyilik kayfiyatini uyg‘otishi;
- faoliyat borasidagi jarayonlarda xodimlarning sidqidildan mehnat qilishlari uchun sharoit yaratishi;
- har qanday xulosani adolatli qaror qabul qilishi ;
- tashkilot a‘zolarining hammasiga bir xil ko‘z bilan qarashi, ijtimoiy adolatga rioya etishi zarur.

Bu muhim xususiyatlar boshqaruvchi uchun jamoaning bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat ko‘rsatishlari yo‘lidagi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Rahbarning har qanday faoliyati ma’lum ichki va tashqi ziddiyatlarni yengish bilan bog‘liq, sababi, inson bilan qilinadigan murosa-boshqarish san’atining o‘zagi, modomiki shunday ekan xodimlarning kuniga u yoki bu ko‘rinishdagi noroziliklari yoki muammolari chiqib turishi turgan gap.

Rahbarning kasbiy jihatdan muhim sifatlari qatoriga: prinsipiiallik, siyosiy yetuklik, tashkilotchilik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, adolatlilik, tanqidni qabul qilish madaniyati, xodimlariga g'amxo'rlik tuyg'usi, o'zgalarni ishontirish qobiliyati va boshqalar kiradi. Rahbar faoliyatida shaxsiy sifatlarni bilan birga professional-pedagogik ko'nikma va qobiliyatlar ham muhim ahamiyatga ega. Uning bu ko'nikmalariga: bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik kiradi.

Bugungi kundagi zamonaviy rahbar ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Rahbar, xoh u xalqaro muzokaralarda bo'lsin, xoh o'z jamoasini boshqarishda bo'lsin, muloqot obyektida o'zi haqida ijobiy taassurot uyg'ota olishi va bu orqali o'zgalarga ta'sir o'tkazish mahoratini o'rganishi lozim.

Har qanday boshqaruv vaziyati intellektual mazmun kasb etadi, negaki yuzaga kelgan muammoni boshqarish mavjud resurslardan o'rinli foydalanishni, inson ongi, tafakkuri va xulqiga ta'sir ko'rishni taqozo etadi. Boshqaruv tizim sifatida ikki tizimosti (tagtizim)da iborat bo'lib, bular: boshqaruvchi va boshqariladiganlardir. Ularni har biri alohida tasnifga ega. Ular o'z iyerarxiyasiga ega bo'lib, ichki va tashqi jabhalari mavjud. Boshqaruvda samaradorlikka erishish uchun modellashtirish va prognozlashtirishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ulardan foydalanish faqatgina samaradorlikni ta'minlamasdan, yillar davomida qo'llanib kelinayotgan boshqaruv usullarini mazmunan takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, har qanday boshqaruv faoliyati muayyan tashkilot yoki muassasada faoliyat yuritayotgan xalq yoki millatning iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritadi.

Nazorat uchun savollar

- 1.Motivatsiya nimani anglatadi?
- 2.Moddiy rag'batlantirish motivatsiyasi haqidagi fikringiz.
- 3.Motivatsiyada shaxsiy namuna qanday rol o'ynaydi?

4. Ijtimoiy-psixologik qo‘llab – quvvatlash nimani anglatadi?
5. Xodimning ishini yaxshi bilishi uchun nimalarga e‘tibor qaratishi zarur?
6. Tanqid, ishni bilmaslik, befarqlik tashkilot ishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
7. Madaniyat va san’at sohasida islohotlarda motivatsiyaning roli qanday?
8. Siz rahbar bo‘lsangiz motivatsiyaning qaysi jihatlarini xodimlaringizga nisbatan ishlatardingiz?

2.4. BOSHQARUVDA NAZORAT

REJA

1. Boshqaruvda nazorat jarayonining tashkil etilishi.
2. Nazorat turlari, muhim jihatlarini.
3. Boshqaruvda qarorlar qabul qilish.

Boshqaruv tizimi deyilganda, boshqaruv apparati va ular o‘rtasidagi bog‘lanish tushuniladi. Boshqaruv tizimining tarkibini bir-biri bilan bog‘langan teng huquqli birliklar va bo‘g‘inlar tashkil qiladi. Har bir bo‘linma o‘z vazifasiga ega bo‘lib, bu vazifa bo‘linma boshqaradigan vazifalar doirasini, uning faoliyat chegaralarini, vakolatlari va javobgarligini belgilaydi. Mazkur masalada boshqaruvda nazorat muhim o‘rin tutib, yuzaga chiqadigan muammolarni ular hali jiddiylashib ulgurmasdanoq aniqlash va hal etish imkoniyatini beradi.

Nazorat- boshqaruv faoliyatining asosiy vositalaridan biri bo‘lib, yuzaga keladigan muammolarning boshqa jarayonlarga o‘tib ketmasligi uchun o‘z vaqtida qilingan harakatlar yig‘indisi.

Boshqaruv faoliyatida nazorat jarayonlarini tashkillashtirish qabul qilinadigan qarorlarning maqsadga muvofiqligi, aniq, samarali natijalar va

rejalashtirilgan maqsadlarga mosligini belgilaydi va ularning tizimli sabablarini aniqlaydi. Tashkilotda qoidaga nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlar, balki sifatli ko'rsatkichlar ham nazorat qilinadi. Nazorat tasniflari quyidagicha:

-Boshqaruvda nazorat obyektlari (mehnat obyektlari, mehnat sharoitlari, hujjatlar va boshqalar);

-Nazorat qilinadigan qarorlar;

-Nazoratning oshkoraligi;

-O'tkazish usuliga muvofiqligi;

-Axborotni olish va qayta ishlash usulining mutanosibligi;

--Rasmiylashtiruv darajasi bo'yicha (rasmiy yoki norasmiy);

-Motivatsion ahamiyatga qarab;

-Nazorat qilish muddati;

-Nazoratning muntazamligi to'g'risida;

-Nazorat vaqtining davriyligi .

Nazorat shuningdek, joriy va yakuniy bosqichlarga bo'linadi. Ish jarayoni bosqichida olib boriladigan nazoratga hozirgi kun joriy nazorati deb qaraladi. Uning vazifasi iqtisodiy operatsiyalarni bajarish va ishlab chiqarish vazifalarini bajarish jarayonida yuzaga keladigan buzilishlarni tezkor aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etishdan iborat, yakuniy tekshirishlar yakunlangach, amalga oshiriladigan jarayon. Bunday holda olingan natijalar ko'zda tutilgan, maqsadda ko'zlanganlari bilan taqqoslanadi. Mazkur nazoratning maqsadi–bajarilgan ishlar va biznes operatsiyalarining to'g'riligini, qonuniyligini va iqtisodiy samaradorligini aniqlash, ishda kamchiliklar va yetishmovchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishdan iboratdir.

Nazoratni amalga oshirishda quyidagilar muhim:

-nazoratni natijalarga yo'naltirish;

-nazorat qulayligi;

-nazoratning o'z vaqtida bajarilishi;

-moslashuvchanlikni nazorat qilish;

- boshqaruvning strategik yoʻnalishi;
- nazoratning ochiqligi;
- nazoratning rentabelligi;
- samaradorlikni nazorat qilish.

Monitoring odatda toʻrt bosqichda amalga oshiriladi:

Nazorat samaradorligini oshirish va uning xodimlariga salbiy taʼsirini kamaytirish maqsadida quyidagilarga eʼtibor qaratish oʻrinli:

- xodimlar tomonidan qabul qilinadigan mazmunli meyorlarni belgilash;
- xodimlar bilan kutilgan natijalarni muhokama qilish;
- qiyin, lekin erishish mumkin boʻlgan standartlarni belgilash;
- ortiqcha nazoratdan qochish;
- standartlarga erishish uchun ragʻbatlantirish.

Nazorat qilish funksiyasini amalga oshirishning asosiy vositasi - kuzatuv, faoliyatning barcha jihatlarini tekshirish, buxgalteriya hisobi va tahlil qilish. Boshqaruv jarayonida nazorat qilish orqaga qaytarishning elementi boʻlib xizmat qiladi, chunki uning maʼlumotlari boʻyicha avvalgi qarorlar, rejalar, hatto normalar va standartlar oʻzgartiriladi.

Effektiv tarzda nazorat qilish strategik maqsadlarga ega boʻlishi, natijalarga mos, juda oddiy boʻlishi kerak. Tashkilot rejalariga xalaqit beruvchi mayda nazoratlar faqat chalgʻitadi xolos. Shu oʻrinda boshqaruvdagi oʻzgaruvchanlik, muhim koʻrsatkichlarning mavjudligi ham hisobga olishi kerak.

Tekshirishni amalga oshirish uchun barcha rejalar, dasturlar va vazifalarning hisobini olish zarur. Parametrlar miqdori, sifati, xarajati, ijrochilari va muddati boʻlishi rejaning puxta ishlanganiga asos sanaladi. Bu borada quyidagi talablarni bajarish kerak:

- axborotning toʻliqligi, yaʼni nazorat tizimining barcha elementlarini hisobga olinishi;
- oddiylik;
- kompyuterlashtirilgan avtomatlashtirish;

-rentabellik;

-uzluksizlik.

Nazorat qilish tizimining muntazam va yuqori sifatli hisobini va nazoratini amalga oshirish uning yuqori samaradorligi uchun muhim shart hisoblanadi.

Birgina misol. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida nazoratning amaldagi faoliyati professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv-uslubiy, tarbiyaviy, ilmiy-metodik, ilmiy salohiyatni oshirish borasidagi ishlari kabi faoliyat turlari sifatida ko'rinadi. Talabalar davomati, o'zlashtirish ko'rsatkichlari, xalqaro, respublika, viloyat, shahar, tuman kesimidagi konkurslar va tanlovlardagi ishtiroklari, iste'dodli talabalar, magistrnlarning nomdor stipendiyalar, davlat mukofotlarini qo'lga kiritishlari borasidagi ko'rsatkichlar ham bu faoliyat sirasiga kiradi.

Nazorat qilish tizimidagi aloqa

Boshqaruv funksiyalari, shaxslar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi o'zaro aloqa kommunikatsiya va axborot almashinuvi orqali amalga oshiriladi. Axborot va kommunikatsiya konsepsiyalari bir-biri bilan bog'liq, biroq aloqa o'zaro uzatiladigan ma'lumotni (axborot) va uning qanday o'tkazilishini o'z ichiga oladi.

Har qanday menejerning faoliyati quyidagi tartib va operatsiyalar bilan bog'liq:

-axborotni olish, tekshirish va qayta ishlash;

-yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

-ularni amalga oshirishni nazorat qilish va tartibga solish;

-mavjud yechimlar bo'yicha ma'lumotlarni tizimlashtirish va saqlash.

Aloqa tizimi juda murakkab va bir qator xususiyatlarga ko'ra tasniflanish xususiyatiga ega bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Aloqa jarayonida axborot bir mavzudan boshqasiga o'tkaziladi. Mavzular shaxslar, guruhlar va tashkilotlar aro bo'lishi mumkin. Bu borada muloqotning quyidagi tipologiyasini keltirish o'rinli :

-tashkilot va tashqi muhit o'rtasidagi aloqalar;

-shaxslararo muloqot;

-norasmiy muloqot.

Xodimlar muloqotida aloqa kerakli reaksiyaga erishish uchun, og'zaki yoki boshqa shakllarda (yozma, imo-ishoralar, kamsitish va hokazo) jumlar, fikr-mulohazalar, maslahatlar va his-tuyg'ularni yetkazib berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Muloqot chog'ida ishtirokchilar ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lishlari va ma'lum darajada o'zaro tushunishlari, ko'rishlari, eshitishlari kerak.

Odamlararo muloqot menejment uchun juda muhim, chunki ko'plab boshqaruv vazifalari odamlarning bevosita aloqasi orqali amalga oshiriladi. U bir necha bosqichdan iborat bo'lgan jarayon sifatida diqqatni o'ziga tortadi.

Shu o'rinda axborot manbalarini qabul qilish va uzatish borasida to'xtalmoq lozim.

Tashkilotning axborot manbalari chiqish bosqichida axborot jo'natuvchi xodim jarayon ishtirokchilariga yetkazilishi uchun mo'ljallangan ma'lumotni loyihalashtiradi .

Bundan tashqari, uzatish uchun mo'ljallangan ma'lumot kodlangan ham bo'lishi mumkin. (tashkilot manfaati yo'lida maxfiy bo'lsa).

Boshqaruvda qarorlar qabul qilish

Rahbar qanchalik axloqiy sog'lom mehnat jamoasi tuzishga muvaffaq bo'lsa, jamoaning faoliyat natijasi shunchalik yaxshi bo'ladi. Albatta boshqarish samaradorligini to'g'ri tashkil qilishda boshqaruvda qarorlarning to'g'ri qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi, shu sababli ham rahbar asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Boshqaruv jarayonida, tizimning faoliyatiga (jamoat, tashkilot, korxonalar, davlat) maqsadga erishish va ushbu maqsadni aniq belgilashda, ham yakuniy qaror

qabul qilishda, ham uning taraqqiyotini monitoring qilishda, aniq, to'liq, va yaxshi ishlangan ma'lumotlar sezilarli rol o'ynaydi.

Ma'lumotlar – bu tashkilotda boshqaruv jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maqsadli bilim va ko'nikmalardir. Umumiy boshqaruv funksiyalari - rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, motivatsiya va nazorat qilish – axborotni qayta ishlash jarayonlarini, tashkilot maxsus xodimlar axborot aloqalarini tashkil qilish masalalarini, axborot bilan ta'minlash, ya'ni axborotni qayta ishlash, buxgalteriya hisobi, tahlil qilish va prognozlash, boshqarish vositalarini birlashtirish, shuningdek, boshqaruv tizimini ijro etuvchi asosiy bo'g'inlarini birma-bir ko'rib chiqdik. Va xulosa shu bo'ldiki, boshqaruvda ishlatiladigan ma'lumotlar quyidagi tasniflarda ko'rinadi:

- boshqaruv obyekti bo'yicha;
- yuqori yoki quyi tizimga tegishliligiga ko'ra;
- axborotni uzatish shakliga ko'ra (og'zaki va og'zaki bo'lmagan);
- axborot olish va uzatish vaqtiga ko'ra .

Axborot to'plami deb bu muayyan atributlar tomonidan buyurtma qilingan boshqaruv organlari tomonidan ishlatiladigan barcha ma'lumotlarning yig'indisiga aytiladi.

Ma'lumotlar yig'indisi quyidagilarda ko'rinadi:

- iste'molchilarning axborot ehtiyojlarini to'liq qondirish;
- axborotni samarali qidirish va uzatish; -
- axborotni buzishdan himoya qilish.

Axborotning miqdori an'anaviy birliklar (so'zlar, xabarlar, belgilar, harflar, varaqalar va boshqalar) yordamida o'lchangan va boshqaruvning axborot yukini aniqlashda, nazoratni avtomatlashtirish bo'yicha qarorlarni qabul qilishda foydalaniladigan xususiyatlardan iborat.

Bu borada quyidagilarga alohida e'tibor qaratish kerak:

-qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan har bir hujjatning mavzuga mosligi va mavjudligiga;

-hujjatlardagi va hujjatlar mazmunidagi ko‘rsatkichlarning takrorlanishini bartaraf etishga ;

-hujjatlarni bajarish muddatlarini samarali nazorat qilishga;

-hujjatlar shakllarini birlashtirish masalalariga.

Hozirgi tezkor zamonda axborot texnologiyalari, xususan, internet yordamida dunyoning turli mamlakatlardagi tashkilotlar, idoralar va hatto xodimlarini loyihalarda hamkorlik qilish yoki har qanday muammolarni hal qilish uchun vaqtinchalik ishchi guruhlariga birlashtirish mumkin. Bundan tashqari, ushbu tizimlar xodimlarga o‘zlarining ijodiy salohiyatlarini maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Madaniyat va san’at sohasidagi hamkorlik uchun esa san’atkorlar, madaniyat xodimlari, rassomlar, bastakorlar, skulptorlar, rejissyorlar, ssenaristlar, haykaltaroshlarning ijodiy ishlari darajasida loyihalarni amalga oshirish mumkin.

Boshqaruv faoliyatida juda muhim rol o‘ynaydigan, ya’ni og‘zaki bo‘lmagan ma’lumotlar, ya’ni so‘zlarni ishlatmasdan yuboriladigan ma’lumotlar ham mavjud. Boshqaruv faoliyatida imo-ishora, yuz ifodasi, intonatsiya – muloqotning eng muhim qismi hisoblanadi. Sotsiologlarning hisob-kitobiga ko‘ra,intonatsiya, yuz ifodasi, imo-ishoralar suhbat davomida barcha ma’lumotlarning 80 foizini “ushlab turadi”. Ba’zan bu vositalar yordamida so‘zlardan ko‘ra ko‘proq narsani aytishi mumkin.

Og‘zaki bo‘lmagan axborotning asosiy turlari:

-Shaxsning jismoniy ma’lumotlari (bo‘yi, vazni, soch rangi, tana harakati va boshqalar);

-Tana harakatlari (imo-ishoralar, teginishlar, yuz ifodalari, ko‘z harakati va boshqalar);

-Nutq (intonatsiya, savodxonlik, ovoz, nutqning chastotasi va boshqalar);

-Muhit (yorug‘lik, shovqin, tozalik, xona va boshqalar);

-Atrof-muhitdan foydalanish hatti-harakatlar, aloqa qilishdagi masofa va boshqalar);

-Vaqt (erta kelish, aniq belgilangan vaqtga yetib borish)

Boshqaruv qarorlari quyidagi funksiyalar bo'yicha tasniflanadi:

- boshqaruv tizimining quyi tizimlarida;
- faoliyat sohalari tizimida;
- o'lchov parametrlari bo'yicha;
- taraqqiyotni prognozlash (chamalash) bo'yicha;

Maqsadlar turi va soni bo'yicha;

- rejalashtirish iyerarxiyasi (strategik, taktik);
- ta'sir obyektlari bo'yicha;
- vaqt mutanosibligida (qisqa, o'rta va uzoq muddatli);
- rasmiylashtirish usuli bilan;
- axborotdan foydalanish darajasida;
- umumiy boshqaruv funksiyalari bo'yicha;
- aks ettirish shakllari bo'yicha;
- qaror qabul qilish darajalari bo'yicha (individual, bo'linma yoki tashkilot darajasida);

- kontent (ekologik, ijtimoiy, tashkiliy, ilmiy, texnik va hk);
- ta'sirchanligi (bir darajali, ko'p bosqichli);
- qaror qabul qiluvchi tomonidan (shaxs yoki guruh);
- majburiyat darajasiga qarab (qat'iy xarakterga ega bo'lgan tavsiyalar).

Qarorlar qabul qilish va amalga oshirish tashkilotning faoliyati atrofida "markaz" dir. Qaror qabul qilish tashkilotning hozirgi va kelajagi o'rtasidagi farqni qisqartiradi. Ushbu jarayon tashkilotning faoliyatini rejalashtirishdan kelib chiqadi, chunki reja maqsadlarga erishish uchun resurslarni taqsimlash uchun yechimlar to'plami hisoblanadi.

To'g'ri qaror qabul qilish, bilim va tajribaning, qat'iy tartib-intizomning, rahbar mas'uliyatining yaqqol ifodasidir.

Qaror qabul qilinishi uchun quyidagi omillar zarur :

- muammoni aniqlash;
- muammoni shakllantirish;

-muammoni hal qilish mezonlarini aniqlash.

Jarayon tizimli va tuzilmasi muammolar uchun boshqacha tarzda davom etadi. Birinchidan, muammoning tan olinishi juda sodda, ikkinchidan – tashkilotning rivojlanish tendensiyalari va uning tashqi muhiti haqida aniq ma'lumot mavjud bo'lsa ish oson ko'chadi.

Rivojlanish va qarorlarni qabul qilish masalalari quyidagi bosqichlardan iborat:

- **muqobil yechimlarni ishlab chiqish;**
- **muqobillarni baholash;**
- **tanlash va qaror qabul qilish.**

Ko'plab muqobil yechimlar avvalgi tajribalardan ma'lum bo'ladi. Biroq, ko'pincha yangi noyob muammolar mavjud. Bunday hollarda ijodiy yondashuv zarur. Shu bilan bir qatorda qidirish usullari mavjud: miya bo'roni, takliflarni taklif qilish usuli, vaziyatni guruhlarda tahlil qilish, fikrlar xaritasi.

Shu o'rinda qarorlarning turlari haqida ham ma'lumot keltirmoq joiz. Ularning tasnifi quyidagicha:

Yuqori va o'rta bo'g'in rahbarlar tomonidan bir yildan ikki yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan, tashkilotning kundalik ish sharoitida tezroq amalga oshirilishiga ehtiyoj sezilgan, ko'zga ko'rinmas, favqulodda holatlarni ham qamrab olgan joriy, tezkor qarorlar **taktik qarorlar** deyiladi. Muayyan tashkilotning joriy rejalarini tuzish, kadrlar masalasini hal qilish va joriy qilish.

Bir xil muammoga daxldor bo'lgan, tashkilotning barcha tizimlari uchun bir xilda amal qilinishi mumkin bo'lgan qarorlarning **umumiy qarorlar** turiga kirishiga sabab, jamoada kun mobaynida amal qilinadigan tartib-qoidalar, ish haqqi borasida, xodimlarning tavallud kunlari, yubileylari kabi kundalik vazifalar ushbu qarorlarning asl mag'zini tashkil etadi.

Maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ma'lum bir vaqt mobaynida amalga oshiriladigan, kechiktirib bo'lmay maqsadlarni aniqlash va

dasturlash masalalari **strategik qarorlar** sirasiga kiradi. Ular uzoq vaqtga, odatda bir necha yilga mo'ljallangan va strategik masalalarni hal etilishida ishlatiladi. Shuning uchun uni istiqbol rejasi deb ataydilar. Masalan, O'zbekiston Respublikasini yanada taraqqiy ettirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi misol bo'la oladi. Besh yilga mo'ljallangan va respublikaning barcha hududlari, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa barcha sohalarni o'zida mujassam etgan bu ko'lamdor, keng qamrovli dastur to'laqonli amalga oshsa, yurt farovonligi yo'lida qilingan juda ulkan ishlar ro'yobga chiqadi.

Yuqori bo'g'in tashkilotlar tomonidan ma'lum bir meyor asosida qabul qilingan va quyi tizim uchun ijroga yuborilgan qarorlar turi **stereotip** qarorlar turiga kiradi. Madaniyat va san'at muassasasi faoliyatini risoladagidek boshqarish yuzasidan chiqarilgan buyruqlarni shunday qarorlar jumlasiga kiritish mumkin. Misol qilib, tashkilotda ish reglamenti, ijro intizomi, xorijiy tillarni chuqur o'rganish yoki axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish masalalari borasida o'qitish haqidagi kundalik va muntazam buyruqlar.

Dunyo matbuotida mamlakatlar rahbarlarining "tor doirada"gi uchrashuvlari, suhbatlari, yoki kelishuvlari haqidagi axborotlarni ko'p eshitamiz. Bu tadbirlar ommaviy axborot vositasi xodimlarining ishtirokisiz kechadi. Bu maxsus uchrashuvlar faqat davlatlar liderlari, maxsus xizmat vakillari e'tiboriga taalluqli bo'lgani uchun ham maxsus o'tkaziladi va shu sababli **maxsus qarorlar** deb ataladi.

Maqsadga yo'naltirilgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha to'la-to'kis axborot manbalari jamlangan holda qabul qilingan qarorlar **aniq qarorlar** deyiladi. Bu taxlit qarorlar aniq jadvallar, diagrammalar, matnlar shaklidagi yolg'oni bo'lmagan manbalarga asoslanadi, shuning uchun ham amalga oshish ehtimol axborotning nechog'li to'g'ri ekanligi bilan izohlanadi. Masalan, madaniyat markazida "Notiqlik to'garagi"ning 12 nafar ishtirokchisidan faqat 2 nafari "O'zbekiston Vatanim manim" respublika tanlovining final bosqichiga yo'l oladi.

Ularni respublika darajasigacha bo'lgan sinovlarga tayyorlagan ikki nafar markaz xodimiga kerakli adabiyotlar, texnik vositalar, yo'l xarajatlari va boshqa imtiyozli imkoniyatlar yaratish uchun qabul qilingan qarorni aytish mumkin.

Har bir tashkilotning ko'zga tutilmagan, favqulodda vaziyatdan chiqish borasida majburiylik asosida tavakkal qilib (har ehtimolga qarshi) qabul qilinadigan qarorlari bo'ladi. Masalan, madaniyat markazi hovlisiga osilgan, sohaga oid bannerlarning yil davomida necha marta yangilanishi, yoki hudud atrofiga mevali, manzarali daraxtlar, turli-tuman gul ko'chatlari o'tqazilishi ham bunga misol bo'ladi. Bu boradagi qarorlar **noaniq qarorlar** turkumiga kiradi.

Mamlakat yoshlarini bir g'oya asosida birlashtirgan, 40 mingga yaqin yosh kitobxonlarni o'z saflarida jamlashtirgan "Yosh kitobxon" tanlovi Prezident tashabbuslari orqali yurt sarhadlariga tarqaldiyubu tashabbusga hamohang "Kitobxon oila" tanlovi esa elni ma'rifatga, ma'naviyatga chorlashda muhim va dadil qadam bo'ldi. Natijada hozirgi kunlarda ham hamma mutasaddi rahbarlar o'zlari ta'lim olgan maktablari, oliy o'quv yurtlariga qator-qator adabiyotlarni taqdim etishmoqda. Bir oliy tashabbus natijasida ilmga, fanga, mutolaaga qiziqish ko'paymoqda. Bunday xayrli tadbirlarga asos bo'ladigan qarorlar esa – **tashabbusli qarorlar** deyiladi.

An'anaviy qarorlar- bu odatiy vaziyatlarda qabul qilinadigan qarorlardir. Ularning amal qilish doirasi oldindan ma'lumdir. Bunga, korxonalar yoki Tashkilotning ishlab chiqarish dasturini qabul qilishga oid qilingan qarorlar misol bo'la oladi.

Tavsiyali qarorlar- o'z mohiyatiga ko'ra tashabbusli qarorlarga yaqin bo'lib, ularda korxonalar faoliyatini yaxshilash borasidagi tavsiyalar o'z aksini topadi.

Tezkor (operativ) qaror- kechiktirmay ijro etish uchun chiqariladi. Masalan, tabiiy ofat sodir bo'lgan hollarda uni bartaraf qilish bo'yicha qabul qilingan qarorlar ana shunday qarorlar turkumiga kiradi.

Muntazam qarorlar- belgilangan muddatlarda chiqariladi. Masalan, xo‘jalik faoliyati yakuniga doir qabul qilinadigan (dekada, oy, yil choragi, yarim yillik, to‘qqiz oylik va yillik) qarorlar shunday qarorlarga misol bo‘la oladi.

Shaxsiy qarorlar - ishchining o‘zining mehnat faoliyati to‘g‘risidagi qarorlardir.

Boshqaruvchi qarorlar - faqat tashkilot rahbarlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlardir.

Qabul qilinadigan qarorlar tarkibida yakkaboshchilik va yakdillik asosida qabul qilinadigan qarorlar ham bo‘ladi. Ammo yakkaboshchilik asosidagi qarorlar ko‘p hollarda asosli tanqidga uchrab turadi. Sababi, rahbar yakkaboshchilikka asoslangan qarorni aksariyat hollarda mehnatini ko‘rsatish maqsadida qabul qiladi. Bunday rahbar faoliyatining 80-90% buyruqbozlikka asoslangan bo‘ladi. Bu jamoada keskinlikning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Boshqaruv qarorlari jamoa fikriga tayangan holda qabul qilinmas ekan, boshqaruvchi bilan bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi, o‘zaro ishonchning yo‘qolishi, nizolarning

Muqobillikni tanlash qarorlar qabul qilish jarayonini yakunlaydi. Uch usuldan foydalaniladi:

- o‘tgan tajribani hisobga olgan holda;
- tajriba o‘tkazish;
- tadqiqot va tahlil.

Birinchi usul boshqalardan ko‘ra tez-tez ishlatiladi. Ammo, rejalashtirishdagi o‘tgan tajribani hisobga olish har doim ham mumkin emasligini yodda tutish kerak emas, chunki bu holat xarakterli. U diqqat bilan tahlil qilinib, muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlik sabablarini aniqlashga yordam beradi.

Qarorni amalga oshirishni tashkil qilish ko‘pchilikning say-harakatlarini muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Qarorni amalga oshirish uchun harakat rejasini ishlab chiqish, ularning qobiliyatlari maksimal darajada qo'llanilishini hisobga olgan holda ishtirokchilar o'rtasida huquq va majburiyatlarni taqsimlash, axborot almashish uchun aloqa tarmog'ini qurish, ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, ularning manfaatlarini muvofiqlashtirishdek qator ishlar amalga oshiriladi.

Shuningdek, qarorni bajarish jarayoni bo'yicha axborot olish mexanizmini ishlab chiqish, shu jumladan xatolar va yutuqlarni aniqlash tizimini ishlab chiqish, bu esa hatti-harakatlarni to'g'rilash imkonini beradi. Birlamchi manbalardan olingan ma'lumotlar eng to'g'ri ma'lumotlar hisoblanadi, chunki bu ma'lumotlarda muammolar va ularning yechimlari to'g'ri baholanadi.

Shunday qilib, boshqaruv qarorini qabul qilish va amalga oshirish bu oqilona jarayon, ya'ni qaror to'liq bajarilishi va mumkin bo'lgan muammoni bartaraf etish uchun menejer orqali o'tishi kerak bo'lgan bosqichlar sifatida taqdim etiladi. Bu haqiqiy amaliyotga mos keladimi? Bu har doim ham shunday emas, chunki qaror qabul qilish jarayonida ratsional modeldan foydalanishga to'sqinlik qiladigan qator cheklovlar mavjud.

Bundan tashqari, zamonaviy sharoitlarda oqilona qarorlar qabul qilish "axborot simmetriyasi" deb ataladi. Shu munosabat bilan tashkilot tomonidan qabul qilingan qarorlar asoslari, boshqaruvi "muntazam" hisoblanadi. Ularning har biri tajriba asosida ishlab chiqilgan muammolar yechimining usullari va usullarining barqaror birikmasidan iborat

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuqorida qayd etilgan boshqaruv qarorini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida, bir bosqichdan keyingi bosqichga qat'iy rioya qilishda qator tadbirlar ishlatish kerak bo'ladi. Haqiqatan ham, qarorni qabul qiladigan va amalga oshiradigan menejer ko'p hollarda ayni paytda mavjud vaziyatni tahlil qiladi, darhol va istiqbolli harakatlar uchun maqsadlarni belgilaydi, ularning mumkin bo'lgan oqibatlarini va ssenariylarini belgilaydi, bo'ysunuvchiga axborot va buyruqlar yuboradi, ular bilan o'z harakatlarini muvofiqlashtiradi va

boshqaruv jarayonining boshqa ishtirokchilari xodimlarni tashkil qiladi, muvofiqlashtiradi, motivatsiya qiladi va nazorat qiladi.

Boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish jarayonida ruxsat etilgan kamchiliklar esa asosan quyidagilar:

- muqobil usulda qaror qabul qilish;
- tashqi muhitning rivojlanish tendensiyalarini prognozlash;
- qarorlarni tayyorlash, muammolarni hal qilish.

boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish tartibi ishlab chiqilmagan.

Muvofiqlashtirish

Muvofiqlashtirish (birgalikdagi soʻzlardan birgalikda tartibga solish) tashkilot boshqaruv tizimining elementlari oʻrtasidagi barqarorlik va oʻzaro bogʻliqlikni taʼminlash, boshqarish jarayonining uzluksizligini taʼminlash uchun moʻljallangan funksional vazifadir.

Muvofiqlashtirishning asosiy vazifasi tashkilot oʻrtasidagi barcha boʻlinishlar va aloqalarni (gorizontal va vertikal) ular oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni (aloqa) yaratish yoʻli bilan mustahkamlikni taʼminlashdan iborat. Ushbu ulanishlarning tabiati juda boshqacha, chunki muvofiqlashtirish tarzidagi jarayonlarga bogʻliq. Shuning uchun bu funksiyani amalga oshirish uchun turli hujjatli manbalar (hisobotlar, tahliliy materiallar) va yigʻilishlarda, uchrashuvlarda, intervyularda va hokazolarda yuzaga keladigan muammolarni muhokama qilish natijalari sifatida foydalanish mumkin. Tez javob berishga yordam beradigan texnik jihozlar tashkilotdagi odatdagidek ish operativligidan dalolat beradi. Ushbu va boshqa aloqa turlarining yordamida tashkilotning quyi tizimlari orasidagi hamkorlik oʻrnatiladi.

Muvofiqlashtirish shuningdek quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

Menejment jarayonining funksiyalarining birligini va muvofiqligini taʼminlash (rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazorat);

Individual menejerlar, xodimlar oʻrtasida kelishuvni taʼminlash;

Boshqaruv funksiyalari, ishlarni bajarish muddatlarini muvofiqlashtirish;

Tashkilotning bo'linmalari va mansabdor shaxslarining tashqi muhit subyektlari, biznes sheriklari bilan ishlashiga muvofiqligini ta'minlash;

Tashkilotning ijro etuvchi direktorlari byudjet loyihasining asosiy parametrlarini (bo'limlarning byudjetlarini batafsil o'rganishgacha) kollektiv rivojlanish va muvofiqlashtirish;

Mehnatni optimal taqsimlash, xodimlar, barcha darajadagi ijrochilar o'rtasida majburiyatlar va burchlarni taqsimlash;

Nazorat tizimining belgilangan parametrlardan chetga chiqishining oldini olish.

Koordinatsiya bir necha turga bo'linishi mumkin:

-profilaktika, muammolar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari taxmin qilingan va yetarli choralarni ko'rish;

-ular yuzaga kelganidan so'ng tizimdagi uzilishlarni bartaraf etish;

-nazorat qilish tizimlari va ishlab chiqarishni belgilangan chegaralar doirasida saqlash uchun mo'ljallangan tartibga solish;

-rag'batlantirish, boshqaruv va ishlab chiqarish tizimlarining ishlash samaradorligini oshirish.

Tashkilotda muvofiqlashtirish ikki turdagi protseduralar bilan birga keladi:

Buyruq, qaror va hokazolar shaklida faoliyatni bevosita boshqarish;

Tashkilot faoliyati bilan bog'liq normalar va qoidalar tizimini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar.

Muvofiqlashtirish faoliyati uchrashuvlar, rahbarlar va xodimlar o'rtasidagi aloqalar, rejalar va jadvallarni muvofiqlashtirish, ularga rahbarlik qilish, ijrochilarning ishlarini bog'lash orqali amalga oshiriladi.

Mustaqillik sharoitida va barcha darajadagi menejerlarning javobgarligi sharoitida, norasmiy munosabatlarning o'sishi sodir bo'lib, u gorizontal muvofiqlashtirish ishlarini boshqariladigan tuzilmalarning bir darajasida amalga

oshirilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, nazorat tuzilmalari "tekis" bo'lganda vertikal muvofiqlashtirish zarurati kamayadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, real ma'muriy amaliyotda boshqaruv jarayonining sxemasida aks ettirilgan umumiy boshqaruv funksiyalarini bajarish tartibi ko'pincha saqlanmaydi, menejer ba'zan muayyan vaqt ichida faqat bitta funktsiyani bajarish bilan chegaralanmaydi.

Boshqaruv faoliyatida bo'ysunuvchining ishini muvofiqlashtirish bosh rejani tuzadi va o'zharakatlarini to'g'rilaydi, ishni taqsimlash oqibatlarini belgilaydi, motivatsiya bilan shug'ullanadi, ko'rsatmalarini bajarishga erishadi, xodimlarning imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Bundan tashqari, boshqaruvchining amaliyotida uning sof shaklida hech qanday funktsiya topilmaydi.

Munozaralar funktsiyalari keng tarqalgan. Ular har qanday boshqaruv jarayonida amalga oshiriladi. Ular bilan birga maxsus boshqaruv funktsiyalari ham mavjud. Ularning har biri boshqarish bo'yicha ishning muayyan turi deb hisoblanishi mumkin. Ular quyidagi guruhlariga bo'linishi mumkin.

Boshqaruv jarayonida, tizimning faoliyatiga (jamoat, korxonalar, davlat) maqsadga erishish va ushbu maqsadni aniq belgilashda, ham yakuniy qaror qabul qilishda, ham uning taraqqiyotini monitoring qilishda, aniq, to'liq, va yaxshi ishlangan ma'lumotlar.

Ma'lumotlar—bu tashkilotni yaratish va uning boshqaruv jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maqsadli bilim. Umumiy boshqaruv funktsiyalari - rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, motivatsiya va nazorat qilish—axborotni qayta ishlash jarayonlari demakdir. Tashkilotda axborot bilan ta'minlash, ya'ni axborotni qayta ishlash, buxgalteriya hisobi, tahlil qilish va prognozlash boshqarish vositalarini birlashtirish, shuningdek, boshqaruv tizimini ijro etuvchi tizim bilan bog'lash uchun havola hisoblanadi.

Boshqaruvda ishlatiladigan ma'lumotlar quyidagilar:

Menejment obyekti bo'yicha;

Ushbu kichik yoki quyi tizimga tegishli;
Uzatish shakliga ko‘ra (og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan);
Vaqt ichida o‘zgaruvchanlik;
Uzatish usuli bilan;
Transfer rejimi bo‘yicha;
Uchrashuv bo‘yicha;
Obyektning hayot aylanish bosqichida;
Mavzuga tegishli nazorat obyektiga nisbatan.

Axborot to‘plami–bu muayyan atributlar tomonidan buyurtma qilingan boshqaruv organlari tomonidan ishlatiladigan barchama’lumotlarning yig‘indisi.

U quyidagilarni ta’minlashi kerak:

- iste’molchilarning saqlanadigan ma’lumotlarga bevosita kirishi;
- ularning axborot ehtiyojlarini to‘liq qondirish;
- axborotni samarali qidirish va uzatish; -
- axborotni buzishdan himoya qilish.

Nazorat uchun savollar

- 1.Boshqaruvda nazoratning o‘rnini aytib bering.
- 2.Nazorat prinsiplari nimalardan iborat?
- 3.Axborotning to‘liqligi va uzluksizligi nima?
- 4.Muvofiqlashtirishni ta’riflab bering.
- 5.Nazorat qilish tizimidagi aloqaning ta’rifi qanday?
- 6.Shaxslararo muloqot nima?
- 7.Verbal va noverbal muloqot deganda nimani tushunasiz?
- 8.Rahbarning samarali quloq solishi boshqaruvda qanday rol o‘ynaydi?

2.5.BOSHQARUVDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR

REJA:

1.Boshqaruv faoliyatida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ahamiyati.

2.Oliy ta'lim tizimida axborot almashinuv.

3."Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmonining mazmun-mohiyati.

O'zbekistonda davlat boshqaruvining demokratik, xalqsevar usuli mamlakatda olib borilayotgan keng ko'lamli, tarixiy islohotlar, avvalambor xalq bilan muloqot asosida g'oyat adolatli va xalqchil siyosat negiziga asoslanadi. Boshqaruvning yangi texnologiyalaridan, qirralaridan biri hisoblanmish "Xalq qabulxonalari" ga ikki milliondan ortiq arizalar bilan murojaat etgan yurtdoshlarimizga ko'rsatilgan amaliy yordam-demokratik tamoyillarga suyangan davlatning xalq farovonligi yo'lida olib borgan amaliy tadbirlaridandir.

Madaniy-gumanitar sohalarni rivojlantirish borasidagi islohotlar, avvalo, madaniyat, san'at, adabiyot , ommaviy axborot vositalari sohasidagi yangilanish jarayonlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Amalga oshirilayotgan tadbirlar, ko'lamli loyihalarning samaralari ko'zni quvontirgani kabi, boshqa sohalardagi singari madaniyat va san'at sohasi tizimida ham qator kamchiliklar, nuqsonlar mavjud.

Muhtaram Prezidentimizning "Madaniyat va san'at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha kompleks yondashuvning yetishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etishga, aholiga madaniy xizmat ko'rsatishda oqsoqlikka yo'l qo'yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san'at maskalarining moddiy-

texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur”¹⁴ deb ta’kidlaganlari bejiz emas.

Madaniyat va san’atning boshqaruv faoliyatida axborot-kommunikatsiyalarning ahamiyati sohaga yangi va mazmunli faktlar, ish faoliyatiga taalluqli tezkor, aniq ma’lumotlar yig’indisi tushuniladi. Yangi va tezkor axborotlarni samarali boshqarish jarayonida uning holatini to’laqonli aks ettiradigan obyekt bilan subyekt faoliyati birinchi o’rinda turadi. Madaniyat va san’at sohasi faoliyati uchun axborotlar birlamchi mehnat vositasidir.

Harakatlanayotgan axborot ko’lami hijtimoiy ruhiyatimiz, mehnat faoliyatimizga sezilarli ta’sir ko’rsatayotgani har kungi ish unumdorligida sezilib turadi. Albatta, axborotning haqqoniyligi va aniqligi boshqaruv faoliyatining izchilligini ta’minlashi, axborotlar sifati, uning bahosi va foydaliligi, operativ va ishonchliligi alohida ahamiyatga ega. Kech va noaniq axborotlar o’z qimmatini yo’qotadi, axborotlarning turlari turlicha:

- kadrlar, huquqiy, meyoriy, statistik, analitik xarakterga ega axborotlar;

- maqsadi va vazifasiga ko’ra o’zgarmaydigan, qayta ishlash jarayonida o’z qimmatini yo’qotmaydigan, ko’p marta foydalanish imkoniga ega bo’lgan axborotlar tezkor zamonning o’ziga xos informatsion manbai sanaladi.

Axborot oqimlari turiga qarab, guruhlariga bo’linadi, axborotlar oddiy va murakkab axborot tizimi sifatida shakllangan. Mavjud axborotni turlariga qarab, qayta ishlab, tizimga solib, ma’qul qarorlar qabul qilinadi, ijrosi nazoratga olinadi va ushbu qarorlar o’z vaqtida quyi bo’g’inlarga havola etiladi. Tashkilot faoliyatiga katta ta’sir ko’rsatadigan tezkor va aniq axborotlar o’z joyida, maqsadli ishlatilishi lozim. Rahbarning bilimdonligi, uzoqni ko’ra bilishi yangi ma’lumotlardan qay darajada foydalanishiga bog’liq.

¹⁴O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori // [www. lex.uz](http://www.lex.uz).

2018 yil 19 fevralda imzolangan “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi Prezident Farmoni O‘zbekistonda yurtimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiyalarni rivojlantirish, axborot kommunikatsiyalarini boshqarish va joriy etish, aholini sifatli axborot-kommunikatsion vositalar orqali tezkor va puxta axborot manbalari bilan ta‘minlash sohasidagi bir qator tizimli muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan.

Davlat rahbarining Farmoni oliy ta‘lim sohasida axborotlarni vaqtida yetkazish borasida Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari Universitetiga talabalar uchun mustaqil ravishda o‘quv rejalar, dasturlar, bitiruvchilar uchun malaka talablarini ishlab chiqish va tasdiqlash, professor-o‘qituvchilar tarkibi mehnatini o‘qitishning kredit tizimi shartlaridan kelib chiqib, faqat ta‘limga xos tadbirlar asosida ish vaqti hisobga olinishi asoslangan holda mustaqil normalashni amalga oshirish, shuningdek pedagog xodimlar tomonidan ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-uslubiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlarning rag‘batlantirish huquqi haqida batafsil ma‘lumot beradi va ushbu vazifalarni bajarish uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Mantiqan o‘ylab qaralsa, inson hayotining har lahzasi axborot olish, axborot berish, axborotni idrok etish, axborotni tahlil qilish, axborotni qiyoslashdan iboratligi, yangi va aniq axborotsiz boshqaruv faoliyatining mazmuni yo‘qligini his etish mumkin.

Muloqot inson hayotida eng muhim jarayondir. Rahbar bilan xodimlar orasidagi muloqot rahbarlarning o‘zaro muloqotidan farq qilishi tabiiy. Xodimlar bilan bo‘ladigan muloqotlar samarali bo‘lishi rahbarning nutq mahoratiga ham bog‘liqdir. Rahbar faoliyatining asosiy qismini muloqot jarayoni tashkil etar ekan, qabul qilinayotgan farmoyish yoki qarorlarning ijrosini to‘la ta‘minlash, xodimlar va tashkilot faoliyatining tashkil etilishi, nazorat va xodimlar faoliyatini rag‘batlantirish jarayonlari ham albatta muloqot orqali amalga oshadi. Muloqotni

mohirona olib boruvchi rahbarda o'z vazifalarini samarali tarzda tashkil etish imkoniyati yuksalib boradi. Xodimlarga ta'sir etish, ularga mehnat faoliyatida g'ayrat bag'ishlash, tashkilot maqsadi sari yetaklash kabi tashkiliy vazifalar ham malakali muloqot orqali ta'minlanadi.

Shunday tezkor jarayonda yoshlar o'rtasida kommunikativ muloqotni faollashtirish, kommunikativ kompetentlikni shakllantirish muhim natija beradi.

Inson yaratilganidan boshlab nutq, fikr, ishora, harakat orqali o'zining muloqotga kirishish tabiatini namoyon etdi. Hozirda aloqa o'rnatish vositalari rang-barang bo'lib borayotgani sari "kommunikatsiya" ham turli nazariy qarashlardan aniqlanib, mazmun-mohiyatini kengaytirib bormoqda.

Shunday murakkab bir jarayonda yoshlar o'rtasida madaniy kompetentlikni shakllantirish, izchil kasbiy kompetentlikni yo'lga qo'yish muhimdir. "Kompetentlik" (inglizcha "competence" – qobiliyat ma'nosini anglatadi) – faoliyatda nazariy bilimlardan foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish ma'nosini bildirib, psixologik nuqtai nazardan vaziyatlar, kutilmagan hollarda yoshlarning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'shlumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi xulosalar qilishda yordam beradi. Bu borada yoshlar bilim, ko'nikma malakalarini to'g'ri yo'naltira bilishlari kerak.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining amalda joriy etilishi borasida talabalarga bir muncha qulaylik, imkoniyatlar berayotgani va yoki bilim olishning hammabopligini yoki saralangan talabalar bilimi sifatini oshirishga yordam berishi shubhasiz.

Bu borada yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning sifat jihatlariga quyidagilar kiradi:

-bugungi kunda ustoz va talabaning muloqotini, ilm olishini virtual seminar va laboratoriya ishlari tartibida olib borilishi o'quv mashg'ulotining yangi shaklini bildiradi.

-internet tarmog'idan, boshqa telekommunikatsiya vositalari yordamida uzatilgan videodarslar, videoloyihalarning videodisklar orqali ifodalanib darsni tashkil etish esa axborot uzatishning yangi, innovatsion shakli sirasiga kiradi.

Talabalarga zamonaviy axborot-kommunikatsion vositalar yordamida ta'lim :

- talabalarning erkin va mustaqil fikrlashlari uchun zamin yaratadi;
- madaniyat va san'at sohasiga doir ijodkorlik muhitiga yo'naltiradi ;
- talaba egallagan bilim va ko'nikmalarni hayotga tadbiq etishga turtki beradi.

Muhimi, oliy ta'lim dargohlarida ham, kollej, litsey, maktablarda ham joriy etilgan zamonaviy axborot texnologiyalarning afzal tomonlari juda ko'p.

Axborot-texnika taraqqiyoti zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanish, barkamol avlodgasifatli ta'lim berish, erkin muloqot qila olishlari uchun bor imkoniyatlarni ishga solish, xalqaro hamkorlik va doimiy muloqotni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish, elektron kutubxonalaridagi adabiyotlar ta'lim talabalarlarning bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun xizmat qilishdan tashqari, axborotlarning elektron ko'rinishlaridan keng foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda. Va shubhasiz, axborot texnologiyalaridan foydalanish – xorijiy ta'lim jarayonlarini, xorijiy tillarni o'rganishda qo'l keladi.

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jihatdan qanchalik taraqqiy etmasin, har bir tarixiy davr inson ma'naviy-ma'rifiy kamoloti, yoshlar tarbiyasi borasida yangidan –yangi, murakkab masalalarni ko'ndalang qo'yaveradi. Globallashuv jarayonida mazkur masala yanada keskin tus olmoqda. Insoniyat paydo bo'libdiki, bu muammo barcha davrlarda olimu fuzalo, faylasuf va siyosatshunos, tarbiyachi va murabbiylar diqqat iarkazida bo'lib kelmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Boshqaruv faoliyatida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rnini aytib bering.
2. Masofaviy ta'lim nima?
3. Madaniyat va san'at sohasida internetning o'ri.
4. "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi Prezident Farmoni mazmun-mohiyati qanday?
5. Axborot bilan ta'minlash deganda nimalarni tushunasiz?
6. Teskari aloqa tizimi nimalarni anglatadi?
7. Rahbarning axborot bilan ishlashi qay tarzda amalga oshiriladi?
8. Siz axborot kommunikatsion texnologiyalarni qay darajada egallagansiz?

2.6. BOSHQARUVDA “JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR” TEKNOLOGIYALARI

REJA

1. Boshqaruv texnologiyalarida demokratik tamoyillar.
2. “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyasining qo‘llanishi.

Jamiyatni demokratlashtirish, davlat idoralari bilan hamkorlikda xalqning fikr-mulohazalari, tavsiyalari bilan ish yuritish bugungi kunda davlatimiz siyosatining muhim bosqichlariga aylandi. Barcha sohalarda ham xalq bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qarorlar qabul qilinishi “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ezgu g‘oya boshqaruv faoliyatining asosiy mezoniga aylanganining ifodasidir.

Xalq bilan muloqot, xalqning turmush tarzi, farovonligini oshirishga to‘siq bo‘layotgan muammolarni joyida yechish, oshkoralikka asoslanib faoliyat ko‘rsatish borasida mutlaqo yangi tizim yaratildi.

Bu tizimning asosi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashning o‘ziga xos demokratik instituti sifatida amalda o‘zini oqlamoqda.¹⁵

Hozirgi zamonda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari boshqaruv faoliyatida xususan madaniyat va san’at sohasini boshqaruv sohasida ham keng qo‘llanilmoqda. Barcha taraqqiy etgan davlatlarda qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlari o‘z faoliyatida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini amaliyotda qo‘llashi ma’lum. Bu borada xalq bilan davlat hokimiyatining chambarchas aloqasi muhim qonunlar, farmoyishlar chiqarishda muhim ahamiyatga egadir.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. Toshkent. O‘zbekiston. 2018. 5b.

Mazkur texnologiya har bir tashkilot haqida jamoatchilikda yaxshi tasavvur uyg'otish, jamoatchilikning fikr-mulohazalari, jamoatchilikning fikrini shakllantirish borasida boshqaruv faoliyatida katta samara beradi. Jamoatchilikning fikri mazkur texnologiya asosida mahalliy, markaziy ommaviy axborot vositalari yordamida e'lon qilinadi.

«Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari axborot texnologiyalarining o'ziga xos turi bo'lib, haqiqatga asoslangan jamoatchilik o'rtasida erkin muhokama qilish imkoniyatini beruvchi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur texnologiya davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar bilan aloqalar olib borishda, ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarni mustahkamlashda, axborot yetkazish va uni auditoriya tomonidan qabul qilinishini boshqarishda, axborot markazlaridagi kadrlar bilan ishlashda, jamoatchilik tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarda, homiyilar bilan yaqin aloqalarni ta'minlashda, ko'rgazmali, tanishtiruvchi tadbirlar o'tkazishda, inqirozli vaziyatlarni boshqarishda va boshqa paytlarda foydalanish mumkin. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining bu yo'nalishlari o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Bunday yo'nalishlarga axborot berish, axborot uzatish jarayonlarini boshqarish, har bir informatsion loyihaning o'ziga xos jihatlarini o'rganish, standartlashtirilgan vazifalarni amalga oshirishda ijodiy yondashish imkonini beradi. Umuman, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari axborot yetkazuvchining maqsadini o'zida ifoda etsa-da, bu axborotlarni kishilar ongiga tiqishtirmaydi, balki yangi g'oyalar bilan kishilar e'tiborini o'ziga jalb qiladi, ularning manfaatlari bilan ham hisoblashadi.

Boshqaruv faoliyatida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining qo'llanishi quyidagi **vazifalarni** amalga oshirishga xizmat qiladi:

- Boshqaruv faoliyati haqida axborot yetkazish;
- boshqaruv faoliyatida tashkilotning ijobiy qiyofasini yaratish.

Bu quyidagi misolda aks etadi. Masalan, O‘zbekiston davlat san’at muzeyi haqida axborot berish uchun muzey eksponatlari, yangi innovatsion yangiliklar, muzey xodimlari haqidagi ma’lumot, muzeyga tashrif buyuruvchilarning istak-hohishlari, qaysi asarlar va mualliflarning ijodiy ishlarigi ehtiyoj borligi hisobga olinadi. Natijada muzey ishi muzey ixlosmandlarining ko‘ngliga yoqadigan va qiziqarli asarlar-eksponatlar bilan to‘ldirilishiga erishiladi.

Bir necha yillar davomida O‘zbek Milliy teatrida Chingiz Aytmatovning «Oq kema» asari sahnalashtirilgan bo‘lsa-da, tomoshabinlar bu spektaklda tinimsiz olqishlar bilan aktyorlarni qabul qilishaveradi. Tomoshabinning fikri so‘ralganda sharqona tarbiya, insoniylik va yuksak miliy qadriyatlarning yorqin ifodasi hisoblanmish bu spektaklga ixloslari haqida o‘zgacha mehr bilan gapiradilar.

Shunday qilib, “Jamoatchilik bilan aloqalar” – madaniyat va san’at sohasida boshqaruvning alohida vazifasi bo‘lib:

- sohaga oid muammolarni hal qilish jarayonida davlat va jamiyat , nodavlat tashkilotlar o‘rtasidagi ijodkorlik muhitini yaratish (masalan Madaniyat vazirligi bilan Kompozitorlar uyushmasi hamkorligida);

- madaniyat va san’at ixlosmandlarining sohaga oid muammo haqidagi fikrlarini o‘rganish va o‘rganishlarga binoan harakat qilish (vohaga oid konsert dasturlari o‘zgacha, vodiya oid sahna asarlari o‘zgacha mazmun kasb etishi);

- rahbarlarning bo‘ysunuvchi xodimlar bilan birgalikda xalq fikri va hohishiga ko‘ra yangi dasturlar tayyorlashga undash;

- mamalakatda madaniyat va san’at sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga bo‘lgan qiziqish va safarbarlikni oshirish;

- yoshlar va o‘sib kelayotgan yosh avlodni “ommaviy madaniyat” immunitetidan ogoh qilish, turli yot oqimlarga kirib ketishlarining oldini olish maqsadida ko‘rsatilayotgan kinofilmlar, namoyish qilinayotgan spektakllar va

sahna ko‘rinishlarini sodda va jo‘n tilda ular onggiga singdirish ham mana shu aloqalarning ajralmas qismiga kiradi.

Ko‘rinadiki , «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari har sohada olib borilayotgan shiddatli islohotlarning izchil mexanizmi sifatida davlat boshqaruvining muhim bo‘g‘ini, dini, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy jamiyatimiz har bir a’zosining mulohazalari va manfaatlarini himoya qiluvchi manba sifatida ular orasida o‘zaro bahamjihatlikni ham ta’minlaydi.

Har bir tashkilot jamoatchilik tomonidan nazorat qilinmas ekan, davlat organlari jamiyatni boshqarishda qanday uslub va vositalardan foydalanishi oshkoralikka asoslanmasa jamoatchilikka oshkor etilmasa jamiyatda demokratik qadriyatlarga putur yetishi muqarrardir. Aynan shu sabab tufayli boshqaruv faoliyatining jamoatchilik bilan hamkorligi katta samaralar beradi.

Madaniyat va san’at sohasi muassasalarida asosan ijodkorlar faoliyat yuritadi. Umrining asosiy qismini ijodga, yaratish va hayrat asarlarini xalqqa manzur qilish maqsadida mehnat qilayotgan mutaxassislar bir konsert, bir musiqiy dastur, bir spektakl yoki kino asari, hunarmandchilik yoki amaliy san’at asari bilan Vatanimizda olib borilayotgan “Inson manfaatlari har narsadan ulug‘” degan g‘oyani nihoyatda topqirlik bilan yurtdoshlarimiz onggiga joylashtirib qo‘yadilar. Shuning uchun ham yaxshi asar elning olqishiga sazovor bo‘ladi, mana shu jihat ham jamoatchilik nazorati va jamoatchilik e’tirofining natijasidir.

Demokratiya sharoitida jamoatchilik fikriga tayanmay turib, muhim qarorlarni qabul qilishda ularning qo‘llab-quvvatlashiga erishmay turib, boshqaruv faoliyati o‘z vazifalarini samarali bajara olmaydi. Harakatlar strategiyasining asoslaridan biri- har bir zamonaviy rahbarning o‘z hududida vaqti-vaqti bilan hisobot berishini tashkil etilishi boshqaruv faoliyatida keskin burilish yasadi.

Bu borada xalqning farovonligi va buyuk maqsadlar sari dadil harakatlarida oshkoralikning, jamoatchilikning say-harakatlari naqadar zarur ekanini mamlakat

rahbari Shavkat Mirziyoyev “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan purhikmat g‘oya orqali barcha nutqlarida aytib o‘tmoqda.

“Prezident portal”, “Parlament nazorati”, “Xalq qabulxonalari”, “elektron hukumat”, “virtual qabulxona”, “yo‘l xaritasi” kabi terminlarning el-yurt orasida ko‘plab ishlatilishi, mamlakatda istiqomat qilayotgan har bir oilaning ahvolidan xabar olinishi, Oliy Majlis deputatlaridan tortib viloyat, shahar, tuman kengashi deputatlarigacha o‘zlariga biriktirilgan hududlar fuqarolarining qiziqishlariga, ijtimoiy- iqtisodiy ehtiyojlariga yordam berish uchun bel bog‘laganlari ham Prezident boshlagan jamoatchilik bilan ishlash, xalqning yuragiga yo‘l topish borasidagi amaliy harakatlardir.

Joylarda xalq bilan muloqot boshqaruv idoralari va elu yurt, jamiyat bilan hamkorligining yangicha, o‘ziga xos “adolat maktabi” bo‘ldi. Bu maktabning aniq va tizimli faoliyati yurtdoshlarimiz dardu tashvishlari, turmush darajalari, yashash tarzlari ehtiyojlarini aniqlab, boshqaruv rahbarlarini ana shu ehtiyojlarni qoplash borasidagi izlanishlari, faoliyatlari mezonlariga aylantirildi. Davlat rahbarining ushbu muloqot jarayonida odamlarning arzini eshitish, oddiy xalq vakillarining tavsiyalari, takliflarini inobatga olish va hukumat dasturlarida bundan foydalanish borasidagi takliflari ham o‘rinlidir.

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, «o‘zaro hamjihatlikni ta’minlash», «ikki tomonlama aloqani yo‘lga qo‘yish», «jamoatchilikning ishonchini qozonish» kabi xususiyatlar jamoatchilik bilan aloqalardagi vosita hisoblanadi. “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarining asl maqsadi esa boshqaruvni professional ravishda yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Shunday qilib, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining mohiyati quyidagilardan iborat:

- boshqaruv idoralari (hokimiyat, tashkilot) bilan jamoatchilik o‘rtasidagi muloqotlarda hamjihatlik yaratadi ;

- har bir sohada “Jamoatchilik bilan aloqalar” kishilar ongiga, jamoatchilik fikriga ta’sir ko’rsatish texnologiyasi hisoblanadi;
- “Jamoatchilik bilan aloqalar” jamoatchilik bilan doimiy muloqot o’rnatish maqsadida ma’lumot va dalillar to’plash, ularni tahlil qilish, axborotni kishilarga ta’sirchan tarzda yetkazish kabi vazifalarni amalga oshiradi;
- «Jamoatchilik bilan aloqalar» xizmatining asosiy vazifasi davlat dasturlarini amalga oshirishda, boshqaruv faoliyatida qarorlar qabul qilish borasida da tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat;

Boshqaruv faoliyatida “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyasi muqobillik asosida, oshkoralik asosida tashkilotning turdosh sohalari bilan ham hamorlik qilishiga asos yaratadi.

Yuqorida aytilganidek, mazkur texnologiya muayyan tashkilot bilan jamoatchilik o’rtasida demokratik muloqotni yo’lga qo’yishda ommaviy axborot vositalarining o’rni beqiyos. Muammoning yechimini topish, samarali natijaga erishish, qabul qilinayotgan qarorlar, ularning ijrosini ta’minlash muammolari haqida jamoatchilikni boxabar etishda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalaniladi. Shu sababdan ham demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari bilan siyosiy institutlarning hamkorlikda amal qilishi ommaviy axborot vositalarining «to’rtinchi hokimiyat» deb atalishiga asos bo’ladi. Ommaviy axborot vositalari madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini kuzatib borish, zarur bo’lsa, ularni nazorat qilish imkonini beradi.

Masalan, Oliy Majlis deputatligiga birdaniga to’rt partiyadan O’zbekiston Liberal Demokratik partiyasi, “Milliy tiklanish”, Xalq demokratik partiyasi, “Adolat” partiyasi va Ekologik harakat tashabbuskorlar guruhidan nomzodlar beriladi. Bir necha oy davomida nomzodlarning dasturlari ommaviy axborot manbalarida tinimsiz e’lon qilinadi, har bir nomzodga bir xil e’fir vaqti, gazetalarda bir xil imkoniyatlar, hudud saylovchilari bilan bir xil, teng sharoitlarda uchrashuv imkoniyatlari ajratiladi. Xalq ularning bilimi, dunyoqarashi, ertangi

kunda saylanadigan bo'lsa olib borishi mumkin bo'lgan tashabbuskorligi va g'ayrati orqali qilinajak amaliy harakatlariga qarab baho beradi va pirovardida eng ko'p xalqqa xizmati tegadigan nomzod ko'p ovoz oladi.

Yoki boshqacha tasvirlaymiz. O'zbekiston Kinoarboblari ijodiy uyushmasining tashabbusi bilan o'tkaziladigan "Oltin xumo" milliy kino mukofotiga taqdim etilgan eng yaxshi filmlar "Nazira", "Sabot", "Issiq non", "Islomxo'ja", "Elparvar" kinokartinalari avval kinoixlosmandlar orasida bo'lib o'tgan so'rovnomalarga ko'ra eng sarasi tanlanadi va xalqqa e'lon qilinadi. Tomoshabin olqishiga sazovor bo'lgan ssenariy mualliflari, mohir rejissyorlar, usta operatorlar va ularning mehnatini yuzaga chiqarishda asosiy rol o'ynaydigan, voqealar rivojini haqqoniy va hayotiy yuzaga chiqaradigan fidoyi aktyorlar mehnatining natijasini jamoatchilik, ya'ni xalq saralab beradi. Shu o'rinda "Eng yaxshi ayol roli" nominatsiyasining "Issiq non" filmidagi Zarina Ergasheva, "Nazira" filmidagi Shodiya Abduqodirova, "Nazira" filmidagi Muyassar Berdiqulova, "Sarvqomat dilbarim" filmidagi Madina Talibbek, "Hamroh" filmidagi Yulduz Rajabovalarning qay birlariga nasib etishini ham jamoatchilik bahosi aniqlab beradi. Bu borada ularning mahoratlarini tinimsiz targ'ib qilgan ommaviy axborot vositalarining ham roli katta.

Mazkur texnologiyani amalga oshirishda axborot vositalarining o'rniga to'xtalib o'tamiz.

-madaniyat va san'at sohasining targ'ibot ishlarida masalan, internetda "Madaniyat yangiliklari", "Madaniyat.o'z" kanallari, televideniya "Madaniyat va ma'rifat" kanali, radio orqali "Madaniyat kundaligi", "San'atimiz fidoyilari" singari axborot vositalari jamoatchilik fikrini tomoshabinlar va o'quvchilarga yetkazadi.

- zamon qahramonlari obrazlarini yaratish borasidagi madaniyat va san'at mutaxassislarining, ijodkorlarning faoliyatini "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi so'rovnomalari orqali aniqlab beradi.

- ma'lum bir tadbir, masalan "Xalqaro maqom san'ati anjumani"ning yorqin iste'dodlarni kashf etish, aniqlash, saralash, taqdirlash, e'tirof etish masalalarini esa reja asosida ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinadi.(albatta bunda ham jamoatchilikning fikri inobatga olinadi).

-ba'zi holatlarda jamoatchilik fikrini o'rganish ko'p salbiy holatlarning oldini olishga ham xizmat qiladi (masalan, xorij qo'shiqchisining behayolikni, zo'ravonlikni targ'ib qiladigan qo'shiqlari ma'nosini tushunmay ijro etish);

Boshqaruv faoliyatida "Jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyalari quyidagi holatlarda foydalaniladi:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti misolida ko'rib chiqamiz.

- 1) Institutdagi mavjud vaziyat (mutaxassisliklar, bakalavriat va magistratura yo'nalishlari, fakultetlar, sirtqi va maxsus sirtqi bo'lim va hokazo);
- 2) Institutdagi ijodiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar (yaratilayotgan yangi spektakllar, yangi bastalangan kuy, qo'shiqlar, suratga olinayotgan filmlar va hokazo);
- 3) Milliy madaniyat va san'at taraqqiyoti yo'lida institutda olib borilayotgan amaliy ishlarni sotsiologik so'rovnoma orqali aniqlash;
- 4) yakuniy xulosalar yasash (respublika maktablari bitiruvchilari-san'at ixlosmandlarining necha foizi institutda tahsil olishga qiziqishi).

Natija esa ko'p kuttirmaydi. Ijodiy faoliyatini institut bilan bog'lamoqchi bo'lgan yoshlar ijodiy imtihonlarda o'z qobiliyatlari va bilimlarini sinab ko'rishlari mumkin.

Boshqaruv faoliyatida "Jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyasi so'rovnomalari muammolarni yechishda xalqning faolligi, qo'yiladigan masala borasida xolisona qarashlari, kayfiyatlari, munosabatlari darajalariga ham bog'liqligi yuqoridagi misollarda batafsil keltirildi.

Har bir so‘rovnomada tashkilotdagi vaziyatni chuqur tahlil qilish, shunga asosan zaruriy xulosalar chiqarish, amaldagi muammoni hal qilishda alohida strategik dastur yoki rejaga asoslanish, amaliyotda natijalarga e‘tibor berish orqali samaradorlikka erishiladi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, jamoatchilik fikriga qarab muammolarni o‘rganish jarayoniga aniqlik kiritish, maqsadlarga yetishning bir necha xilidan asosiysini, o‘ziga xosini tanlab olish, bu borada muhim manbalarni yig‘ish, manbalar asosida nazoratga suyanib, natijani qo‘lga kiritish.

Mamlakatimizning davlat boshqaruv idoralari yonida ular bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotgan O‘zbekiston Kasab Uyushmalari Federatsiyasi, Xotinqizlar qo‘mitasi, “Nuroni” jamg‘armasi, “Mahalla” jamoat fondi singari qator jamoat tashkilotlari borki, bu jamoat tashkilotlari har bir yil uchun tayyorlanadigan Davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini xalqqa yetkazishda albatta jamoatchilik fikrini yig‘adilar, tahlil qiladilar va albatta dasturga ushbu mulohazalarga asoslangan tavsiyalarini kiritishga muvaffaq bo‘ladilar.

Xulosa shuki, “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyasi boshqaruv faoliyatida jamiyatning muammolarini topish, muammolarning yechimlarini izlash, maqbul qarorlar qabul qilish, qarorlar ijrosi va nazoratini xalq farovonligi yo‘lidagi islohotlarda amalga oshirishdan iboratdir.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” nomli birinchi bo‘limida xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgani demokratik tamoyillarning aniq ravshan ifodasidir.

Nazorat uchun savollar

1. “Jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalari” deganda nimani tushunasiz?
2. Mazkur texnologiyalarning vazifasi nimalardan iborat?
3. Madaniyat va san’at sohasida mazkur texnologiyalardan qanday foydalaniladi?
4. “Jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalari”da axborot vositalarining roli nimalardan iborat?
5. Jamoatchilik nazorati nima?
6. Harakatlar strategiyasida jamoatchilik nazoratiga qanday ta’rif berilgan?
7. “Xalq qabulxonalari” faoliyatidan xabardormisiz?
8. “Parlament nazorati” qay tartibda jamoatchilik bilan ishlashda qo‘l keladi?

2.7. ZAMONAVIY RAHBAR SHAXSI

REJA

1. Zamonaviy rahbarlarga qo‘yiladigan talablar.
2. Zamonaviy rahbar qiyofasi.
3. Madaniyat va san’at sohasi boshqaruvi rahbarlarning vazifalari.

Hozirgi tezkor zamonda rahbar mas’uliyati, rahbar xislatlari haqida gap ketganda avvalo zamonaviy rahbarning bilimi, tajribasi, vazifasiga loyiqligi, tajribasi, yangilikka intiluvchanligi, jamoa bilan ahilligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Har qanday boshqaruv faoliyati muayyan hududda istiqomat qilayotgan xalq va millatning ma’naviy fazilatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Rahbarlarning amaliy va shaxsiy sifatlari, ularga qo‘yiladigan talablar bundan necha ming yillar ham o‘rganilgan, e’tirof etilgan.

Xitoylik mashhur faylasuf va mutafakkir Konfusiy pok insonda besh xislat mujassam bo'lsa, u haqiqiy hurmat va e'tiborga ega bo'lishini shunday ta'kidlagan:¹⁶

1. Odamlarga muhabbat, mehribonlik, insonparvarlik. Inson o'zidan o'zini topadi, o'zi axloqiy burchini anglamay turib, o'zini anglay olmaydi. Insonning o'ziga bo'lgan hurmati o'zgalarga bo'lgan hurmatining ifodasidir.

2. Haqiqat va adolat. Yaxshilikning mukofoti yaxshilik ekanini to'g'ri anglash va targ'ib etish. Haq so'z va haq amal hamisha g'olib. Adolatli odamning yuzi yorug' bo'ladi, ishida unum va baraka bo'ladi deb hisoblaydi mutafakkir.

3. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarga sodiqlik. Mutafakkirning fikricha o'zaro hamjihatlik va hurmat e'tiborni, faqat o'z mentalitetiga xos urf-odat, an'analarning yashovchanligiga xizmat qilish.

4. Sog'lom fikr, donolik, oqillik, o'z hatti-harakati oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, o'ziga chetdan qarash va baho bera olish. Hamisha o'ziga nisbatan talabchan va mas'uliyatli bo'lish.

5. Samimiyat, pok niyat, hur fikr, saxiylik va vijdonlilik. Ko'ngildagi niyatning so'zda ifoda topishi, yurakdagi tilakning amalda isbotlanishi, hammaga birdek ochiq ko'ngil bilan munosabatda bo'lish (odam ajratmaslik), imkon darajasida, qo'ldan keladigan hurmat va yaxshilikni umrning mazmuni deb hisoblash har bir ziyoli insonning hayot tarziga aylanishi hozirgi rahbarlar oldidagi vazifa ekani bor gap.

Jamoani boshqarar ekan, rahbar jamoaning mehnatga va mehnat samaradorligiga munosabatini oshirish, oldinga qo'yilgan maqsadlarni aniq bajarilishiga ruhan tayyorlash, ruhlantirish masalalariga e'tibor qaratadi. Tajribali rahbarlar yuksak malaka talabalariga ega, boshqaruvning samarali usullarini topdagina, innovatsion g'oyalarni amalda qo'llay oladigan, shaxsiy tartib-intizomni, yuqori bilim darajasini doimo oshirib turadigan, har qanday vazifaning katta-kichikligiga qaramay vijdonan va mas'uliyat bilan yondoshadigan, axborot-kommunikatsion texnologiyaning, xorijiy tajribalarning sohaga oid tomonlarini amaliyot qo'llay oladigan ziyoli insonlardir.

¹⁶ Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar. Toshkent. "Yangi asr avlodi", 2016, 9b.

Yana bir ulug‘ alloma, qomusiy olim, ilmu fan rivojiga qo‘shgan hissasi uchun “al-Muallim as-soniy” (“Ikkinchi muallim”), “Sharq Arastusi” nomiga musharraf bo‘lgan Abu Nasr Forobiy esa rahbar bo‘lishning ikki shartini shunday izohlaydi:

1. Inson tabiatida rahbarlik qilish qobiliyati (ma’naviy va aqliy yetuklik) bo‘lishi zarur.

2. Bunday odam yuqori mavqei, insoniy fazilatlarini, qobiliyatlari bilan xalq orasida hurmat qozongan bo‘lishi zarur. Rahbarlik sohasida tajriba orttirish ham muhim¹⁷.

Rahbarlik san’ati shundayki, rahbarga boshqa san’at egalari ham bo‘ysunadilar. Boshqa san’at-hunarlarining maqsadlari shahar-davlat rahbarining maqsadi uchun xizmat qilishdan iboratdir. Rahbar esa aqliy quvvati va tasavvur quvvati jihatidan har tomonlama kamol topgan, eng yetuk odam bo‘lishi zarur. Uning ta’sirchan aqli barcha sohalarning mazmun-mohiyatini to‘la-to‘kis bilishi kerak.¹⁸

Mutafakkir rahbarning asl qiyofasini hokim misolida talqin etadi. Bizningcha, bu xislatlar har qaysi bo‘g‘in rahbarlari uchun taalluqlidir.

Rahbarning to‘rt muchasi sog‘-salomat bo‘lib, o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarishda biror a’zosidagi nuqson xalal bermasligi lozim.

Ikkinchidan u tabiatan nozik farosatli bo‘lib, suhbatdoshining so‘zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg‘ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur.

Uchinchidan, quvvai hofiza, u anglagan, ko‘rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to‘la-to‘kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarini unutmasligi zarur.

¹⁷ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 243 b.

¹⁸ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 244b.

To‘rtinchidan, u zehni o‘tkir, zukko bo‘lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va u alomatlar nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur.

Beshinchidan, u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida fasohatli ifodalay olishi zarur.

Oltinchidan, u ustozlardan ta‘lim olishi, bilim, ma‘rifatga havasli bo‘lishi, o‘qish, o‘rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo‘lishi zarur¹⁹.

Yettinchidan, taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha o‘zini tiya oladigan bo‘lishi zarur.

Sakkizinchidan, u haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan bo‘lishi zarur.

To‘qqizinchidan, u o‘z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo‘lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug‘ma olihimmat bo‘lishi, ulug‘, oliy ishlarga intilishi zarur.

O‘ninchidan, bu dunyo mollariga qiziqmaydigan, mol-dunyo ketidan quvmaydigan bo‘lishi kerak.

O‘n birinchidan, tabiatan adolatparvar bo‘lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko‘ruvchi, o‘z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga yordam beruvchi, barchaga yaxshilikni va o‘zi sevgan go‘zalliklarni ravo ko‘ruvchi bo‘lishi zarur. O‘zi haq ish oldida o‘jarlik qilmay, odil ish tutgani holda, har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo‘lishi zarur.

¹⁹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 245 b.

O‘n ikkinchidan, o‘zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi, qo‘rqollik va hadiksirashlarga yo‘l qo‘ymasligi zarur.²⁰

Uzoqni ko‘radigan, bilimli, salohiyatli, xalqparvar rahbar to‘g‘risidagi adolatli va samimiy fikrlar talabchan rahbarlar uchun tavsiyanomadek hamma zamonlarda ham qimmatli bo‘lib kelgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Amir Temur bobomizning “Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin!” degan chuqur ma’noli so‘zlari har birimiz uchun hayotiy e’tiqodga aylanishi zarur”. “Rahbarlarning faoliyati ijobiy bo‘lsa, xalq ulardan rozi bo‘lsa, rahmat deymiz, aksi bo‘lsa – biz bunday rahbarlar bilan xayrlashamiz” deb aytgan purhikmat so‘zlaridan ham bilinadiki, jamoani, xalqni boshqarish uchun birinchi galdagi vazifa xalqning ko‘nglini topa bilishdir.

Hamisha izlanuvchan, xotirjam, innovatsion g‘oyalarga asoslanib ish ko‘radigan, tavakkalchilikdan qo‘rqmaydigan, doimo tashabbus ko‘rsatadigan faoliyatda bo‘lsagina boshqalarga namuna bo‘la oladi. Mas’uliyat va javobgarlikdan qo‘rqadigan rahbarlarning ishida unum bo‘lishi dargumon.

Halol mehnat bilan topilgan obru e’tibor, ish faoliyatida ham, oilaviy tomondan ham boshqalarga o‘rnak bo‘lish orqali topiladi. Va’dasida turmoqlik, mehnatu ijodda (madaniyat va san’at sohasida bu juda muhim) boshqalarga nisbatan ko‘proq natijalarga erishgan xodimlarga nisbatan e’tiborli bo‘lish rahbarlikning ziynati hisoblanadi.

Tajribalardan ma’lumki, jamoada ko‘p ishlagan insonlar ustoz qatorida tashkilot manfaati uchun boshqalarga ko‘p xislatlarni o‘rgatadilar, o‘zlari ham yoshlari bir joyga borib qolgan bo‘lsa ham, hammaga kasb-hunarlarini sirlarini “yuqtirish”ga

²⁰ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 246 b.

harakat qiladilar. Bunday insonlar hatto rahbarlardan ham ko‘proq intuitiv ko‘ra bilish orqali har qanday ishning samarasini aytib bera oladilar. Shuning uchun ham boshqaruv faoliyatida boshqa texnologiyalar qatorida “ustoz-shogird” texnologiyalarini ham qo‘llash o‘rinli.

Davlatimiz rahbari bu haqda shunday deydilar: “Buyuk mutafakkir Yusuf Hos Hojib aytganlaridek, “Dunyoda ikki turli inson haqiqiy inson sanaladi: Biri- o‘rgatuvchi, biri- o‘rganuvchi.” Men sizlarning har biringizga ana shunday haqiqiy inson bo‘lish baxti nasib etishini tilayman”.²¹

Chinakam obru topmay, tashkilotni muvaffaqiyatli boshqarib bo‘lmaydi. Haqiqiy obruga faqat shaxsiy namuna orqali erishish mumkin. Shu o‘rinda shaxsiy tashabbuskorlikning, adolatli talabchanlikning, qat’iy tartib-intizomning, maslahatlashuvda odillikning, bilim va ko‘nikmaning o‘rni beqiyos. Har bir rahbarning haqiqiy “men”i, tashkilotning nufuzi ko‘rsatkichlarda aks etganidek, ish uslubi ham qolgan o‘rinbosarlar, bo‘lim boshliqlari faoliyatida ko‘rinadi. Haqiqiy timsol bo‘lishning yo‘li- boshqalarga mehnatu ijodda, shaxsiy hayotda xodimlar ko‘z oldida oddiy va kamtar ko‘rinmoq, ularning ishlatish imkoni bo‘lsa ishlatiladigan tavsiyalarini so‘ramoqdan iboratdir.

Boshqaruv jarayoni madaniyati, mehnat sharoiti madaniyati, tashkilotda hujjat va ish yuritish madaniyati, rahbariyatdan tortib oddiy xodimlarning madaniyat darajasigacha bo‘lgan jarayonlar boshqaruv madaniyatini shakllantiradi. Madaniyat va san’at sohasida boshqaruv madaniyati har bir tashkilot nizomida qayd etilganidek mehnat intizomi, xodimlarning o‘zaro muomala madaniyati, kiyinish va odrob madaniyatida ko‘zgu singari ko‘rinib turadi.

Insonning ichki madaniyati, xulq-atvori, o‘zini tutishi, muomala madaniyati tashkil etishi haqida yuqorida aytib o‘tildi. Rahbar uchun zaruriy xislat bu

²¹ Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T, “O‘zbekiston”, 2017, 10 b.

mas'uliyat bilan vazifani hal etishga qaratilgan ishonch. Iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar vaqtida o'z hamkorida ishonch uyg'otish, navbatdagi ishga kafolat berish, boz ustida uni uddalash zamonaviy rahbar uchun muhim fazilatdir. Bu jarayonda rahbarlik tadbirkorlik faoliyati bilan uyg'unlashib ketadi va ishonch tushunchasi markaziy o'ringa ko'tariladi.

Rahbarning, nafaqat obro'sini oshiradigan, balki qiyin vaziyatda uni asosiy maqsad yo'lidan yetaklaydigan fazilatlardan biri – mustaqillikdir. Rahbar o'z qarashi, mushohada layoqati va shaxsiy nuqtai nazariga egalikka intilishi lozim. To'g'ri, rahbar o'z hamkasblariga, shuningdek, o'rinbosarlari fikrlariga quloq tutishi kerak, lekin qaror va uning ijrosi birinchi shaxs zimmasidagi vazifa. Shu bois fikrlash va hatti-harakatdagi o'zini erkin tutishi samarali boshqaruvning asosiy omillaridan hisoblanadi. Ammo, bu erkinlik qaysarlik kayfiyatiga aylanmasligi lozim. Buning uchun rahbar doim o'z tashabbusini jamoa maqsadlari bilan uyg'unlashtirib borishi zarur.

Boshqaruvda rahbarning faoliyatini:

- jamoani aniq va to'g'ri maqsadga to'g'ri yo'naltirish;
- yangi g'oyalar, innovatsiyalar, tashabbuskorlikni oshirish;
- xodimlarni rag'batlantirish va motivatsiyani oshirish;
- vaqt va reglamentga doimiy amal qilish;
- tanqidni (agar u adolatli bo'lsa) og'rinmay qabul qilish va tanqidga nisbatan xulosa chiqarish belgilaydi.

Tadqiqotlarga ko'ra tajribali rahbarning kirishimlilik va masalani tez va oson hal qilishi, xarakteridagi hazilkashlik va hozirjavoblik ishga nihoyatda ijobiy ta'sir qilarkan. Chunki, xodimlarni qaysidir ma'noda ayab muomala qilish, bir og'iz so'z bilan ruhiyatlariga ta'sir qilish, yoki beg'araz hazillashib o'tib ketish ham xodimning toliqqanini yodidan chiqib ketishiga sabab bo'lar ekan. Yaxshi muomalaning yomon munosabatdan farqini hamma toifadagi rahbarlar yaxshi tushunishadi. Didsiz va madaniyatsiz rahbarlar esa aksincha, hajviy hikoyalarni

tushuntirayotganida ham, xodimlarni kulishiga yo‘l qo‘ymaydi, ularni jerkib, tartibni buzmaslikka chorlab turadilar, metin intizomni talab qiladilar. Jamoada quvnoqlik kayfiyati ishchanlik sifatlarini oshirishini tushungisi kelmagan rahbarlar hatto yengil hazilni ham hazm qilolmaydilar. Albatta bu jihatlar xodimlar va jamoaning ichki madaniyatiga ta’sir qilmay qolmaydi. Boshqaruvda rahbar madaniyatiga zid bo‘lgan ayrim holatlarni juda yaxshi bilamiz. Muassasa rahbarlari tomonidan san’at va madaniyat sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonini ilmiy-metodik asosda, yuqori samaradorlikka erishish, zamonaviy axborot texnologiyalarni ilg‘or va samarali usullarini qo‘llash ishlari yetarli darajada tashkil etilmayotganligi, rahbariyat tomonidan xodimlarning mehnatini baholash, ustama belgilash va rag‘batlantirishga adolatli, odilona yondasha olmayotganligi, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik, mahalliychilikka amal qilayotganligi, rahbari amaldagi meyoriy hujjatlarni yaxshi o‘zlashtira olmaganligi, faoliyatning har bir yo‘nalishida olib borilayotgan ishlardan to‘liq xabardor emasligi, bu borada uning bilimi, tajribasining yetarli emasligi, ijodiy va ijtimoiy faollik, g‘oyaviy-siyosiy talabga javob bermasligi. Rahbarlarda tadbirkorlik, ishbilarmonlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatlarining pastligi, fidoyilik, ta’sirchanlik, omilkorlik, ijodkorlik, bilimdonlik yetishmasligi kabi muammolar va kamchiliklar mavjudligi ham boshqaruv faoliyatining muammolari sanaladi.

Rahbar qachon el-yurt ishonchini, e’tiborini qozona oladi? Qachonki yuragi, qo‘li toza, ko‘ngli ochiq, aql va zakovat sohibi bo‘lsa, tabiatida qat’iyatlilik bilan bilim, talabchanlik bilan adolat uyg‘un bo‘lsa, u o‘zi boshqaradigan odamlarning g‘am-tashvishlarini o‘z qalbidan o‘tkazishga qodir bo‘ladi.

Rahbar:

- yuqori darajada tashkilotchi, tinim bilmas ijodkor, o‘ziga ishongan;
- tashabbuskor, ishbilarmon, omilkor;

- murakkab vaziyatlardan tez xulosa chiqaradigan, oqibatli va jamoani ortidan ergashтира oladigan, o'z ishining fidoyisi;
- boshqaruvda tejamkorlikka e'tiborli;
- birinchi navbatda va'dasini ustidan chiqadigan;

Boshqaruv va rahbarshunoslikda nizolarningsamarali, savodli hal qilinishi, jamoa faoliyatini samarali tashkil etish, o'zaro ishonch, g'urur hissini, ongli intizom, uyushqoqlikni tashkil etish masalalari ham mutaxassislar tomonidan ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Xodimlar muloqot madaniyatining shakllanishi, xodim bilan muloqot uslubini tahlil qilish, hamsuhbatni diqqat bilan tinglash, noverbal axborot yo'llaridan foydalanish, irodani tarbiyalash, shakllantirish borasida qator tavsiyalar mavjud.

Madaniyat va san'at muassasalarida jamoaning umumiy qadriyatleri, e'tiqodleri, tartib qoidalarining birligini shakllantirish, an'alarini saqlash, rivojlantirish, jamoaning yakdilligi va birligini ta'minlash albatta ijod qilishga, sohadagi yangiliklarni targ'ib etishga qaratilgan.

Rahbarlik rahbardan boshqarish madaniyatining qonuniyatlariga bo'ysunishni talab etadi. Boshqarish madaniyati o'z ichiga axloq, odob qoidalarini olishi kerak. Boshqarish madaniyatini takomillashtirish uning barcha elementlariga e'tiborni kuchaytirish demakdir. Rahbarning madaniyat darajasi – bu o'ta murakkab ko'rsatkich hisoblanadi. Hech kim rahbar bo'lib tug'ilmasligi barcha uchun tushunarli haqiqat. Rahbarning madaniyatli bo'lishi quyidagilarga bog'liq:

- oilaviy kelib chiqishi, ota-onasi, yaqin qarindosh-urug'lariga;
- yoshlikdan o'sib ulg'aygan muhiti, ya'ni yaqin kishilaridan, do'st-o'rtoqlari;
- ilmga, san'atga, adabiyotga qiziqishi;
- tabiatga, jonivorlarga munosabati;
- oilasiga, farzandlariga bo'lgan munosabatiga.

Madaniyat boshqaruv uslubining eng muhim majmuasidir. Demak, boshqarishni madaniyat, axloq normalariga bo'ysungan holda olib bormoq

kerak. Boshqaruv xizmati etikasi haqida rahbar o'z ishida axloq-odob qoidalarini muloyimlik, o'zaro yordam, hamjihatlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat va har bir jamoa a'zosiga nisbatan insoniylik, shaxs sifatida munosabat va shu kabi meyorlarga tayanadi va shu asosda ish olib borishi zarur bo'ladi. Shu bilan birga rahbarning ijtimoiy ahvoli uning o'ziga xos axloqini ham belgilaydi. Bu sifat rahbarning o'ta to'g'riligini ifodalaydi va uni yuqori tashkilot va idoralarga noto'g'ri axborotlar berishdan, qonun-qoidalarni buzishdan o'zini tiyadi. Yig'ilishlar o'tkazilayotgan vaqtda qatnashchilarga nisbatan muloyim bo'lish kerak, chunki odamlar bunday yig'ilishlarga maqbul boshqaruv qarorlarini yaratish uchun keladilar, bunday qarorlar esa birinchi navbatda, rahbar uchun o'ta muhim hisoblanadi. Boshqalarni sabr-toqat bilan eshitishga odatlanishimiz, so'zlovchilarning so'zini oxirigacha eshitishga harakat qilishimiz, xodimlarning faolligini takrorlashimiz kerak. Ko'pchilik oldida oddiy rahmat aytish yoki minnatdorchilik bildirish ba'zan moddiy taqdirlashdan ham afzal bo'lishi mumkin. Agar biror xodimni ishdagi nusonlar uchun jazolash lozim bo'lsa, rahbar albatta chegaradan chiqmasligi va qo'pol muomala qilmasligi kerak. So'z shaklini va jazo turini tanlashda jazolanuvchi xodimlarning yoshini, jinsini va harakatlarini inobatga olish kerak. Tanqid – xodimlarga katta va ta'sir ko'rsatuvchi vositadir. Shuning uchun ham uni kerakli vaziyatda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ishlatmoq kerak.

Jamiyat baxt-saodati yo'lida mehnat qilish jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligini ko'paytirish uchun xizmat qilishdir.

Rahbarga qo'yiladigan talablar:

- ma'naviy yetuklik;
- huquqiy yetuklik;
- axloqiy yetuklik;
- yuqori saviya va ong;
- ma'rifatlilik;
- madaniyatlilik;

- xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik;
- topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilishda halollik;
- shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlariga bo'ysundirishga qodirlik;
- xodimlarga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lish;
- tashabbus va ilg'orlikni qo'llab-quvvatlash qobiliyati;
- prinsipiallik;
- tanqidga chidamli bo'lish, o'z-o'zini tanqid qila bilish;

Intizomga va mehnatga bo'lgan munosabat:

- mehnatsevarlik;
- jamoada o'rtasida intizomni yo'lga qo'yabilish;
- atrofdagilarda mehnatsevarlikni tarbiyalay bilish;
- bir noshud rahbarning beg'amligi yuzlab, minglab kishilar taqdiriga bedaxl ta'sir etishi mumkin.

Bilim darajasi :

- iqtisodiyotni bilish;
- texnika va texnologiyani bilish;
- istiqbolni, ilmni funksiyalari va strukturasini bilish;

Tashkilotchilik qobiliyati:

- xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlay olish;
- qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgaish va tarbiyalashni bilish;
- jipslashgan jamoani vujudga keltira olish, maqsad sari intiluvchanlik;
- “yomon korxonada yoki tashkilot yo'q, lekin yomon rahbarlar bor”, Bu ibora shuni bildiradiki, yomon ishlab turgan korxonaga jamoani yaxshi boshqaradigan , tashkilotchilik qobiliyati yuqori, mehnatsevar, talabchan, bilimdon rahbar boshqarsa, u tashkilotni eng sara tashkilotlar sirasiga qo'shadi.

Boshqarish samaradorligini ta'minlay olish:

- boshqarishni kollegial tarzda tashkil qila olish qobiliyati;
- ish haqida qisqa va aniq gapirish va qobiliyati ishga oid xat, buyruq, farmoyishlar yoza bilish, turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati;
- rahbarlarni va qo'l ostidagilarni tinglay bilish qobiliyati;
- asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qila olish qobiliyati;
- boshqarish strukturasi takomillashtirib borish qobiliyati;
- rahbarning fazilatleri, xislatlarini belgilovchi mezonlar ko'p. Biroq quyidagi

ijobiy xislatlar alohida mavqega ega:

- dovyuraklik – bunday rahbarlarda mardonavorlik, botirlik, dadillik mavjud bo'ladi;
- bunday rahbarlar omadsizlikdan qo'rqmaydi. Qo'rquv ularni jasoratga chorlaydi va zafarlarga olib keladi. Har bir yangi harakatni taraqqiyotga va hayotiy tajribalarga erishtiradi.

Boshqaruv madaniyati va uning tashkilotchilik hamda boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'rni.

Boshqaruv tizimi deyilganda boshqaruv apparati va ular o'rtasidagi bog'lanish tushuniladi. Boshqaruv tizimining tarkibi bir-biri bilan bog'langan teng huquqli birliklar va bo'g'inlar tashkil qiladi. Har bir bo'lim o'z vazifasiga ega bo'lib, boshqariladigan vazifalar doirasini, uning faoliyat chegaralarini, vakolatlari va javobgarligini belgilaydi.

Xodimlar bilan muloqot

Boshqaruv madaniyatini amalga oshiruvchilar rahbarlardir. Ish beruvchi va ish yurituvchi o'rtasidagi kommunikatsion aloqa yaxshi yo'lga qo'yilmas ekan, albatta bunday sharoitda korxonada, tashkilot, muassasada ijobiy natijalarga erishib bo'lmaydi. Chunki bugungi tezkor rivojlanayotgan jamiyat insonlardan ma'naviy, estetik, axloqiylikni, bir so'z bilan aytganda intellektual tafakkurni talab etadi.

- Rahbarning jamoaga nisbatan madaniyatligi va xalqparvarligi, ya'ni;
- xodimlarga e'tibor va hurmat;

- xodimlarga xayrihoh va iltifotli bo‘lish;
- olijanoblik va beg‘arazlik, xolislik;
- xodimlarning qadr-qimmatiga yetish;
- fuqarolik va kasbiy burchini bajarish;
- odamlarga ishonch, xodimlarning o‘z qobiliyatiga bo‘lgan ishonchini qo‘llab-quvvatlay olish, uni shaxsiy kamchiliklarini bartaraf qilishga yo‘naltira bilish;
- yuqori nutq madaniyatiga ega bo‘lish va tashqi ko‘rinishdagi ozodaligi;

O‘zaro munosabatda quyidagi oddiy e‘tiqod qoidalariga rioya qilish:

- xushmuomalalik;
- sipolik;
- vazminlik;
- andishalilik;
- mehnat va do‘stlikdagi sherikchilikda o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash;
- hozirjavoblik va majburiylik, vazifani so‘zsiz bajarishlik;
- prinsipiiallik va ishonch;
- talabchanlik, rahbarning jamiyatga nisbatan talabchanligi;
- yuqori darajadagi vatanparvarlik va baynalminallik.
- kasb mohiyatiga asoslanib, rahbarlik lavozimiga o‘qitilayotgan shaxslarni psixologik tayyorlashning metodlari, shakllari, vositalari, metodikalari va prinsiplarini takomillashtirish;

Rahbar lavozimga tayyorlanuvchi shaxslar dastaval ularning oldilariga qo‘yiladigan talablar bilan tanishishi va o‘zidagi mukammallik, zaifliklari yuzasidan qat’iy qarorga kelishi lozim. Rahbar psixikasiga lavozim taqozo etuvchi talablar o‘z ichiga olgan uch xil turkumga taalluqli jabhalarni qamrab oladi: bilimga doir, emotsional his-tuyg‘u va irodaviy fazilatlar.

Bilish va bilish jarayoniga aloqador talablar quyidagilardan iborat:

- diqqat xususiyatlarini egallaganlik darajasi;
- sezgi va idrokning yuksak darajaga erishilganligi;
- tasavvuf obrazlari, vaqtni payqash uquvi;

-tasavvur obrazlari va ijodiy xayolga moyillik;

-xotiraning mustahkamligi, barqarorlik puxtaligi va mantiqiyliqi, tezkorligi va mazmundorligi;

-nutq, nutq faoliyatining mazmundorligi;

-fikrlash, mulohaza yuritish faoliyatining sarmazmunligi, samaradorligi, teranligi, ijodiyliqi, topqirligi, nostandartligi;

-rahbar kadr uchun emotsional holatlar va his-tuyg'ularni oqilona boshqarish uquviga ega bo'lish har qanday vaziyatda ham o'zini-o'zi boshqarish, o'zga kishilarning kechinmalarini his eta olish;

-emotsional holatlarga o'z munosabatini bildirish, reaksiyaga kirisha olish, voqea-hodisalarga loqayd bo'lmaslik, yumor hissining mavjudligi, hamisha muayyan mezonga rioya qilgan holda tobe kishilar bilan munosabat , muomalaga rioya qilish;

-hissiyot qonuniyatlarini egallash va jamoaning boshqariluv tuyg'usini oldindan aniqlash, ularga asoslanib, a'zolari bilan munosabatga kirishish zarurati tug'ilganda tezkor qaror qablul qilish;

Emotsional holatlarga baho berish va ularning har birini tahlil qilish imkoni:

-rahbar kayfiyatini aniqlovchi omillarning barqarorligiga;

-emotsional reaksiyalar ifodalanishining tashqi vositalariga;

-emotsional barqarorlik rahbar shaxsining xislati ekanligiga hamma vaqt e'tibor bermoq lozim.

Rahbar faoliyati va rahbar shaxsi uchun idoraviy sifatlar muhim ahamiyatga ega, uni boshqarish esa psixologik to'siqlar, vaziyatlar, favqulodda holatlarni yengish manbai bo'lib hisoblanadi.

Rahbar kadrning nufuzi barqaror iroda subyekti ekanligini har qaysi harakat va faoliyatda namoyish qilishda o'z ifodasini topadi.

Rahbar kadrning nufuzi barqaror iroda subyekti ekanligini har qaysi harakat va faoliyatda namoyish qilishda o'z ifodasini topadi. Shaxslararo munosabatda ish tuyg'uni vujudga keltiradi , insonni inson tomonidan to'g'ri idrok qilishga sharoit tug'diradi, individual uslubni shakllantiradi, obro'-e'tibor ma'naviy boylik bo'limidan ishlab chiqarish samaradorligining omili, iliq psixologik muhitning mexanizmi hisoblanadi. Shaxsning irodasiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- irodaviy kuch-quvvatning mujassamlashuvi;
- boshqaruv faoliyatining mashaqqatlari bilan maqsadga intilish va sobitqadamlilik;
- tashabbus, mustaqillik, ijodiylik;
- dadillik, jasoratlilik, to‘siqlarni pisand qilmaslik;
- vazminlik, esankiramaslik, o‘zini qo‘lga ola bilishlik;
- intizomlilik, o‘zini o‘zi udda qila olish va boshqalar.

Boshqaruv tizimi a’zolari rasmiy va norasmiy aloqalarda bo‘ladi. rasmiy aloqalar bu avvalo rahbarlar bilan bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi aloqalardir. (vertikal aloqalar). Ular rahbarlar va bo‘ysunuvchilarning turiga qarab farq qiladi. Agar rahbarlik to‘laqonli bo‘lib, quyi bo‘linmalar faoliyatiga doir barcha masalalarga daxldor bo‘lsa, bu xildagi aloqa muntazam aloqa deb aytiladi. Rahbarlik cheklangan bo‘lsa, u holda aloqa funksional bo‘ladi. Bo‘linmalar o‘rtasida vertikal aloqadan tashqari gorizontal aloqalar ham mavjud bo‘lib, ular muvofiqlashtirish va hamkorlik qilish tarzidagi aloqalardir. Lekin norasmiy aloqalar ham alohida ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik kerak. Bugungi kunda boshqaruvning ilmiy asoslangan va tajribada sinab ko‘rilgan qoidalariga tayanmay turib, tashkilotlarni samarali boshqarib bo‘lmaydi. Ushbu qoidalar jamoalarni boshqarish va unga rahbarlik qilishni belgilab beradi. Hozirgi sharoitda jamoani boshqarish shakllari va usullarini belgilovchi asosiy qoidalar quyidagilardan iborat:

1. Boshqarishning ilmiylik qoidasi. Bu qoidani amalga oshirish ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini tobora to‘laroq bilib borishini va ulardan kundalik yuritish amaliyotida borgan sari to‘laroq foydalanishni taqozo etadi.

2. Siyosiy va xo‘jalik rahbarlarining birligi qoidasi. Bu qoida boshqaruvga siyosat bilan chambarchas holda qarashga asoslanadi va o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

A). Umumiy xo‘jalik vazifalari bilan iqtisodiy vazifalarni hal qilishda siyosiy yondashuv;

B). Boshqaruv faoliyatini yaxshilash uchun jamoaning barcha a’zolarini jalb qilish;

V). Boshqarishni umumdavlat maqsadlariga yo‘naltirish.

4. Boshqaruvni demokratlashtirish qoidasi. Bu qoida ishlab chiqarishni boshqarishning eng muhim qoidalari jumlasiga kiradi. Boshqarishni

demokratlashtirish mehnatkashlar oilasini ishlab chiqarishni boshqarishga keng jalb qilish uchun yetarli imkoniyat yaratib beradi. Boshqaruv faoliyatida mehnatkashlarning bevosita qatnashishi aholi o'rtasida ishonch uyg'otadi.

5. Reja asosida xalq xo'jaligini rivojlantirish qoidasi. Bu rejalashtirish vazifasining muhimligini va o'sha boshqarishning markaziy bo'g'iniga aylanishini belgilaydi.

6. Boshqarishning yakka hokimlik qoidasi. Bunda boshqaruv bir shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Yakka hokimlik asosida ba'zan yaxshi, ba'zan salbiy natijalar qo'lga kiritilishi mumkin. Bu boshqaruvchining layoqati, dunyoqarashi, tashkilotchiligi, ma'naviy va axloqiy yetukligiga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv usullari ishchi jamoalarni ta'minlash uchun ularga nisbatan ko'riladigan zarur chora-tadbirlarni va ta'sirchan usullarning qo'llanishini bildiradi. Jamoani boshqarishda qo'llaniladigan barcha usullar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular bir-birlarini to'ldiradi.

Boshqaruv usullari o'zining tavsiyasiga ko'ra:

A) iqtisodiy boshqarish usuli;

B) tashkiliy-ma'muriy;

V) ijtimoiy-psixologik;

G) siyosiy boshqarish;

D) demokratik boshqarish;

YE) avtoritar boshqarish usullaridir.

Mazkur bo'limga xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, boshqaruv funksiyalari, motivatsiya, nazorat, boshqaruvda yuzaga keladigan muammolarga yechim topish, qabul qilinadigan qarorlarning tasniflari, rejalashtirish, tashkil qilish, hisob-kitob, tashkilot mehnatini yuzaga chiqaradigan rag'batlantirish, rahbarlik faoliyatida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, aloqa, muloqot, teskari aloqa, oliy ta'lim tizimida masofaviy o'qitishni tashkillashtirish, "Prezident qabulxonalari", "Parlament nazorati"ning xalq e'tirofidagi o'rni, jamoatchilik bilan aloqalar tizimining afzalliklari, boshqaruvda mehnat unumdorligini, Harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan sohaga oid islohotlarni muvaffaqiyatli boshqarishga qodir zamonaviy rahbarlar oldidagi vazifalar, ularning boshqaruv texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq ekani – ushbu fanning asosiy negizi sifatida atroflicha tahlil qilindi. Vazifa-nazariyani amaliyot bilan bog'lash, bo'lajak madaniyat va san'at sohasi

rahbarlarini boshqaruvning barcha darajadagi muammolarini yechishga tayyorlashdir.

Nazorat savollari

- 1.Zamonaviy rahbar qanday bo‘lishi kerak?
- 2.Zamonaviy rahbarlarga qanday talablar qo‘yiladi?
- 3.Abu Nasr Forobiyning rahbarlik va boshqaruv faoliyati borasidagi qarashlarini ta’riflab bering.
- 4.Zamonaviy rahbarning ijobiy va salbiy tomonlariga qanday baho berasiz?
- 5.Boshqaruvda muloqotning o‘rni Sizningcha nimalarda ko‘rinadi?
- 6.Rahbar va xodimlar munosabatida ko‘proq nimalarga e’tibor berish zarur?
- 7.Hozirgi zamon rahbarlarining asiy kamchiliklari nimalardan iborat?
- 8.Prezident Mirziyoyevning rahbarlar faoliyatida nimalarga ustuvor vazifa deb qarash muhimligini e’tirof etadilar?

3 BOB. O‘ZBEKISTONDA BOSHQARUV FAOLIYATINING YANGI QIRRALARI

3.1. MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR.

REJA:

- 1.Madaniyat va san’at sohasidagi ma’rifiy islohotlar ahamiyati.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 noyabrdagi “Respublika oliy Madaniyat va san’at muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori.
3. Ijodiy imtihonlar, ularning madaniyat va san’at sohasidagi o‘rni.

Har bir mamlakatning dunyo sahnasida e'tibor ko'rish, o'zligini namoyon qilishi uchun san'at va sportning hissasi beqiyos. San'at ham, sport ham tarjimonsiz, ko'ngil tarjimalari orqali qalblarga yetib boradi. O'zbekiston madaniyati, san'ati va sportini jahon ahliga manzur bo'lishi uchun tinmay izlanayotgan san'atkorlar, madaniyat arboblari, sport ustalarining iqtidorli asrlar davomida muazzam Sharqning gultoji hisoblanib, jahonga buyuk mutafakkirlar bergan O'zbekistonning dovrug'ini taratmoqdalar. Bunda albatta ularga davlatimiz va hukumatimizning yaratib bergan shart-sharoitlar katta madad bo'layotgani rost. So'nggi ikki-uch yilda yurtimizda madaniyat va san'at sohasini tizimli va izchil takomillashtirish, dunyo e'tirofidagi davlatlarning xorijiy amaliy tajribalarini keng qo'llash, yutuqlari natijalarini o'rganish va amaliyotga tadbiq etish negizida sohaga oid faoliyatni samarali yo'lga qo'yish, innovatsion yangiliklarni joriy etish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini bosqichma bosqich yuksaltirib borish masalalariga davlatimizning ustuvor siyosati darajasida e'tibor berilmoqda.

2018 yilning 15 fevralida Prezidentimiz "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni imzoladi²² Unga ko'ra, mazkur sohalar bilan bog'liq bir qator isloxlarni amalga oshirish uchun tegishli ko'rsatmalar berildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasini tashkil etishga qaror qilindi va mazkur tashkilotlarning asosiy vazifa va yo'nalishlari belgilandi. Shuningdek, "O'zbeknavo" estrada birlashmasi va "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi negizida "O'zbekkonsert" davlat muassasasini tuzish, Xalq ta'limi vazirligiga qarashli R.Glier nomidagi , V.Uspenskiy nomidagi ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseylari, Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik

22.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni // www.lex.uz.

litseyi, bolalar musiqa va san'at maktablari, shuningdek, "Istiqlol" va "Turkiston" san'at saroylari – O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimiga o'tkaziladigan bo'ldi. Faoliyatini o'rganib chiqish natijalarini hisobga olib, "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi, "Artmadad" maxsus jamg'armasi va "O'zbekmuzey" jamg'armasi tugatilib, mazkur tashkilotlarning funksiyalari va mol-mulkini Madaniyat vazirligiga topshirish vazifasi ko'rsatildi. Farmon sharhida qayd etiladiki, ushbu hujjat madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu sohada davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini keskin oshirish, O'zbekiston xalqining boy va o'ziga xos madaniyati, san'ati va ijodini yanada rivojlantirishni ta'minlash, aholining keng qatlami o'rtasida ma'nan va axloqan komil inson bo'lish, sog'lom turmush tarzini yuritishga intilishini rag'batlantirishga yo'naltirilgan. O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash "Ilhom" jamoat fondi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etilishi milliy madaniyatimiz rivoji yo'lidagi zalvorli qadam bo'ldi. Bu islohotlar o'z navbatida yangi iqtidorlarni izlab topish, yangi repertuarlar yaratish, yangi ijodiy samaralar uchun keng imkoniyatlardir.

Yurtboshimiz tomonidan madaniyat va sport boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risidagi farmonning imzolanishi ushbu sohalar faoliyatida yangi davrni boshlab beradi desak, xato bo'lmaydi. Chunki kundan-kun san'at va sportdek qudratli vositalarga e'tibor butun dunyoda ortib borayotir, binobarin, o'z istiqboli va jahoniy maqomini o'ylagan har bir millat ayni jabhalarga g'amxo'rlik ko'rsatishini zamonning o'zi taqozo etayotir. Demak, yuqoridagi farmon va unda belgilangan vazifalarni hech ikkilanmay, mavzuimiz bilan uzviy aloqadorlikda tahlil qilish mumkin. Boisi ushbu tizimlarning isloh qilinishi, faoliyatini qayta ko'rib chiqilishi va strukturasi, boshqaruv mexanizmining yangitdan yo'lga qo'yilishi san'at va madaniyat sohasida yuz bergan jiddiy transformatsion

hodisadir. Shu ma'noda, barcha sohalar kabi san'at ham jamiyatning mavjud holati va talabidan kelib chiqib, doimiy yangilanishda bo'lishini qayd etish lozim.

So'nggi yillarda davlat rahbari tashabbusi bilan ilm-fan sohaları taraqqiyotida o'zgarishlar ulkan. Yurtboshimizning "Ilmiy va ilmiy – texnikaviy faoliyat natijalarishi tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, "Fan va oliy ta'lim xodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ilmiy va innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu borada 2017-2018 yillarda davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ilmiy – amaliy va innovatsion loyihalar, ishlanmalarni moliyalashtirish uchun qariyb 800 milliard so'm ajratilgani ilm fanga berilgan katta e'tiborning yaqqol dalilidir.

Prezidentimizning 2017 yil 16 noyabrdagi "Respublika oliy Madaniyat va san'at muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori asosida 2017-2018 o'quv yilidan boshlab alohida iqtidor talab qiladigan madaniyat, dizayn, tasviriy va amaliy san'at, san'atshunoslik, musiqiy ta'lim, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi 18 ta'lim yo'nalishiga qabul qilish test sinovlarisiz, ijodiy imtihonlar orqali amalga oshirilishi madaniyat va san'at sohasi ixlosmandlari bo'lgan yoshlar uchun ayni muddao bo'ldi.

Unga ko'ra O'zbekiston davlat konservatoriyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi milliy dizayn va rassomchilik instituti, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabida ijodiy imtihonlar joriy qilindi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida jahon tajribasidan kelib chiqib, "Kutubxona axborot faoliyati" ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv reja va malaka talablari qaytadan ishlab chiqildi. Teatr san'atiga berilayotgan e'tibor, Prezidentimizning soha xodimlari bilan uchrashuvlardagi takliflari asosida

“Aktyorlik san’ati” (faoliyat turlari bo’yicha) maxsus sirtqi bo’limi tashkil etildi.”Kasb ta’limi (faoliyat turi bo’yicha)”, “Vokal ijrochiligi”, “San’atshunoslik” (turlar bo’yicha),” “Aktyorlik san’ati” (turlar bo’yicha), “Rejissyorlik san’ati” (turlar bo’yicha),” Xalq ijodiyoti” (turlar bo’yicha) yo’nalishlari bo’yicha kirish imtihonlari ijodiy sinovlar tarzida o’tkazildi.Jarayonni har tomonlama o’tkazish maqsadida taniqli san’atshunos olimlar, teatr san’ati ustalari, O‘zbekiston xalq artistlari baholadilar va mamlakatimiz tarixida birinchi marta ijodiy imtihonlar haqiqiy iste’dodlarni saralab berdi.

Madaniyat va san’at sohasiga bo’lgan katta e’tibor samaralarini birgina sohaga ixtisoslashtirilgan, 91 yillik tarixi davomida minglab dunyoga tanilgan musiqa ijrochilarini tarbiyalagan R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi faoliyatini olib ko’raylik. Ushbu san’at dargohi 59 ta O‘zbekiston Xalq artistlari, O‘zbekiston Respublikasi san’at arboblari, respublikada xizmat ko’rsatgan yoshlar murabbiylari, professorlar, “Do‘stlik”, “Sog‘lom avlod uchun” ordenlari, “Shuhrat” medallari sohiblari, “Zulfiya”, “Nihol” davlat mukofotlarining sovrindorlarining ijodlarini xalqqa tanitdi. Maxsus fortepiano, kamonli va torli cholg‘ular, damli va zarbli cholg‘ular, o‘zbek xalq cholg‘ulari, an’anaviy ijrochilik, estrada ijrochiligi, akademik xonandalik, xor dirijyorligi singari sakkiz yo’nalishda ijod qilayotgan iste’dodli yoshlar dunyoning saksondan ortiq davlatlarida nufuzli xalqaro va respublika tanlovlarida sovrinli o‘rinlarni egallab kelmoqdalar. So‘nggi uch yil davomida 132 nafar xalqaro, 60 nafar respublika tanlovlarida yuqori o‘rinlarni egallab kelayotgan yosh iste’dod sohiblari klassik, mumtoz, o‘zbek san’atini butun jahonga keng targ‘ib qilmoqdalar.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Prezidentimiz tashabbuslari bilan O‘zbekiston kitobxon mamlakatga aylandi. Mutolaa va kitobxonlik madaniyati aholining barcha qatlamlari orasida keng yoyilmoqda. “Yosh kitobxon”, “Kitobxon oila”, “Mutolaa siri” tanlovlari bo‘lib o‘tmoqda. O‘zbekiston noshirlari

va kitob savdosi milliy assotsiatsiyasi tuzildi. O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi²³

Ko‘rinadiki, amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi rivojlangan davlatlarda olib borilayotgan jahon tajribasiga asoslangan innovatsiyalar, g‘oyalar asosida mamlakatimizda inson uchun, uning manfaati va farovonligi amalga oshirilmoqda. Boshqaruv faoliyatining yangi qirralaridan biri – respublikada innovatsion vazirlik tizimini yaratish bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining innovatsion vazirlik faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi qaroriga asosan tashkil etilgan yangi tuzilma mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli ssenariylarini hisobga olgan holda innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda davlat va jamiyat qqrilishiga joriy etish, shuningdek, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta‘minlovchi ilmiy tadqiqotlar va ilg‘or texnologiyalarning ulug‘vor va istiqbolli yo‘nalishlarini rivojlantirish strategiyasini belgilash sohasida:

-innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni ishlab chiqish, davlat va jamiyat boshqaruvini rivojlantirishga ko‘maklashish, davlat xizmatlari sifatini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishni tashkil etadi;

- innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarning ishlab chiqilishini tashkil etadi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini targ‘ib qilish va amaliy foydalanish mexanizmlarini shakllantiradi;

-jamoat nazoratini amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etadi;

-innovatsion jarayonni amalga oshirishning eng maqbul variantlarini tizimlashtiradi, aniq vaziyatlar uchun optimal boshqaruv qarorlarini ishlab chiqadi;

²³ Salimov O., Quronboyev Q., Bekmurodov M., Tangriyev L. Boshqaruv hikmati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2018.

Tez o'zgaruvchan jahon konyukturasini hisobga olganda iqtisodiyotning jadal rivojlanishini ta'minlash bo'yicha strategik va oldindan rejalashtirish sohasida:

-milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qila oladigan ilmiy-loyiha va ilmiy-texnologik tashkilotlari tizimini rivojlantirish, shuningdek, istiqbolda ilmiy-texnik salohiyatni shakllantirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqadi;

- hududlar innovatsion faoliyati ko'lamini kengaytirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, qoloq tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish hisobiga hududlarning iqtisodiy rivojlantirish darajasida tabaqalashuvni qisqartirishga ko'maklashadi;

-atrof-muhitni ifloslantirish darajasini kamaytiradigan ekologik toza texnologiyalarni qo'llagan holda ishlab chiqarish qobiliyatini oshirishni nazarda tutuvchi "Yashil iqtisodiyot texnologiyalari"ni joriy etishga ko'maklashadi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish orqali turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashadi;

Qarorda mufassal bayon qilinganidek ilmiy kadrlar tayyorlash va xodimlar malakasini oshirish bo'yicha idoraviy ilmiy hamda o'quv markazlari, maslahat va axborot markazlari, ilmiy laboratoriyalar

Innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni hisobga olgan holda tashkiliy chora-tadbirlar ko'rish, har yili innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar respublika yarmarkalarini tashkil etish, xorijiy davlatlarga tegishli tuzilmalar va xalqaro tashkilotlar, ilmiy laboratoriyalar hamda institutlari bilan hamkorlik qilish borasida qator amaliy tadbirlar belgilangan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim vazirligi va Prezident maktablarini tashkil etilishi- ta'limning yangi innovatsiyalari sifatida boshqaruv faoliyatining yangi sahifadarini ochib berdi.

Mustaqillik yillarida respublikada ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq kundan kunga o'zgarib borayotgan globullashuv sharoitida yuksak intellektual bilimli bolalarni tarbiyalash va voyaga yetkazishni zamonning o'zi talab qilmoqda. Shuning uchun ham davlatning asosiy vazifalaridan biri – yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini yuqori cho'qqilarga ko'tarishga bosh –qosh bo'lib turibdi.

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruv tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim tizimi davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, har tomonlama ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbif etish orqali bolalarni har tomonlama, intellektual, ma'naviy estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini yaxshilash maqsadida.

-maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalsha oshirish;

-ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy-estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

-milliy-madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolaligidan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'minlash borasidagi islohotlar ham boshqaruvda milliy tarbiyaning, milliy va ma'rifiy qadriyatlarimizning yashovchanligini ta'minlash borasida o'ziga xos rol o'ynaydi.

Boshqaruv faoliyatidagi yangi bosqich - **Prezident maktablarini** tashkil etilishi ham yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, huquqi ong va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish xalq ta'limi sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Iqtidorli bolalarni aniqlash ta'lim jarayonida ilg'or iynologiyalarni qo'llagan holda ularni o'qitish va tarbiyalash bo'yich yaxlit tizim yaratish iste'dodli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirish, shuningdek 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga ko'ra.

-tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rganish, xorijiy tillar,muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni tashkil qilish, o'quvchilarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarni rivojlantirio' uchun zarur sharoitlar yaratish;

-o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularda yetakchilik ko'nikmalari va notiqlik san'atini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasini oshirish, xalqaro olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalarda munosib ishtirokini ta'minlash, ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabati, hayotga qat'iy ishonch va qavrashlarni shakllantirish, bitiruvchilarning ilg'or xorijiy oliy o'quv yurtlarida ularning respublikadagi filiallarida o'qishini davom ettirish.

Shuningdek Prezident maktabi bitiruvchilarini belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, attestat) bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida kirish imkonini taqdim etuvchi xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi berilishi ,ularga yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni tanlab taklif etish ham boshqaruv

faoliyatidagi yangicha ko‘rinishlardir. Shunisi quvonchliki, 2019 yilda Toshkent, Nukus, Xiva shaharlarida 3 ta, 2020 yilda Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand, Farg‘ona shaharlarida 5 ta, 2021 yillarda Andijon, Navoiy, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlarida 6ta Prezident maktablarini ishga tushirish rejalashtirilgan va maktab bitiruvchilarining jahon standartlariga muvofiq ta‘lim olishi – rivojlangan davlatlar yoshlari bilan raqobatlasha oladigan bilim olishlari – uzluksiz ta‘limning yangi va tarixiy bosqichi bo‘lib qoladi.

Nazorat uchun savollar

1. Madaniyat va san‘at sohasida islohotlar nimalarda o‘z aksini topgan?
2. Ijodiy imtihonlarni ta‘riflab bering.
3. Innovatsion vazirlik – boshqaruvning yangi qirralari sifatida qay yo‘sinda faoliyat ko‘rsatadi?
4. Prezident maktablarining faoliyati qay tarzda takillashtiriladi?
5. Prezidentning beshta muhim tashabbuslarini aytib bering.
6. Mamlakatimizda bo‘lib o‘tayotgan madaniyat va san‘atga doir xalqaro anjumanlardan qaysilarini bilasiz?
7. Alohida iqtidor talab qilinadigan oliy dargohlarga ijodiy imtihonlar joriy qilindi. Qaysi oliy ta‘lim muassasalariga?
8. Bolalar musiqa va san‘at maktablari faoliyatini bilasizmi?

3.2. O‘ZBEKISTONDA MADANIYAT MUASSASALARINING TASHKILY-HUQUQIY TUZILMALARI

REJA:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining qaytadan tashkil qilinishi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori mazmun-mohiyati.
- 3.Madaniyat va san’at sohasidagi islohotlar-boshqaruv faoliyatiga yangicha yondashuv.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi ikkiga ajratildi. Madaniyat vazirligi qaytadan tashkil qilindi.

Farmonga ko‘ra konsert-tomosha muassasalari, muzeylar va boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalarning yangilangan namunaviy shtatlari ishlab chiqildi va joriy etildi, shuningdek madaniyat sohasi muassasalarining moddiy-texnika bazasi mustahakamlandi, har bir madaniyat markazlarida kutubxonalar tashkil etildi, milliy raqsimiz yo‘nalishlarini tiklash va avaylash, raqs san’atini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan malakali raqs ustalari, xoreograflarga yetarli sharoitlar yaratish, o‘zbek xalqining milliy an’ana va qadriyatlari, yuksak ma’naviyati, necha asrlarga borib taqaladigan milliy madaniyatini keng ommalashtirish masalalari tubdan qayta ko‘rib chiqilishi rejalashtirildi.

Biron-bir jamiyat o‘z taraqqiyotini ta’minlashda madaniyat va san’atni, milliy-ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirmay turib kelajagini tasavvur eta olmaydi. Qadimiy va an’anaviy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan xalqimiz tomonidan yaratilgan boy madaniy merosimiz durdonalarini asrab-avaylash, o‘zbek xalqi madaniyati va san’atining tarkibiy qismi bo‘lgan qadimiy an’analarimiz, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan

ma'naviy boylik – xalq qo'shiqlari, cholg'u va kuylari, tomoshalar, dostonlar, maqomlar, raqslar va milliy marosimlarni bugungi kun talabidan o'rganish, unga katta hurmat bilan munosabatda bo'lish, kelgusi avlodlarga bekamu-ko'st yetkazish istiqloq yillarida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan madaniyat va san'atga mustaqillikni mustahkamlovchi kuch, xalqimiz, ayniqsa yoshlarda milliy g'urur, mardlik va jasorat tuyg'ularini uyg'otuvchi vosita sifatida yuksak e'tibor qaratilmoqda. "Jamiyatni sog'lom ezgu-maqсадlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor – san'at yordamida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani yuksak darajaga ko'tarish bugungi yangilanish davrida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda", – deb ta'kidlangani bejiz emas. Shuning uchun ham madaniyat va san'at sohasi boshqaruv ishlarini takomillashtirish maqsadida tomosha san'ati an'alarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, moddiy-texnik negizini yanada mustahkamlash, islohotlarda madaniyat va san'at ahlining faol ishtirokini ta'minlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy barkamol asarlar yaratish kabi masalalarni amalga oshirish maqsadida 2017 yil 15 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan 39 teatr, 175 muzey, mingdan ziyod madaniyat va aholi dam olish markazlari, istirohat bog'lari, 301 bolalar musiqa va san'at maktabi, 296 ta bolalar va o'smirlar hamda respublika darajasidagi sport maktabi, 51 mingga yaqin sport majmuasi, stadionlar va inshootlarda xizmat qilayotgan 69 ming xodimning har tomonlama qo'llab quvvatlanishi haqida alohida satrlar bor. Ushbu farmon madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu sohada davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini keskin oshirish, O'zbekiston xalqining boy va o'ziga xos madaniyati, san'ati va ijodini yanada rivojlantirishni ta'minlash, aholi keng qatlami o'rtasida ma'nan

va axloqan komil inson bo'lishga va sog'lom turmush tarzini yuritishga intilishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan.

Farmonga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatildi, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil etildi.

Ta'kidlash lozimki, Farmonga muvofiq "O'zbeknavo" estrada birlashmasi va "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi negizida Madaniyat vazirligi huzurida "O'zbekkonsert" davlat muassasasi tashkil etildi.

Musiqiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligiga qarashli R.Glier va V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan akademik musiqa litseylari, Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi, 301 bolalar musiqa va san'at maktabi Madaniyat vazirligi tizimiga o'tkazildi.

Madaniy –ommaviy tadbirlarni yuqori darajada o'tkazishni kengaytirish maqsadida "Istiqlol" va "Turkiston" san'at saroylari Toshkent shahar hokimiyati ixtiyoridan Madaniyat vazirligi tasarrufiga o'tkazildi, ularning o'z daromadlari bilan qoplanmaydigan qismidagi xarajatlarini moliyalashtirish uchun respublika byudjetidan mablag' ajratilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Abdulla Aripov 2017 yil 15 martda imzolagan "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi to'g'risidagi hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori davlat rahbarining ma'rifatga, ma'naviyatga e'tiboridan dalolatdir.

Muhtaram Yurtboshimizning 2017 yil 31 mayda PQ-3022 sonli “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to’g’risida” gi Qarorida esa madaniyat va istirohat bog‘lari hududida “Nuroniylar maskan” larini tashkil qilish, “Seni kuylaymiz, zamondosh!”, “Debyut” kabi teatr san’ati ko‘rik-festivallari samaradorligini oshirish orqali buyuk siymolar, zamonamiz qahramonlari obrazi, yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorliklarni aks ettirgan badiiy yuksak sahna asarlarini yaratish, “Bahor nafasi” xalqaro san’at festivali, “Boysun bahori” xalqaro folklor, “Yoshlik bahori” respublika yosh opera ijrochilari festivali singari tadbirlar, turli xalq sayillarini tashkil etish, ularga xorijlik sayyohlarni keng jalb etish, Samarqand shahrida o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali nufuzini yanada oshirish masalalariga katta e’tibor berilgan.

San’atning barcha turlari davlatimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor va katta g‘amxo‘rlik natijasida rivojlanib, ommalashib borayotgani quvonarli hol. Ayniqsa, yoshlarning sevimli, tez o‘ziga torta oladigan zamonaviy estrada qo‘shiqchilik san’atiga e’tibor kuchayib, yangi-yangi ijodiy guruhlar, xonandalar maydonga chiqib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida tanila boshladi. Shu bilan birga, estrada san’ati madaniyatini, estrada ijodkorlarining professional malakasini oshirish, yosh san’atkorlarning o‘z iqtidorini to‘la namoyon etishi uchun shart-sharoit yaratish borasida kamchilik va nuqsonlarga ham yo‘l qo‘yilib, xalqimizni Vatanga muhabbat, milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi yetuk musiqiy asarlar bilan bir qatorda, mutasaddi tashkilotlar va ba’zi estrada jamoalari hamda yakkaxon ijrochilarning mas’uliyatsizligi oqibatida mazmunan sayoz, badiiy jihatdan zaif qo‘shiqlar ham konsert dasturlari, radio-telekanallardan o‘rin olib, audio-video kassetalar orqali tarqatilib, ma’naviy tarbiya ishiga salbiy ta’sir ko‘rsata boshladi.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.Aripov 2017 yil 28 avgustda imzolagan 678-sonli “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi faoliyatini

tashkil etish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori esa o‘zbek milliy musiqa, akademik, estrada ijrochiligi hamda milliy raqs va xoreografiya ijrochilik san‘atini yanada rivojlantirish, opera san‘ati, ansambl va orkestrlarning o‘zbek milliy madaniyati taraqqiyotidagi o‘rnini oshirish, ularning g‘oyaviy- badiiy yo‘nalishlarini milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda rivojlantirish masalalariga qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 16 oktabrdagi PQ-3325-son qarori “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” Prezident Qarori imzolandi²⁴. Jamg‘armaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi faoliyatini ta‘minlash; moliyaviy, tashkiliy va ijodiy yo‘nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga ko‘maklashish, shuningdek, madaniyat arboblari hamda tasviriy san‘at, adabiyot, teatr, musiqa, xoreografiya sohalarida ularning tashabbusi bilan tashkil etiladigan tadbirlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, xalqaro va davlatlararo madaniy aloqalarni kengaytirish, madaniyat va san‘at sohasida xalqaro madaniy tashkilotlar va xayriya jamg‘armalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy sarmoya va grantlarni jalb etish, mamlakatimizda madaniyat va san‘atga doir homiylikni rivojlantirishga ko‘maklashish, madaniyatlararo ijodiy muloqotni yo‘lga qo‘yish, o‘zbek san‘atining jahon badiiy va madaniy makoniga integratsiyalashuviga ko‘maklashish, shuningdek, mamlakatimizning madaniy va ilmiy-texnik salohiyati hamda raqobatdoshligi bilan bog‘liq jihatlarni namoyish etish, madaniyat va san‘at sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarni zarur adabiyotlar va davriy nashrlar bilan ta‘minlash, xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda, mamlakatimiz muzeylari va boshqa

²⁴ “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 17 oktabr.

madaniy muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish tizimini takomillashtirishga ko‘maklashish, xalqaro standartlarga muvofiq yangi madaniy muassasalar qurish uchun moliyaviy mablag‘ va ko‘mak berish, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni kapital hamda joriy ta‘mirlash, xalqaro institutlar, xorijiy mamlakatlar hukumatlari, homiyar va donorlari bilan hamkorlikda loyihalarni birgalikda moliyalashtirishni tashkil etishni ta‘minlash, jahondagi ilg‘or tajribalarni mamlakatimizda joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlash maqsadida madaniyat va san‘at sohasini moliyalashtirish bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, aholiga pullik xizmatlar ko‘rsatish hajmini va O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi byudjet tashkilotlari fondiga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, qonunchilikda belgilangan manbalardan tushayotgan mablag‘larni jamg‘arishni ta‘minlash; ajratilayotgan maqsadli mablag‘lardan to‘g‘ri, samarali va maqsadli foydalanish ustidan tizimli nazorat o‘rnatish, Madaniyat vazirligi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarni moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha tadbirlar uchun maqsadli mablag‘lar ajratish belgilandi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to‘g‘risida”gi Qarorni imzolandi²⁵. Qaror bilan Madaniyat vazirligi, Raqobat qo‘mitasi, Toshkent shahar hokimligining Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko‘chasi, 1-uy manzilda joylashgan bino va inshootlarini operativ boshqarish huquqi vazirlikka berildi.

Madaniyat va san‘atga bo‘lgan e‘tibor tufayli qator madaniyat muassasalari yangicha ruhda ish boshladi.

Respublikamizda bo‘lib o‘tgan qator san‘at tantanalari hisoblanmish – Shahrisabzdagi “Halqaro maqom san‘ati” anjumani, Surxondaryoda o‘tkazilgan

²⁵O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to‘g‘risida”gi Qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 19 oktabr.

“Xalqaro baxshichilik san’ati” anjumani, Xorazmda o‘tgan “Raqs sehri” festivali, Qo‘qonda o‘tkazilishi mo‘ljallanayotgan “Milliy hunarmandchilik” xalqaro festivali, ustoz hofiz Komiljon Otaniyozovning 100 yillik yubiley tantanalari ham ana shu munavvar islohotlarning xalqqa manzur bo‘lgan tadbirlaridir.

O‘zbekiston xalq artisti Komiljon Otaniyozov tavalludining 100 yillik bayrami munosabati bilan yo‘llangan Prezident tabrigida shunday satrlar bor:

“San’at vositasida xalqqa xizmat qilishni o‘z hayoti, butun borlig‘ining ma’no-mazmuni deb bilgan Komiljon Otaniyozov qisqa umri davomida mumtoz musiqa san’atimizni yangi, yuksak bosqichga ko‘tardi. O‘zining g‘oyat noyob, aytish mumkinki, ilohiy va sohir ovozi bilan o‘zbek madaniyatini, o‘zbek nomini butun butun dunyoga tarannum etdi.

Bu ulug‘ insonning yana bir unutilmas xizmati shundaki, u o‘zining qalb qo‘ri, mehri va saxovatini bag‘ishlab, o‘nlab iste’dodli shogirdlarni kamolga yetkazdi. Bugun nafaqat O‘zbekistonda, balki qo‘shni mamlakatlarda ham shuhrat qozongan ko‘plab hofiz va san’atkorlar uni o‘zlarining ma’naviy ustozlari deb biladilar”²⁶.

San’atkorga xalq baho beradi, ammo davlat rahbarining san’atkorning o‘lmas merosiga bo‘lgan bunday e’tibori nafaqat Xorazm, balki butun O‘zbekiston san’at ustalariga o‘zgacha qanot bag‘ishlashi aniq.

Shu bilan birga ana shu islohotlarda madaniyat va san’at vakillarining ishtiroki va ijodiy mehnati Yurtboshimiz olib borayotgan, jahonga ovoza bo‘layotgan o‘zbek madaniyati va san’ati yuksalishida o‘ziga xos hissa bo‘lib qo‘shilayotir.

²⁶ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2018. 245 b.

Alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov tomonidan 2018 yil 18 mayda imzolangan Vazirlar Mahkamasining 371-sonli qarori madaniyat va san'atning tarixiy va zamonaviy ahamiyatini oshirish, barkamol avlod ongiga o'zbek milliy san'atiga bo'lgan mehr-muhabbatni chuqurroq singdirish, ma'naviy-ma'rifiy munosabatlar borasida davlatlararo hamkorlikning yangi qirralarini yaratish borasidagi tamoman yangi sahifalarini ochdi.

Qarorga ko'ra 2019 yildan boshlab har ikki yilda bir marta Farg'ona viloyatining Marg'ilon shahrida "Buyuk ipak yo'li" xalqaro folklor musiqa festivalini o'tkazish, ushbu nufuzli tadbir doirasida turli ko'rgazmalar, milliy sozlar va liboslar, hunarmandchilik buyumlari, tasviriy va amaliy san'at asarlari, badiiy va hujjatli filmlar, audio va video disklar, kitoblar, albomlar, fotosuratlar namoyishini tashkil etilishi o'zbek milliy folklor musiqa san'atini keng targ'ib etish, xorijiy davlatlar bilan milliy madaniyatlar uyg'unligi va turfa xilligini saqlash va rivojlantirish, xalq ijodiyotining eng yaxshi namunalarini muhofaza qilish va rivojlantirishga qaratildi.

2018 yilning 27 iyunda qabul qilingan PQ-3813-sonli "O'zbekiston davlat filarmoniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori esa badiiy jamoalar va orkestrlarning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, san'atni rivojlantirishning izchil tizimini yaratish masalalariga qaratilgan.

Mazkur Qarorning ijrosi barkamol avlodni musiqa-estetik jihatdan tarbiyalash tizimini takomillashtirish, klassik, milliy, zamonaviy, estrada san'atini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar

1. “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmonining mazmun-mohiyatini aytib bering.

2. 2017 yil 16 oktabrdagi PQ-3325-son qarori “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident Qarorini bilasizmi?

3. “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to‘g‘risida”gi Qarorida nimalarga e‘tibor berilgan?

4. “Xalqaro maqom festivali” ning ahamiyati haqida gapirib bering.

5. “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro folklor musiqa festivali san’atimiz rivojiga qanday hissa qo‘shadi?

6. “O‘zbekiston davlat filarmoniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori haqida gapirib bering.

7. “O‘zbekkonsert” faoliyati nimalardan iborat?

8. Komijon Otaniyozovning 100 yoshlik yubileyi qachon v qayerda bo‘lib o‘tdi. Prezident o‘z tabrigida buyuk san’atkor ijodiy faoliyati haqida qanday fikr bildirgan?

3.3. MILLIY MADANIYATNI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISH – BOSHQARUV FAOLIYATINING MOHIYATI SIFATIDA

REJA

1. “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi” va “2019-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ning mazmun mohiyati to‘g‘risida.

2.Konsepsiyaning har bir soha bo‘yicha qo‘yilgan vazifalar va ularning yechish yo‘llari.

Ta’kidlash joizki, Prezidentning oqilona siyosati tufayli O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga qarashli “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi, davlat teatrlari, O‘zbek davlat sirki, “O‘zbekiston davlat filarmoniyasi” davlat muassasasi, “Xalqlar do‘stligi” saroyi, Islom Karimov nomidagi Farg‘ona viloyat teatr va konsert saroyi, “Diydor” va “Tomosha” teatr-studiyalari, “Yoshlar madaniyat va san’at markazi” davlat korxonasi, Madaniyat vazirligi huzuridagi madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi, Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi, Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy ishlab-chiqarish bosh boshqarmasi va uning hududlararo inspeksiyalari, Badiiy ekspertiza boshqarmasi va uning hududlararo bo‘limlari, “Sharq taronalari” musiqa festivali bosh direksiyasi, vazirlik tizimidagi muzey-qo‘riqxonalar, hayvonot bog‘lari, davlat muzeylari, uy muzeylari va ko‘rgazmalar, ko‘zi ojizlar respublika markaziy kutubxonasi, “Guliston”, “Teatr”, “Moziydan sado” jurnallari tahririyatlarining, barcha-barcha madaniyat va san’at sohasi muassasalarining faoliyatlari qayta ko‘rib chiqildi, yetarli shart-sharoitlar hozirlandi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatda madaniyat va san’atga bo‘lgan e’tiborning yangicha qirralarini boyitishga xizmat qildi.

Sohaga oid yangicha yondashuvlarning yana biri – 2018 yildan boshlab, har ikki yilda bir marta Navoiy viloyatining Nurota tumanida o‘tkazilishi mo‘ljallangan “Nurli navolar” xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 2018 yil 27 iyunda imzolangan Vazirlar Mahkamasining 486-sonli qaroridir. Folklor festivalini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomda ta’kidlanganidek, milliy an’analarni asrab-avaylash, yoshlarda san’atga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ularini kamol toptirish, xalqaro miqyosda ijodiy aloqalar doirasini kengaytirish, tinchlik va birdamlik g‘oyalarini ulug‘lash, o‘zaro madaniy-

ma'naviy hamkorlikni yanada mustahkamlash, turli millat vakillarini ma'naviy muloqotga jalb etish, milliy an'analar va estetik ideallar umumiyliги asosida xalqaro madaniy hamkorlikni mustahkamlash, madaniy turizmni rivojlantirish, xorijiy davlatlar bilan milliy madaniyatlar uyg'unligi va turfa xilligini saqlash va rivojlantirish, nomoddiy madaniy merosning eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish, muhofaza qilish va rivojlantirish borasidagi faoliyatga katta rag'bat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqida milliy madaniyatimiz, milliy madaniyatimizning ajralmas qismi hisoblanmish maqom san'ati haqida benihoya to'g'ri ta'rif berdi. Tabrikda shunday satrlar bor:

“Sharq mumtoz adabiyoti, tasviriy san'ati, ilmu ma'rifat, islomiy qadriyatlardan oziqlangan maqom san'ati-ana shunday madaniy meros rivojiga o'zbek xalqi ham munosib hissa qo'shgani bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz.

Bu noyob boylikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, undan dunyo ahlini bahramand qilish, kelgusi nasllarga bezavol yetkazish turli qit'a va mamlakatlar vakillarini bu go'zal maskanda mujassam etgan anjumanimizning asosiy maqsadidir.

Agar biz asl, haqiqiy san'atni bilmoqchi, o'rganmoqchi bo'lsak, avvalo mumtoz maqom san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak.

Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz kerak.” Bu so'zlar milliy madaniyatni irvojlantirish borasida o'tkazilgan, 73 davlatdan 300ga yaqin mehmonlar ishtirok etgan xalqaro anjumanda yangradi. Bu munavvar tadbirlarga ancha oldinroq tamal toshi qo'yilgani rost.

“O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi” va “2019-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha “yo'l

xaritasi” mamlakatimizda san’at va madaniyat sohalari rivojiga katta xizmat qiluvchi qonuniy hujjatdir. Inson tafakkuri o‘z xalqining tarixiy va madaniy merosini bilish, badiiy ijodiyotini anglash asnosida boyiydi, sayqal topadi.

Ayni vaqtda ijodkor ziyolilar uchun zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish, ularga bebaho qadriyatlarimiz sanalmish xalq og‘zaki ijodiyotini puxta o‘rgatish, iqtidor sohiblarining xalqaro festival va tanlovlardagi ishtirokini ta’minlash, xorijdagi yetuk madaniyat va san’at namoyandalarining mahorat darslarini tashkil etish ham g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Har qaysi millatni olimu ulamolari, madaniyat darg‘alari, san’atkorlar, shoir va bastakorlari dunyoga tanitadi. Ijodkorlar davlat e’tiborida bo‘lsa, munosib rag‘batlantirilsa, jamiyatda beqiyos ma’naviy yuksalish ro‘y berishi tarixda ko‘p bora isbotlangan.

Milliy madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha ushbu tarixiy hujjatning qabul qilinishiga madaniyat va san’at sohasidagi qator muammolarga yechim topish, xalqning ko‘ngliga yetib borayotgan ijodiy namunalarning kamligi va bir qancha sabablar bo‘ldi. Quyida mana shu muammolarga to‘xtalib o‘tamiz.

- madaniyat va san’at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratilmagani sabab ko‘pincha ijodkorlarning ijod namunalarini tizimli holatda e’lon qilish, mualliflik huquqlarini ta’minlash masalalari;

- yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash borasida madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini olib borilmayotgani;

-madaniyat va san’at sohasidagi nufuzli xalqaro festival va tanlovlarda milliy san’at namunalari bilan ijodkorlarimizning ishtirokini ta’minlash va boshqalar.

Mazkur konsepsiyaning asosiy maqsadi madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani yaratish va rivojlantirish, madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish, boy va muqaddas tarixiy va madaniy merosimizni saqlash,

kelajakka sogʻ-omon yetkazish, etnik madaniy anʼanalarni asrab-avaylash va unga asoslangan xalq ijodiyotini qoʻllab-quvvatlash, xalq ogʻzaki ijodi namunalariga yuksak eʼtibor, baxshichilik, yallachilik anʼanalarini yanada boyitish, yoshlar ijod erkinligini taʼminlashga erishish, milliy madaniyatni yanada keng tadqiq etish va borasida innovatsion gʻoyalar va texnologiyalardan keng foydalanish, samarali foydalanish, madaniyatlararo munosabatlarda teng huquqlilik va inson huquqlarini hurmat qilishni yanada rivojlantirish, qabul qilinayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniyat sohasiga oid qarorlarning ushbu sohadagi yagona davlat siyosatiga mosligini taʼminlash, madaniyat va sanʼat muassasalarining toʻlaqonli faoliyat koʻrsatishini taʼminlash, obyektlarni saqlash hamda muhofaza qilishda jamoatchilik nazoratini yoʻlga qoʻyishdan iborat edi.

Shuning uchun ham konsepsiyamizda koʻzda tutilgan milliy madaniyatni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari sohalar boʻyicha olib qaralganda milliy madaniyatni yanada rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari madaniy meros sohasida moddiy madaniy meros obyektlarini, tarixiy va madaniy merosni saqlash, shaharlar va aholi turar joylarining tarixiy muhitini asrab-avaylash, madaniy-maʼrifiy turizmni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishga katta eʼtibor qaratish borasidagi ushbu tarixiy hujjat imzolangandan soʻng qisqa muddatda amalga oshirilgan ishlar ham talaygina. Yaqindagina 1606-1669 yillarda yashagan gollandiyalik musavvir,)arb tasviriy sanʼat olamiga katta taʼsir koʻrsatgan rassom Rembrand Van Reynning noyob asarlari Madaniyat vazirligi tasarrufiga topshirilgani, Samarqand viloyatining Moʻminobod qishlogʻidan topilgan 3 ming yillik nay cholgʻusi, Termiz yaqinidagi Ayritom arxeologik yodgorligida aks etgan sozandalar tasviri, Surxondaryodagi Fayoztepa buddaviylik ibodatxonasining taʼmirlash ishlarining olib borilayotgani, mumtoz va klassik adabiyotni targʻib etish kabi xayrli ishlardir.

Milliy madaniyatimizni madaniy – maʼrifiy sohasi borasidagi ishlarida esa respublika markazidan tortib eng olis hududlargacha madaniy-maʼrifiy

faoliyatining samarali usullarini qo‘llab-quvvatlash, to‘rlangan ilg‘or tajribalarni umumlashtirish, festival, gastrol va ko‘rgazmalar faoliyatini yanada kengroq rivojlantirish, soha hodimlari malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, xalq amaliy san‘ati an‘analarini saqlash va rivojlantirish, xalq hunarmandchiligini, badiiy havaskorlikni rivojlantirish, ko‘zi ojizlar kutubxonalarini faoliyatni takomillashtirish va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalari borasida aniq tadbirlar ishlab borasidagi kelgusida qilinadigan amaliy tadbirlar masalalari kun tartibiga qo‘yilgan. Bu borada ishga tushirilgani haqida alohida e‘tirof etish lozim.

Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan muzeylar ishini jonlantirish, konsepsiyada alohida ta‘kidlanganidek muzeylar fondini to‘ldirib borish va muzey eksponatlaridan keng foydalanishni ta‘minlash, muzeylar infratuzilmasini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish orqali ko‘rsatiladigan xizmatlarning interaktivligini oshirish, aholi, eng avvalo, yosh avlod uchun mo‘ljallangan, internet tarmog‘idan foydalangan holda, muzeylarning faoliyatiga innovatsion axborot texnologiyalari keng joriy etish va muzey eksponatlarining raqamli shakllarini yaratish orqali muzey eksponatlarini ko‘rish imkonini beradigan infratuzilmani yaratish, O‘zbekiston muzeylarini jahon madaniyat maydoniga integratsiyalash, respublikaning xalqaro miqyosdagi ijobiy nufuzini oshirishda faol ishtirok etish, internet jahon axborot tarmog‘ida respublikadagi mavjud barcha muzeylar faoliyatini targ‘ib etuvchi yagona maxsus veb-saytni yaratish borasidagi faoliyat quyidagilardan iborat. Masalan, Xivadagi “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi XIX asrga taalluqli bo‘lgan eksponatlar bilan boyitib borilayotgani, Urganch tumanida joylashgan “Ulli hovli” tarixiy me‘moriy majmuasi, “Nurillaboy” tarixiy me‘moriy obidalar majmuasidagi qator amaliy tadbirlar, O‘zbekiston davlat tabiat muzeyida yurtimiz hududidagi “qizil kitob”ga kiritilgan qushlar, Nurota tog‘ tizmalari, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi, Qizilqumning janubiy sharqiy qismidagi tabiat boyliklarini asrash tadbirlari O‘zbekiston muzeylarining faoliyatidagi yangicha ruh, yangicha ijodiy faoliyatdan darak beradi.

Teatr san'ati sohasida

Konstitusiyada belgilanganidek yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan teatrlarning zamonaviy pyesalar, shuningdek, milliy mumtoz, G'arb va Sharq klassik asarlari bilan boyitish, yoshlarimizda Vatanga bo'lgan muhabbat hissini kuchaytirish, teatrlarimiz sahnalarida zamonaviy qahramonlar obrazini talqin qilish borasidagi yangi izlanishlar, ijodiy hamkorliklarni amalga oshirish, teatr jamoalarida dramaturg, rejissyor, rassom, kompozitor, teatrshunoslarning ijodiy hamkorligi uchun shart-sharoitlar hozirlash borasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat teatrlari va konsert tomosha muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1096-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qonuniy hujjatda qayd etilganidek milliy va jahon teatr, opera va balet hamda konsert tomosha san'atining boy an'alarini saqlash, asrab-avaylash va rivojlantirish, jahon teatrva musiqa tomosha san'ati sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlardan unumli foydalanish, turli ko'rgazmalar, festivallar, ko'rik-tanlovlar, ma'ruzalar, madaniyat, san'at, ilm-fanning atoqli arboblari bilan uchrashuvlar, benefis, teatr spektakllari, maxsus tayyorlangan dasturlar, dam olish va ijodiy kechalar, maqsadli teatrlashtirilgan marosim kechalari va boshqa tomosha tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, konsepsiyaga asosan joriy yilning 21-27 mart kunlari "Teatr tomoshalari haftaligi"ni va uning doirasida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, jumladan, teatr rassomlarining ko'rgazmalari, teatr liboslari va dekoratsiyalari namoyishlarini tashkil qilinishi, tomoshabinlar bilan ijodkorlar o'rtasida muloqotlar o'tkazilishi hamda aholining shu kunlari davlat teatrlariga bepul kirishi ayniqsa talabalar va o'quvchilar uchun ayni muddao bo'ldi. Ushbu konsepsiya doirasida yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan 37 ta teatrda 250dan ortiq spektakllar namoyish etildi. "Bardosh", "Sarvqomat dilbarim", "Kech kuz taronasi", "Yashash uchun kechikma", "Sab'ai sayyor", "Jamila", "Ming bir kecha", "Yer baribir aylanaveradi", "Chimildiq", "Kunduzsiz kechalar", "Imon", "Revizor", "Jaydari kelin", "Tohir va Zuhra", "Layli va Majnun" kabi spektakllar teatr

ixlosmandlarining olqishlariga sazovor bo'ldi. Haftalik doirasida “Eng yaxshi spektakl dekoratsiyalari”, “Eng yaxshi sahna liboslari”, “Eng yaxshi ko'rgazma tashkil etgan teatrlar” nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar aniqlandi.

Alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda sirk san'atini yangi bosqichlarga ko'tarish borasida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 yanvardagi “O'zbek sirk san'atini yanada rivojlantirish va “O'zbek davlat sirki” davlat muassasasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaroriga asosan O'zbekistondagi sirk davlat muassasalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha “Yo'l xaritasi” ishlab chiqildi. Samarqand, Farg'ona shaharlarida 500-700 o'ringa mo'ljallangan yarim statsionar sirk tashkil etish, sirk dasturlari va tomoshalarining badiiy saviyasini oshirish va 2020 yilga qadar tomoshalar sonini kamida 500 taga, 2024 yilga qadar 1000 taga yetkazish, mashhur xorijiy sirk tashkilotlarini, Xitoyning “Chang Long”, Rossiyaning Svetnoy Bulvardagi Moskva sirki gastrollarini respublikamiz poytaxti va shaharlarida rejalashtirish, 2020 yildan boshlab Toshkent shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro sirk festivalini o'tkazish xalqaro maydonda o'zbek sirk san'ati nufuzini yanada oshirish, buyuk ma'naviy merosimiz, betakror qadriyatlarimizni ulug'laydigan tomoshalar bilan boyitib borish va rivojlantirish uchun katta qadam ekani alohida ta'kidga munosibdir.

Musiqasohasida gap ketganda, moziydan sado beruvchi, tarixan uzoq vaqtlardan beri bebaho meros bo'lib kelayotgan musiqasohasini asrab-avaylash, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash, tadqiq va targ'ib qilishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va hayotga tadbiiq etish, xalq orasidan yetishib chiqqan havaskor sozanda va xonandalar faoliyatini moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash, iste'dodli ijrochilarni aniqlash maqsadida turli darajadagi ko'rik-tanlovni o'tkazish konsepsiyaning asosiy vazifalaridan biri deb e'tirof etilgan. Bu borada o'n ikkinchi bor o'tkazilishi rejalashtirilayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqasohasini festivalining o'rni beqiyos. Festival doirasida “Sharq

xalqlari an'anaviy musiqa san'atini rivojlantirish istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazilishi, xorijiy va mahalliy musiqashunos olimlar mahorat darslarining o'tkazilishi hamda milliy maqom san'atining noyob namunalarini yana ham keng targ'ib etish maqsadida 2020 yil sentabr oyining birinchi yarmida 11 Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazishga tayyorgarlik boshlangani, nufuzli anjuman doirasida "Yosh maqom ijrochilari", bastakorlar o'rtasida "Maqom yo'lida yaratilgan eng yaxshi asar" kabi nominatsiyalar bo'yicha respublika tanlovlarini o'tkazish, "Maqom san'atini rivojlantirish istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazish masalalari ushbu sohadagi yangicha ko'rinishlar sanaladi.

Milliy raqs san'ati sohasida

Milliy raqs san'ati, uning shakllanish tarixi, rivojlanish bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari, jahon madaniyatida tutgan o'rnini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va tahlil etish hamda uning yangidan yangi milliy namunalarini yaratish, bolalar musiqa va san'at maktablarida "Xoreografiya" yo'nalishi bo'yicha ta'lim-tarbiya ishlarini yanada rivojlantirish konsepsiyaning bu san'at sohasidagi vazifalariga xizmat qiladi. Shu o'rinda Xivada ilk bor o'tkazilgan O'zbek xalqining xalqaro festivalini misol qilish mumkin. "Munojot", "Tanovor", "Dilxiroj", "Mavrigi", "Samarqand ushshog'i", "Lazgi", "Daryo toshqin", "Namanganning olmasi", Surxondaryoning yog'och qoshiq bilan ijro etiladigan raqlarini yoshlarga o'rgatish, o'zbek milliy raqslerini jahon sahnalariga olib chiqish masalalarida yorqin iz qoldiradigan san'at bayramidir. Yaqindagina Toshkentda bo'lib o'tgan Tamaraxonim uy muzeyida mashhur san'atkorning 113 yilligiga bag'ishlab xotirlash tadbiri o'tganini, 1935 yilda Tamaraxonimning Parijda o'zbek milliy raqsini ijro etgani, Londonda bo'lib o'tgan xalqaro festivalda Britaniya qirolichasining shaxsan o'zi Tavmaraxonimga san'atga qo'shgan hissasi uchun mukofot topshirgani milliy raqsimizning dunyo sahnalaridagi e'tirofi bo'lsa, hozirgi kunlarda O'zbekistonning qator xorijiy mamlakatlari bilan hamkorlikdagi

konsertlarida ham raqs san'atiga alohida diqqat bilan qaralayotir. O'z o'rnida otameros san'atni bolalarga sog'-salomat yetkazish borasida qator amaliy tadbirlar kun tartibida turibdi.

Milliy estrada san'ati sohasida

Respublikamiz yosh iste'dodlari musobaqalaridan hisoblanmish "Nihol", "O'zbekiston vatanim manim!" kabi qator nufuzli konkursning o'tkazilishidan asosiy maqsad milliy san'atimiz, shu jumladan milliy estrada san'ati rivojiga munosib hissa qo'shishdir. Namunaariga berilayotgan zilishidan asosiy maqsad o'zbek milliMilliy estrada san'atining milliy qadriyatlar asosidagi rivoji va targ'ibotini kuchaytirish, estrada qo'shiqchilik san'atini rivojlantirish, bu borada doimiy ravishda "O'zbek estrada qo'shiqchiligida so'z va uning ahamiyati, qo'shiqlarga ishlanayotgan musiqa va kliplar xususida", "Estrada san'atining yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi o'rni" mavzusida davra suhbatlari o'tkazish maqsadga muvofiq.

Bu borada "Navro'z sadolari" milliy cholg'ular ko'p ovozli ansambl va orkestrlarining U xalqaro festivali ushbu ta'riflarga misol bo'la oladi. Ta'lim sohasidagi islohotlarni konsepsiyada belgilab qo'yilganidek, madaniyat, musiqa va san'at sohasidagi professional faoliyat uchun malakali kadrlarni tanlash, ularning malakasini oshirish, san'at sohasidagi xorijiy va milliy an'anaviy ta'lim tizimining eng yaxshi yutuqlarga, shuningdek, san'at sohasida ta'limni rivojlantirishga asoslangan ta'lim texnologiyalardan keng foydalanish, san'at ta'limi mazmunini yangilashda rag'batlantiruvchi raqobat mahitini yaratish, san'at ta'limi sohasining eng yaxshi an'alarini va dunyodagi ilg'or amaliyotlarini qo'llash orqali sohaviy ta'lim tizimini rivojlantirishning innovatsion xususiyatini ta'minlash, san'at ta'limini boqarishda jamiyat-davlat boshqaruvining samarali mexanizmlarini qo'llash, san'at ta'limi infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda uni uzviyligini ta'minlash borasidagi say-harakatlarni keltirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy kinematografiyani qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”ni imzolagach, bu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, milliy filmlarni dunyo ekranlariga olib chiqish bo‘yicha ham diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi.

Kino san’ati sohasidagi qator yangiliklar milliy konsepsiyamizning yana bir ustuvor yo‘nalishlaridandir. “O‘zbekkino” milliy agentligining 2018 yilda davlat byudjetidan 19 ta badiiy, 40 ta hujjatli, 2 ta qisqa metrajli, 8 ta multfilmlar, “Zumrasha” bolalar yumoristik kinojurnalining 11 ta to‘plamini tomoshabinlar hukmiga havola etgani, 2018 yilda 20 ta, 2020 yildan boshlab esa yiliga 30 tadan to‘liq metrajli badiiy filmlarni tomoshabinlarga havola etishni rejalashtirilgani, 2019 yilning oxiriga qadar namunaviy loyihalar asosida 50 dan ortiq kinoteatrlar qurilishi rejalashtirilgani, yozgi, bir va ikki qavatli kinoteatrlarni namunaviy loyihalari tasdiqlangani, “Skorpion”, “Visol”, “Chapani kuyov”, “Vasiyat”, “Meni kechir”, “Yuragimdasan”, “Baron 2”, “Islomxo‘ja”, “Issiq non” kabi filmlarning suratga olingani, milliy qadriyatlarimiz g‘oyalari va talqinlari misolida madaniyatimiz, san’atimiz rivojiga qo‘shilgan munosib hissadir.

Madaniyat turizmi sohasida

Tarixiy konsepsiyada e’tirof etilgan mamlakatda madaniyatning turli yo‘nalishlari bo‘yicha madaniy ziyoratgohlarni tayyorlash, mamlakatning butunlay yangi madaniy landshaftini shakllantirish, O‘zbekistonning to‘liq topografik imidji va tarixiy-madaniy landshafti hamda majmuasini va mamlakatning noyob madaniyatini namoyon etgan holda sayyohlarni ommaviy jalb etadigan jozibali ko‘rinishni yaratish borasidagi islohotlar ham bugun o‘zgacha mazmun kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvarda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan joriy yilning 1 fevralidan boshlab 75 ta

davlat fuqarolari elektron kirish vizasini olishlariga sharoit tayyorlangani, 45ta davlat fuqarolariga xuddi shu muddatdan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududiga kirgan kundan e'tiboran 30 kunlik muddatga vizasiz rejim belgilangani ushbu sohaga bo'lgan yirik qadamlar sirasiga kiradi.

O'zbekiston ziyorat turizmining markaziga aylanib borayotgani madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan Buxoro shahrida 1 Xalqaro ziyorat turizmi forumining tantanali ochilishida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti (ISESCO), jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) kabi qator nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan ushbu nufuzli xalqaro anjuman 25 davlatdan 120 dan ortiq mehmonlar ishtirokida bo'lib o'tgani, mehmonlar e'tirof etganlaridek O'zbekistonning ziyorat bo'yicha salohiyati g'oyat ulkan ekanligi, Islom dunyosida eng bebaho Qur'oni Karim namunalaridan biri- Hazrati Usmon Mushafi O'zbekistonda saqlanayotgani, muhaddislar imomi. Hadis ilmi olimlarining ustozlari Muhammad al-Buxoriy, Naqshbandiya tariqatining ko'plab yetuk izdoshlari yurtimizdan yetishib chiqqanligi alohida e'tirofga loyiq.

Xalqaro aloqalar sohasida

Xalqaro aloqalar sohasida konsepsiyamizda qayd etilganidek, xalqaro madaniyat va san'at tashkilotlari, chet el madaniy, ilmiy tadqiqot va ekspert institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirish,

YUNESKONing moddiy va nomoddiy madaniy meros ro'yxatlariga Markaziy Osiyoga xos bo'lgan umumiy namunalarni boshqa davlatlar bilan hamkorlikda kiritish choralarini ko'rish, O'zbekistonda an'anaviy hunarmandchilikka erishilgan katta yutuqlarga asoslangan holda Toshkent shahrida YUNESKONing "Tinch okeani va Markaziy Osiyo davlatlarida amaliy an'anaviy hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash markazi"ni tashkil etish borasidagi say-harakatlarni yo'lga qo'yish borasida mukammal vazifalar bergilab olingan.

2018 yil 9 martda O‘zbekiston va Tojikiston san’at ustalarining “Do‘stlik oqshomi” tantanali konsertida davlat rahbarining so‘zlarida aytilganidek oxirgi yillarda o‘zaro madaniyat va san’at kunlari, ko‘rgazma va boshqa tadbirlarning o‘tkazilgani yangi do‘stlik ko‘priklariga asos solingani, yangi “Ipak yo‘llari”ning barpo etilayotgani, Qozog‘istonda O‘zbekiston yilining joriy etilgani, qozoq shoiri Abay Qo‘nonboyevning ijodiy merosini O‘zbekistonda keng o‘rganish va targ‘ib etish borasida O‘zbekiston Prezidentining Qarori e‘lon qilingani, Qarlig‘ashbiy sifatida mashhur bo‘lgan To‘labiy maqbarasini muqaddas ziyoratgohga aylantirilgani, ikki xalqning o‘zaro yaqinligi, madaniyat, an‘ana, urf-odatlarining mushtarak ekaniga xizmat qilayotgani, Turkmaniston poytaxti Ashxobodda O‘zbekiston milliy sanoat ko‘rgazmasining ochilishi, keyinroq Toshkentda Turkmaniston milliy ko‘rgazmasining ochilishi, 1995 yilda Toshkentda tashkil etilgan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyat assambleyasining jonkuyar tashkilotchisi hisoblanmish Chingiz Aytmatovning 90 yillik tantanasini keng nishonlash, mashhur yozuvchining o‘zbek madaniyati, san’ati, ma’rifati haqida “Tarixda Vizantiya slavyan xalqlari o‘rtasida madaniyat tarqatishda qanday rol o‘ynagan bo‘lsa, o‘zbeklar ham Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan shunday rol o‘ynagan” degan yuksak e’tirofi, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida madaniy-gumanitar sohadagi aloqalarni rivojlantirish borasida O‘zbekistonda turk, Turkiyada o‘zbek madaniyat markazlarini ochish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni birgalikda amalga oshirish, oliy ta’lim dargohlari talabalari va professor o‘qituvchilarining tajriba almashishiga sharoitlar tayyorlash masalalari xalqaro aloqalarga mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Unutmaslik kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining “Xalq cholg‘ulari ijrochilari”, Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” va Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovlarini an‘anaviy ravishda o‘tkazish, “Xalq cholg‘ulari ijrochilari” ko‘rik-tanlovi ikki yilda bir marta, Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” ko‘rik-tanlovi ikki yilda bir marta, Yunus

Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” ko‘rik-tanlovi ikki yilda bir marta o‘tkazilishi, ushbu ko‘rik-tanlovlar g‘oliblarining bir nafardan yakka ijrochilari tegishli yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta‘lim muassasasining bakalavriat bosqichiga qabul kvotasiga qo‘shimcha davlat granti asosida qabul qilinishi ijod ahliga bo‘lgan e‘tirofning yana bir qirrasidir.

Ta‘kidlash lozim, bugungi kungacha Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Rerezentativ ro‘yxatiga O‘zbekistondan “Boysun madaniy muhiti”(2008), “Shashmaqom” (2008), “Katta ashula” (2009),”Navro‘z” (2009), “Askiyaso‘zamollik san‘ati” (2014), “Palov madaniyati va an‘analari” (2016) kabi 6 ta merosimiz kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi va Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikdagi davlatlararo qo‘shma loyiha doirasida Buyuk ipak yo‘lining mamlakatimizdan o‘tgan qismini “Ipak yo‘li: Zarafshon daryosi vohasi” va “Ipak yo‘li: Farg‘ona – Sirdaryo havzasi” nomi ostida YUNESKONing Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga, O‘zbek xalqining ko‘hna va betakror san‘ati namunasi bo‘lgan Xorazm “Lazgi”sini “Xorazm raqsi – Lazgi” nomi ostida YUNESKONing Insoniyat nomoddiy madaniy merosining rezentativ ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakatdagi ulkan islohotlarda madaniyat va san‘at muassasalari xodimlarining ham faoliyatlarini yanada takomillashtirishlari va yanada samarali ijod qilishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Milliy madaniyat tushunchasini izohlab bering.
2. Konsepsiyaning mazmun – mohiyati nimalardan iborat?
3. Konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlarini ta‘riflab bering.

4. Teatr va kino sohasidagi yoʻnalishlar nimalardan iborat?
5. Konsepsiyani amalga oshirish borasida koʻproq nimalarga eʼtibor qaratiladi?
6. Konsepsiyada “Madaniyat toʻgʻrisidagi qonun” haqida qanday satrlar bor?
7. Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ roʻyxatiga Oʻzbekistondan nimalar kiritilgan?
8. YUNESKO qanday xalqaro tashkilot va uning missiyasi nimalardan iborat?

XULOSA

“Boshqaruv texnologiyalari” oʻquv qoʻllanmasida boshqaruv faoliyatining asosiy jihatlari – boshqaruvning vazifalari, maqsadi, yoʻnalishlari, uslublari, tamoyillari, funksiyalari haqida batafsil toʻxaldik. Boshqaruv texnologiyasining rejalashtirish, tashkillashtirish, motivatsiya, qaror qabul qilish, nazorat, nazorat tizimidagi aloqalar, axborot-texnologiyalardan samarali foydalanish haqidagi xorijiy, milliy ekspertlarning mulohazalari, tavsiyalaridan foydalandik.

Yunon faylasufi, mantiq fani asoschisi **Suqrot** (eramizdan avvalgi 428-394 yillar)ning boshqaruvga faoliyatning alohida sohasi sifatida tafsif berganini, boshqaruvning universal tamoyillarini tadqiq qilganini, mashhur alloma **Platon** (eramizdan avvalgi 428-394 yillar) ning davlatni boshqarish shakli, klassifikatsiyalarini yaratganini, buyuk sarkarda **Aleksandr Makedonskiy** (eramizdan avvalgi 365-325 yillar) harbiylarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishi, boshqaruvning ilmiy yoʻnalishlari va menejment maktablarining shakllanishida Robert Ouenning xizmati katta ekani, 1983 yil angliyalik matematik CH.Bebbidj hozirgi zamonaviy hisoblash texnikasi – “analitik mashina” loyihasini ishlab chiqqani, boshqaruvning toʻrt xil modeli – “sifat toʻgaraklari”ga eʼtibor qaratgan **yapon** modeli, inqilobiy sakrashlarsiz, bosqichma-bosqich boshqaruv faoliyatini olib borish siyosatiga xizmat qilgan **shved** modeli, nihoyatda aniqlik va tejamkorlik tamoyillariga asoslangan **nemis** modeli, milliy qadriyatlariga suyangan **xitoy** modellariga taʼrif berdik.

Shuningdek, **“Fozil odamlar shahri”** kitobi muallifi, mutafakkir **Abu Nasr Forobiy**, Yevroosiyoning 27 ta davlatida adolatli salatanat o‘rnatgan **Sohibqiron Amir Temurning “Temur tuzuklari”** kitobidan tortib, boshqaruv nazariyasi asoschilari, boshqaruv faoliyatida o‘ziga xos maktablar barpo etgan, boshqaruvda maqsadlar meyorlar mutanosibligini targ‘ib etgan **G.Emerson**, boshqaruv faoliyatida javobgarlik va yakkaboshlik tamoyillarini ilgari surgan **A.Fayol**, boshqaruv faoliyatida boshqaruv vositalari va ishchi kuchini afzal ko‘rgan **F.Teylor**, nazoratni pastki darajadan yuqori darajagacha mukammal olib borilishining targ‘ibotchisi **M.Veber** ta‘limotlariga suvandik.

Talabalarga havola qilgan mavzularimiz madaniyat va san‘at sohasining bo‘lg‘usi rahbarlarga kelgusidagi mehnat faoliyatlarida qo‘l kelishiga umid qildik.

Zero, ustozlarimiz bergan ta‘limu o‘g‘itlari nazariya va amaliyot birligida ongu shuurimizga o‘rnashib qolgan. Oliy ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning, madaniyat va san‘at muassasalari rahbarlarining oldida turgan vazifalarning nechog‘lik qimmatli ekani Muhtaram Yurtboshimizning bu boradagi qator Qarorlari va Farmonlarida aks etgani haqida ma‘lumotlar berdik.

Chunki asosiy vazifa umrboqiy madaniyat va san‘atimizni yanada rivojlantirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, aholining o‘sib borayotgan madaniy zhtiyojlarini qondirish, madaniy xizmatlar sifatini oshirish, madaniyat va san‘at muassasalarining moddiy-texnik bazasini jahon standartlari darajasida jihozlash, milliy ijodiy mahsulotlarni eksport qilishning samarali tizimini yaratish, xorijiy ijodiy tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni yaxshilash, ildizlari ming yillarga borib taqaladigan tarixiy ma‘naviy meroslarimizni asrab – avaylashdan iboratdir.

Biz madaniyat va san‘at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo‘nalishi orqali ana shu ma‘rifiy islohotlarni keng xalq ommasiga yetkazish borasidagi birinchi darajali mas‘ul shaxslar hisoblanamiz.

Bu boradagi faoliyatimiz egallagan bilimimiz, oʻrnak boʻlarli tafakkurimiz, madaniyat va sanʼat sohasiga qoʻshgan ezgu hissamizda bilinadi.

G L O S S A R I Y

ADABIY-MADANIY MEROS – o‘tmish moddiy-madaniy boyliklari, ajdodlardan avlodlarga qolgan xalq og‘zaki ijodi, yozma adabiyoti, san’ati, me’morlik va hokazo namunalari.

AN’ANALAR – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma’naviy faoliyat shakllarining, kishilar o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avlod-dan-avlodga o‘tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi.

BAYRAM KUNLARI – muhim voqealarga bag‘ishlangan, an’ana sifatida nishonlanadigan, ish kuni hisoblanmaydigan kunlar.

VIDEONAZORAT QURILMASI, monitor – teleko‘rsatuvlar oldidan ko‘rsatuvlar trakti tayyorlanayotgan, sozlanayotgan, ko‘rsatuvlar ketayotgan paytda efirga uzatish nuqtalari (uzatuvchi kameraning chiqishi va b.)dagi tasvirlar sifatini nazorat ekranlarida vizual (ko‘rib turib) nazorat qilish uchun mo‘ljallangan qurilma.

GALEREYA – peshayvon, bostirma; binolarda yon devorlaridan biri o‘rniga ustunlar o‘rnatilgan usti yopiq, uzun, ensiz ayvonli qurilma; uzun balkon; yon devorlarining biri oynavand qilib qurilgan uzun zal.

MADANIY-MA’RIFIY ISH – keng ommani madaniy, ma’rifiy tarbiyalash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh vaqtlarini ko‘ngilli o‘tkazishga ko‘mak beruvchi tadbirlar tizimi.

MADANIY MEROS – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy, ruhiy qarashlar, xalq madaniyati, ijodi kabi moddiy hamda ma’naviy boyliklar majmui.

MADANIYAT – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma’naviy boyliklarda

ifodalanadi. «Madaniyat» tushunchasi muayyan tarixiy davr, konkret jamiyat, elat va millat, shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalarini izohlash uchun qo'llaniladi.

MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI – aholi madaniy hordiq chiqaradigan, turli bezakli daraxt va gulzorlar bilan jihozlangan, ko'kalamzorlashtirilgan maskan.

MADANIYAT SAROYLARI VA UYLARI – yirik madaniyat muassasalari. Aholining madaniy dam olishini uyushtirish maqsadida faoliyat ko'rsatayotgan ko'p o'rinli tomosha va ma'ruza zallari, doimiy kinoqurilmalar, kutubxonalar, to'garak mashg'ulotlari, tasviriy san'at to'garaklari uchun mo'ljallangan bino.

MAROSIM – diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan ma'raka, yig'in, diniy marosimlar, to'y marosimlari, dafn marosimi, tantanalar bilan o'tkaziladigan marosimlari.

MA'NAVIYAT -kishilarning falsafiy, huquqiy, estetik, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

MILLIY MADANIYAT – ma'lum elat, millat, xalq tomonidan uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida yaratilgan, ularning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarni ifoda etgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmui. Milliy madaniyatga til, turmush tarzi, mentalitet, urf-odatlar, din, xalq ijodi, arxitektura, adabiyot, musiqa, axlokiy-ma'naviy qadriyatlar va hokazolar kiradi.

MILLIY QADRIYATLAR – millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega jihatlar, xususiyatlar, moddiy va ma'naviy boyliklar.

REPERTUAR – drama teatri, musiqali teatr, estrada konserti .

SPEKTAKL -teatr san'ati asari. Postanovkachi-rejissyor boshchiligida teatr jamoasi tomonidan yaratiladi. Spektakl asosida pyesa mazmuni bilan belgilanuvchi g'oyaviy niyat yotadi.

SIVILIZATSIYA – fuqarolikka, davlatga taalluql, tamaddun keng ma'noda – ongli mavjudotlar mavjudligining har qanday shakli, madaniyat so'zining sinonimi.

EKSPOZITSIYA– badiiy asar, moddiy madaniy yodgorliklar, tarixiy hujjat va boshqalarning ko'rgazma va muzey zallarida yoki ochiq joylarda ma'lum tizimda joylashtirilishi.

QADRIYATLAR – borliq, jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Qadriyatlar bilan bog'liq masalalar hayotning eng asosiy mavzulari bo'lib hisoblanadi.

MA'RIFAT – bilim berish, xabardor qilish, o'rgatish ma'nolarini ifoda etadi. Ma'rifatning ikkinchi ma'nosi inson ongi, qalbi, hayot tarzini ijobiy tomonga o'zgartirib, yaxshilik qilish, savob ishlarni amalga oshirishga undaydigan kuch sifatida namoyon bo'ladi.

ILM – muayyan bir soha bo'yicha egallangan bilimlarning mantiqiy tartiblashtirilishi. Olingan bilimlarning tizimga solinishi va anglanishidir. Faqat anglangan va tizimga solingan bilimlarnigina boshqalarga o'rgatish mumkin.

XALQ BILAN MULOQOT – davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni ifoda etadi. Xalq bilan muloqot Vatanimizda maxsus ishlab chiqilgan tizimli faoliyat sifatida yo'lga qo'yildi.

Xalq bilan muloqot nafaqat odamlarni tinglash, balki ularning taklif va tavsiyalari asosida mamlakatimizni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishni ham nazarda tutadi.

“YO‘L XARITASI”- biror-bir maqsadga oqilona yo'l bilan erishishning puxta ishlab chiqilgan rejasi, qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlarni samarali amalga oshirish, ko'zlangan rejalar, muddaolarni ruyobga chiqarishning eng

maqbul mexanizmi.

PORTAL- lotincha “eshik”, “deraza” degan ma’nomalarni ifoda etadi. Yana bir ma’nosi – yopiqlik emas, hamisha ochiqlik ma’nosini, ya’ni ochiq turuvchi eshiklar ma’nosini ham anglatadi.

ELEKTRON HUKUMAT–boshqaruv jarayonlarini, ya’ni topshiriqlarni tez yetkazishdan tortib, qaror qabul qilish, uning samarali nazorat mexanizmigacha bo‘lgan ishlar, shuningdek, vertikal hamda gorizontal ta’sir omillarining optimallashtiruvini ifoda etadi.

SHAXSIY MAS’ULIYAT - davlat va jamiyat talablarini bajarishda mas’ul shaxsning siyosiy, axloqiy, kasbiy, ma’naviy jihatlarida o‘zini namoyon etish darajasi. Shaxsiy mas’uliyat insonga qo‘yilayotgan talablarni bajarishga nechog‘liq qodirligi, ularni qay darajada anglay olishi, talab qilinayotgan natijaga erishish, tashqi omillar ta’siridagi harakatlarning oqibati uchun insonning javobgarligi, bu oqibatlarni oldindan ko‘ra bilish singari masalalarni qamrab oladi.

MEXANIZM – muayyan ish tartibini joriy etish va bu ish tartibini boshqalarga uzatish tizimini o‘zida namoyon etadi.

ISHONTIRISH - bir insonning boshqa inson , guruh yoki jamiyatga o‘z qarori, g‘oyalari bilan o‘tkazuvchi ta’siri va ularni o‘z ortidan yetaklay olishidir. Ishontirish omilining samaradorligi ilgari surilayotgan g‘oyaning nechog‘lik to‘g‘riligi, haqqoniyligiga bog‘liq. Harakatlar strategiyasining harakatlantiruvchi kuchi ham uning to‘g‘riligi, haqqoniyligi va xalq manfaatining ustuvorligida namoyon bo‘ladi.

STRATEGIYA - ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bosh yo‘nalishi, barcha say-harakatlarning poydevori, davlat va jamiyat hayotidagi tub burilish davri uchun xos bo‘lgan boshqaruv san’ati mazmunini ifoda etadi.

PREZIDENT QARORLARI VA FARMONLARI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 2017 yil 14 fevraldagi F-4849 Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 16 fevral Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2018 yil 5 apreldagi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” 2017 yil 31 may Qarori.
5. “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 8 avgust Qarori.
6. “O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2017 yil 15 avgust Qarori.
7. “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 17 oktabr.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-son Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida»gi 2018 yil 6 apreldagi Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi 2018 yil 1 noyabrdagi Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi 2018 yil 1 noyabr Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018 yil 28 noyabr Qarori.

Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Ma’naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir. // Toshkent. “O‘zbekiston”, 1998.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini barpo etamiz. Toshkent. ”O‘zbekiston”. 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 .
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 .
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017.
6. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – Toshkent: 1996. 2-tom.
7. Karimov I. A. Ma’naviy yuksalish sari. – Toshkent, 1998.
8. Karimov I.A. Milliy mafkura haqida, Toshkent, 2000.
9. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent, “Ma’naviyat”. 2008.

Asosiy adabiyotlar:

1. Bekmurodov M. Tashkilot madaniyati va rahbar ma’naviyati. – Toshkent., 2001
2. Yo‘ldashev N, Qozoqov O. Menejment. Darslik. – Toshkent: Fan, 2004.
3. Kabushkin N.M. Osnovi menedjmenta: ucheb. posobiye. – Moskva., 2009.

4. Ravshanov F. Rahbar va rahbarshunoslik. T.: «Akademiya», 2009.
5. Тульчинский Г.Л. Менеджмент в сфере культуры. – С.-Петербург. Гос – Спб.: Лан, 2001.
6. Тульчинский Г.Л, Шекова Е.Л. Менеджмент в сфере культуры.– Спб., 2007.
7. Fayziyev T, Sobirjonova D, Sulaymonov B. Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish (ma’ruzalar matni). T.: 2002.
8. 16. Xaydarov A. Madaniyat va san’at sohasini boshqarish asoslari. – Toshkent.G‘.G‘ulom . 2016.
9. Qosimova D. Menejment nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2011.
- 10..Haydarov A. Harakatlar strategiyasi va ma’naviy yuksalish. – Toshkent: G‘.G‘ulom .2018.
- 11.Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”,Toshkent, G‘afur G‘ulom.Adabiyot va san’at nashriyoti”,1993.
- 12.Kaykovus. Qobusnoma.Toshkent.Yangi asr avlodi.2018.
- 13.Nizomulmuluk.Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). Toshkent. Yangi asr avlodi. 2017.
- 14.Avloniy A.Turkiy guliston yoxud axloq.Toshkent, 1993.
- 15.Nazarov Q.Qadriyatlar falsafasi.(Aksiologiya),Toshkent, 2004.
- 16.Nazarov Q.G‘arb falsafasi.Toshkent, Sharq,2004.
- 17.Alimov V. va boshqalar. Madaniyatshunoslik – Toshkent: 2006.
- 18.Mavrulov A. Madaniyat va tafakkur o‘zgarishlari. T., “Adolat”, 2004
- 19.Mavrulov A.Ma’naviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
- 20.Qoraboyev U. Soatov G‘. O‘zbekiston madaniyati. – Toshkent.Tafakkur bo‘stoni.2011..
- 21.Toshmatov O‘.Ijodiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti” – Toshkent. 2006.
- 22.Qoraboyev O‘. O‘zbek xalq bayramlari. – T, 2001.

23. Nazarov Q, Xolbekov. A., Umarova. N. Boshqaruvning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlari. Toshkent. 2008.
24. Проблемы лидерства и кадровые технологии. Под. ред. В. М. Мартыненко. Харьков. Константа. 2006.
25. Управление человеческими ресурсами. Под. ред. М. Пула, М. Уорнера. Спб. Питер, 2002.
26. Salimov. O, Bekmurodov. M, Halilov. N, Quronboyev. Q, Maxmudov. O. Saodat yo'li. Toshkent, G'. G'ulom. 2016.
27. Temur tuzuklari. Toshkent. O'zbekiston. 2011.
28. Salimov. O, Quronboyev. Q, Bekmurodov. M, Tangriyev. L. Boshqaruv hikmati. Toshkent, G'. G'ulom, 2018.
29. To'uchiyeva. S. Ma'naviyat va shaxs faolligi. Toshkent. Adolat. 2004.
30. To'uchiyeva .S, Norbekov. A. Ijtimoiy siyosiy faoliyat. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2010.
31. To'uchiyeva. S. Shaxs ijtimoiy faolligi va ma'naviy madaniyat. Toshkent. Milliy ensiklopediya ilmiy nashriyoti. 2016.
32. To'uchiyeva. S. Vodiylarni yayov kezkanda. Toshkent. A. Navoiy nomli Milliy kutubxona nashriyoti, 2018.
33. Boboyev. X., G'ofurov. Z. O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2001.
34. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. Fan. 2004.
35. Рубакин Н. А. Среди книг. Москва. Книга. 1975.
36. Mahkamova M, Yo'ldosheva S., Xolmatova SH., Shmigun O. Menejment. Sharq. 2007.
37. Семенов. А. К, Набоков. В. И. Основы менежмента. Москва. 2008.
38. Удалов Ф. К, Алёхина О. Ф, Гапонова С. О. Основы менеджмента. Новгород. 2013.
39. Mirzakalon Ismoilii. Inson husni. Toshkent. G'. G'ulom. 1989..

40. А. Мескон, М. Альберт, Ф. Хедоури. Основы менеджмента. Москва. Дело. 2004.
41. Сост. А. Грицанов, В. Абушенко, Ф. Евелькин, О. Тарасенко. Минск. Книжный дом. 2003.
42. Ильенкова С, Кузнецов В. Социальный менеджмент. Москва. 2009.
43. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Toshkent. Fan. 1971.
44. Федотов П. Г. Менеджмент в сфере культуры. Великий Новгород. 2015.
45. То‘xliyev В. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari. Toshkent. Cho‘lpon. 1991.
46. Bekmurodov B, Quronboyev Q, Tangriyev L. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. Toshkent. G‘afur G‘ulom. 2017.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.teatr.uz
3. www.bilim.uz
4. www.ziyouz.com
5. www.ziyonet.uz.
6. www.teatruz.
7. www.bilim.uz
8. www.kun.uz.